

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

*O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining
25 yilligiga bag‘ishlanadi*

YOSH TARJIMASHUNOS

**(“Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik”
mutaxassisligi magistrantlari va “Tarjima nazariyasi va
amaliyoti” yo‘nalishi talabalarining yillik an‘anaviy ilmiy-
amaliy anjumani materiallari)**

II

Toshkent – 2016

Ushbu to'plam "A-1-180 "Tarjima va madaniyatlararo muloqot masalalariga oid o'quv qo'llanmalari yaratish" ilmiy loyihasi doirasida ToshDShI Sharq filologiyasi fakulteti "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik" mutaxassisligi magistrantlari va "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" yo'nalishi talabalarining 2016-yil 1 aprel kuni bo'lib o'tgan II an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallarini o'z ichiga olgan. To'plamdan "Filologiya va tillarni o'qitish" ta'lim yo'nalishida tarjima amaliyoti masalalari bilan shug'ullanuvchi talabalarining tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid mavzular yoritilgan maqolalari ham o'rin olgan.

Tarjimashunoslik, tarjima nazariyasi, amaliyoti va tanqidi mavzusidagi maqolalar jamlangan ushbu to'plam mazkur soha bilan qiziquvchi barcha ilm toliblari va mutaxassislar uchun foydali bo'ladi deb umid qilamiz.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

dotsent X.X. Hamidov

Mas'ul muharrir:

filologiya fanlari doktori, professor Sh.R. Usmanova

Taqrizchilar:

*"Oltin qalam" gazetasi bosh muharriri N. Salomova
filologiya fanlari doktori, prof. Z.Xudoyberganova*

ToshDShI Kengashining 2016 yil 27-aprelda bo'lib o'tgan 9-sonli
majlisida ko'rib chiqilib nashrga tavsiya etilgan

TARJIMA – TILLAR VA MADANIYATLARARO MULOQOT JARAYONI (So‘zboshi o‘rnida)

Tarjima – azaldan til bilan bir qatorda mavjud bo‘lib, adabiyot bilan uzviy bog‘liqlikda taraqqiy etgan va bu sohalarni bir-biridan ajratish mumkin emas. Badiiy tarjima vositasida dunyo adabiyoti namunalarning xalqlarning madaniy hayotiga kirib kelishi bir xalqning boshqa bir xalq ma’naviy hayoti, urf-odat va an’analari bilan yaqindan tanishishiga ko‘mak beradi. Darhaqiqat, so‘nggi chorak asr mobaynida bu sohada erishilgan yutuqlarimizning asosiy sababi bu yil chorak asrlik yubileyi nishonlanayotgan O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligidir. Jahon adabiyotidagi eng sara asarlarning o‘zbek tiliga va o‘zbek adabiyoti namunalarning dunyoning o‘ndan ortiq tiliga tarjima qilish jarayonining yangi pallasi aynan ana shu – 1991-2016 yillarni o‘z ichiga olgan davrga to‘g‘ri keldi.

Su o‘rinda ustoz G‘.Salomovning quyidagi so‘zlarini eslash joiz. Unda o‘zbek xalqining jahon adabiyotiga qanchalik ixlosmandligi, hukumatimizning ham adabiyot va badiiy tarjimaga qanchalik e’tiborligini yaqqol ifoda etganki, bunga ortiqcha izohning hojati yo‘q: “Arab ijodiy fantaziyasining mahsuli “Ming bir kecha”, hind ertaklari “Kalila va Dimna”, Gomerining “Iliada” va “Odisseya”si, Umar Xayyom ruboiylari, Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni, “Boburnoma”, Dante, Shekspir, Servantes, Bayron, Volter, Gyote, Pushkin, Gogol, Tolstoy, Defo, Tagor asarlari jahon xalqlarining tillariga qayta-qayta tarjima qilinishi tufayli Yer yuzining turli qit’alarida asrlar davomida bilim va ma’rifat manbai bo‘lib xizmat qilgan... Bizning mamlakatimizda badiiy tarjima umumdavlat ishi hisoblanadi. Umuman, xalq maorifi, madaniyati, ma’rifatidan davlat qanchalik manfaatdor bo‘lsa, badiiy adabiyot va tarjima ham shunchalik davlat ahamiyatiga molik ishdir. O‘zbekiston – madaniyat, adabiyot va san’atga ega bo‘lgan, Sharqda mash’al bo‘lib tanilgan hur o‘lkadir... Xalqimizning ma’naviy kamoloti ham ana shunga to‘la mos. Bugungi o‘zbek xonadoni faqat o‘z klassik va zamonaviy adabiyoti namoyondalarining ajoyib asarlarini o‘qib lazzatlanish bilan kifoyalanmaydi...”¹

¹ Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: ToshDShI, 2016, 13-14b.

“A-1-180 Tarjima va madaniyatlararo muloqot masalalariga oid o‘quv qo‘llanmalari yaratish” ilmiy loyihasi doirasida tayyorlangan mazkur to‘plamdan institutimizning “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik” va “Lingvistika” mutaxassisliklari magistrantlari va “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” hamda “Filologiya va tillarni o‘qitish” ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olib, tarjima amaliyoti masalalari bilan shug‘ullanuvchi talabalarning yaqinda bo‘lib o‘tgan II an‘anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari o‘rin olgan.

O‘tkazilgan talabalar anjumani materiallari jamlangan to‘plamning tahsinga sazovor jihati nafaqat unda ko‘p sonli talaba ishtiroki, balki kafedramizda yo‘lga qo‘yilgan ustoz-shogird hamkorligi mexanizmining yaxshi ishlagani, talabalarimiz orasida o‘zaro uyushqoqlikda fikr almashinishining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligidir.

Talabalarimizning ilm-fanga chuqur kirib borayotganliklari mamlakatimizda oliy ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlar, yangi uslublarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish, ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga chuqur hurmat hissini uyg‘otish doirasida institutda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarning ijobiy natijasidir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, institutimizda sharqshunos-tarjimonlarni tayyorlash, ulardan eng iqtidorlilarini ilmiy faoliyatga jalb qilish, intellektual salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun shart-sharoit yaratishga doir chora-tadbirlar mana bir necha yildan beri o‘z samarasini bermoqda.

2011-yilda ochilgan, yapon, xitoy, koreys, hind, arab, turk tillari (ikkinchi chet tillari – ingliz, fransuz, nemis tillari)ni biluvchi oltmishdan ortiq yosh mutaxassis kadr yetishtirib chiqargan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida songgi to‘rt yil mobaynida kafedrada ikkinchi amaliy grant loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihalar doirasida o‘ttizdan ortiq kitob nashr qilindi. Bulardan o‘nga yaqini o‘quv qo‘llanmalari, o‘ndan ortig‘i tarjima to‘plamlari va xrestomatiyalar bo‘lsa, o‘ndan ortig‘i bo‘lajak tarjimashunoslarning yuzlab ilmiy maqolalarini o‘z ichiga olgan to‘plamlar, respublika va institut ilmiy-amaliy konferensiyalari materiallaridir. Bu nashrlarning barchasida talabalarimizning ham faol ishtiroki borligini faxr bilan ta’kidlash lozim.

Yaqindagina kafedramiz rahnamoligida bo‘lib o‘tgan anjuman dasturida ko‘rsatilgan sho‘balarda talaba va magistrantlarning qirqqa yaqin ma’ruza va ilmiy axborotlari tinglandi. Anjuman ishida kafedra yo‘na-

lishi va magistratura mutaxassiligida tahsil olayotgan yigirmadan ortiq talaba ishtirok etdi. Ma'ruzalarda o'zbek adabiyoti namunalarining sharq tillariga va sharq xalqlari adabiyotidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalari tahlil qilindi. Bunda talabalarning tarjima tanqidiga qanchalik chuqur kirib borayotganliklari namoyon bo'ldi. Tarjima asarlari tahlili va tanqidiga asosiy e'tibor berilgan talaba tadqiqotlarida tarjimalarning chog'ishtirib o'rganilganligi hamda ularning boshqa tillarga qilingan tarjimalari bilan muqoyasa qilib tekshirish natijasida nazariy-lingvistik va badiiy-estetik xulosalar chiqarilganligi talabalarda ilmiy tadqiqot ko'nikmalari shakllanganligidan dalolatdir. Zero, "Tarjima faqat g'oya-viy-tarbiyaviy qurol bo'libgina qolmay, balki xalqlarning til va lug'at boyligi, nutq madaniyati sohasida erishgan yutuqlarini namoyish qiluvchi muhim ko'rsatkichlardan biridir"². Bugungi fan ta'biri bilan aytganda, badiiy tarjima – tillar va madaniyatlararo muloqot jarayonidir. Zero bu jrayonda ikki xalq madaniyati tutashadi va yangi asar yuzaga keladi.

To'plamdagi maqolalarning mavzulari bir-biridan tubdan farq qilishi, masalalarga yondashish, ilmiy saviyaning turlichaligi, yosh tadqiqotchi: magistrant va talabalarimizning fikrlari ilmiy jihatdan hali unchalik pishib yetilmagan bo'lsa-da, barchasi yagona oliyjanob maqsad – tarjima nazariyasi, amaliyoti va tanqidini rivojlantirishga yo'naltirilganligini e'tiborga olinishini istagan holda to'plam bilan tanishgan ustozlarimiz va soha mutaxassislarining maqolalar yuzasidan o'zlari-ning samimiy fikr-mulohazalarini bildiradilar deb umid qilamiz.

*ToshDShI Tarjima nazariyasi va amaliyoti
kafedrasi mudiri f.f.d., prof. **Sh. Usmanova**
va kafedra dotsenti **X. Hamidov***

² Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: ToshDShI, 2016, 141-142-b.

Shaxzoda XASANOVA,
*ToshDSHI, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik” mutaxassisligi 2-kurs magistranti*
Ilmiy rahbar: f.f.d.,prof. Sh.Usmanova

“SUHBAT VA MULOHAZALAR (LUN YU)” ASARINING RUSCHA TARJIMALARI

Tillar turli oilalarga mansub bo'lsa, ular orasidagi tafovutlar ko'proq seziladi. Bu to'siqlarni yengib o'tish uchun har qanday nazariyada bo'lganidek, tarjima nazariyasida ham nazariy umumlashmalar mavjud. Ularga ko'ra, grammatik shakl andozalariga to'liq mos tushadigan aniq tarjimaning ko'pincha imkoni bo'lmaydi. Bir tilning so'z birikmalari ikkinchi tilning adabiy me'yorlariga to'g'ri kelmaydi. G'.Salomovning yozishicha, “tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o'tadigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika, tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an'ana, ikki individual yozuvchi – muallif va tarjimonning qiyosiy qilinishi yoxud to'qnashuvini taqazo etuvchi ijodiy jarayondir”[1]. Darhaqiqat, tarjima jarayonida tarixiy manbalarni tarjima qilish jarayonida tarjimon sinchikovlik bilan har bir detalga e'tibor berishi zarur. Umuman olganda tarixiy manbalarni tarjima qilishda tarjimon nafaqat tarjima qilingan asar omma ya'ni o'quvchi tomonidan qabul qilinishi, balki unga mos kelishi haqida unutmasligi darkor. Tarixiy manbalar, qo'lyozmalarning ko'plab tarjima nusxalari to'xtovsiz ravishda yaratilmoqda.

Tarixiy manbalardan biri eramizdan avvalgi yillarda yozib qoldirilgan Konfutsiyning “Suhbat va mulohazalar (Lun yu (论语))” asari bo'lib, ushbu, asar juda ko'p tillarga tarjima qilingandir. Biz “Lun yu” asarining rus tiliga qilingan tarjimalarini ko'rib chiqamiz.

1) XX asrda ilk bora ushbu asarning tarjimasini rus xitoyshunosligi uchun juda katta hissa qo'shgan P.S.Popov tomonidan amalga oshirilgan. P.Popovning tarjimalarida konfutsiychilikdagi atamalar nasroniylik tushunchalari bilan beriladi. Shu tariqa xitoy mumtoz asari qaysidir ma'noda “ruslashadi”, “nasroniylashadi”. Tarjima nazariyasiga ko'ra hech bir tarjimon chet tilidan tarjima qilinayotgan mamlakat, millat madaniyatini unutmasligi, ana shu madaniyatning o'ziga xosligi, milliyligini tarjimada saqlab qolishi zarur.

2) Mana shu prinsipni esa boshqa bir rus tarjimoni L.S.Perelomov yodda tutib, “Lun yu” asarini ancha mukammalroq tarjima qiladi. Lekin har ishda bo‘lgani singari bu tarjima ham kamchiliklardan holi emas.

3) I.I.Semenko[2] ham shu yo‘sinda tarjima qilgan. Faqatgina ular orasida ba’zi istisno holatlar hamda tafovutlar mavjud. Masalan:

子夏曰：“贤贤易色.....”[3].

Zi xia yue: “Xianxian yi se...”

1) Цзы-ся сказал: «Если кто из уважения к людям достойным отказывается от похоти...»[4].

2) Цзы-ся сказал: «Если кто-либо вместо любви к прекрасному избирает уважение к мудрости...»[5].

3) Цзыся сказал:

«— Если кто-либо предпочитает чувственности добро...»[2].

“Lun yu”da keltirilgan hikmatli gapning bosh qismidagi tarjima variantlarini ko‘rib turganimizdek, ular mazmun jihatdan yaqin bo‘lsa-da leksik birliklarning tanlanishi jihatidan butkul farqlanadi. Bu yerda asosiy e’tiborni 色 se falsafiy atamasiga qaratsak. Zamonaviy xitoy tili lug‘atida mazkur so‘zning shu o‘ringa mos oltinchi ma’nosi “ayollar go‘zalligi”, yettinchi ma’nosi “ehtiros, hirs”[6] ma’nolarini uchratdik. 贤 xian atamasi esa konfutsiy ta’limotida “yuqori axloqlilik, fazilatlik”ni bildiradi. Shu jihatdan birinchi tarjima variantida shakl va mazmun mutanosibligini kuzatishimiz mumkin.

“Ma’lumki, xalqlarning turmush tarzi, tirikchilik sharoitlari, urf-odatlar, rasm-rusum, irim-chirim, udumlarida juda katta farqlar borki, mavjud rosmna lug‘atlardan ularning nomlariga muqobil so‘z topib bo‘lmaydi, basharti topilgan taqdirida ham, ulardan foydalanish qiyin, negaki, bunday so‘z asarda tasvirlangan voqeaga o‘zgacha milliy ma’no berishi mumkin”[1].

Asar qadimiy bo‘lganligi sababli tarjimalar ham bir biridan farq qiladi. Yana bir misol:

子曰：“学而时习之，不亦说乎？”[3].

Zi yue: “xue er shi xi zhi, bu yi yue hu?”

1) Философ сказал: «Не приятно ли учиться и постоянно упражняться?...»[4]

2) Учитель сказал: – «Учиться и время от времени повторять изученное, разве это не приятно?...[5]»

3) Учитель говорил:

– «Не радостно ль учиться и постоянно добиваться совершенства?...[2]»

Tarjimada asosiy mazmun kasb etadigan soʻz bu 时 (shi) boʻlib, birinchi tarjimada “постоянно” yaʼni har doim, uzluksiz maʼnoda kelgan; ikkinchi tarjimada “время от времени” yaʼni vaqti vaqti bilan; uchinchi tarjimada esa “shi” iyeroglifi ikkinchi qismdagi gapga uygʻunlashib ketgan chamanda. Uchala tarjimada farqlar turlicha aks etmoqda. P.S.Papov tarjimasida asliyat butkul yoqolgan shunchaki mazmunini qisqa ravishda ochib bergan. L.S.Perelomovning tarjimasida asliyat saqlanib qolingan.

Tarjima jarayonida tarjimon katta roʻl oʻynaydi, uning tilni qanchalik yaxshi bilishidan tortib, isteʼdodi, bilimi, dunyoqarashi saviyasi, asl nusxaga munosabati, uslubi ruhiyati kabi omillar tarjimada oʻz aksini topadi.

Asl nusxa bilan tarjima orasida albatta tafovut mavjud boʻladi, asliyat bilan tarjima bir-biriga ekvivalent emas. “Asl nusxa bilan tarjima tili bevosita bir-biriga teng boʻlolmaydi. Ikki tilning lisoniy imkoniyatlari bir-biriga ekvivalentlik holatida boʻlmaydi. Shu sababdan koʻr-koʻrona tarjima qilish mumkin emas. Soʻzlarning aniq mazmuni bilan estetik sifatlari oʻzaro bir-birining oʻrnini qoplay olmaydi. Shuning uchun ham matning tili qanchalik sermaʼno, badiiy tarafdin serjilo boʻlsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi”[1]. Gʻ.Salomovning ushbu soʻzlari fikrimizga yaqqol misol boʻla oladi. Masalan:

子罕言利与命与仁[4].

Zi han yan li yu ming yu ren.

1) «Конфуций редко говорил о выгоде, судьбе и человеколюбии»[4].

2) «Учитель редко говорил о выгоде, воле неба и человеколюбии»[5].

3) «Учитель редко говорил о выгоде, судьбе и человечности»[2].

Tarjimalar orasidagi tafovut koʻrib turganingizdek katta emas, tarjimonlar asliyatni yoqotmagan holda tarjimaga erishganlar. Asl matndagi 罕 *han* soʻzi kam, kamdan-kam, deya tarjima qilingan, 利 *li* soʻzi

foйда, manfaat tarjimalariga egadir. 命 *ming* esa taqdir ma'nosiga ega bo'lib, 仁 *ren* esa inonparvarlik tarjimalariga egadir. Tarjimalar mazmun hamda shakl jihatdan bir biriga mos, asliyatga esa ekvivalent sifatida tarjima qilingandir.

孟武伯³问孝, 子曰: “父母唯其疾之忧。”[3].

Meng wu bo wen xiao. Zi yue: “fu mu wei qi ji bing zhi you”.

2) «Мэн У-бо спросил о почтительности к родителям.

Учитель ответил:

– Родители всегда печалются, когда их дети болеют»[5].

3) «Воинственный из Старших спросил о том, что такое сыновняя почтительность. Учитель ответил:

– Это то, когда отца и мать лишь одно и тревожит – как бы сын не захворал» [2].

Tarjimalar o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Ikkinchi tarjimada boshlanishiga to'g'ri ketgan lekin, yakuni o'zgarib ketgan. 问孝 *wen xiao* ya'ni ota onaga hurmat-ehtirom ma'nolarini bildirib keladi. Gapning ikkinchi qismida esa asliyatdan butkul uzoqlashish ro'y bergan. Konfutsiychilik ta'limotida 孝 *xiao* ehtirom so'zi faqatgina ota-ona hamda kattalarga nisbatan ishlatilgan. Ikkinchi tarjimada esa asliyatga putur yetgan holda tarjima qilingan. Aslida esa tarjima quyidagi tarzda bo'lishi lozim:

“Ota-onaning, ayniqsa betobligida qayg'urib, ularga g'amxo'rlik qilish kerak.”

Uchinchi tarjimada ham shunga o'xshash g'alizlik mavjud bo'lib, tarjimani birma-bir tahlil qilamiz: “Это то, когда отца и мать лишь одно и тревожит – как бы сын не захворал” – “ota-ona hovotir oladi qachonki ularning farzandlari betob bo'lib qolsa”. “Захворал”- so'zining tarjimasi “kasal bo'lmoq, betob bo'lib qolmoq”. Yuqorida keltirilgan ikkila tarjimada ham aliyatning mazmuniga putur yetgan.

Tarjimaning lisoniy (lingvistik) muammosi faqat ikki tilni bilish bilan chegaralansa, g'ayrilisoniy ekstralingvistik muammolari juda ko'pdir: bu ikki adabiyot, ikki madaniyat, ikki tarix, ikki xalqning tur-

³ Meng Ubo (孟武伯 Meng Wubo) Meng Izining o'g'li, Konfutsiyning shogirdi. Ismi Ji (颺 Zhi)

mush tarzi, urf-odatlar, diniy e'tiqodi va marosimlari, shuningdek, falsafiy tarjimada turli ilmlarda kechayotgan voqealardan, badiiy tarjimada adabiy-estetik qonuniyatlardan xabardor bo'lishi taqazo qilinadi. Tarjimonning chuqur bilimi, keng dunyoqarashi, katta hayotiy tajribasi tarjimaning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Tarjimon ommaning jonli tilini yaxshi bilishi, asarni hayotiy tarzda tarjima qila olishi, tushunarli hamda lug'atlarda yo'q so'zlar, iboralarni izlab topishi muhim vazifa hisoblanadi.

Asl nusxa va tarjima o'rtasidagi asosiy tafovutlar avvalo ikki til o'rtasidagi grammatik qurilishi, uslubiy tuzilishi jihatidan farqlar namoyon bo'ladi. Masalan:

有子⁴曰：“其为人也孝弟，而好犯上者，鲜矣；不好犯上，而好作乱者，未之有也。

You zi yue: “Qi wei ren ye xiao ti, er hao fan shang zhe, xian yi, bu hao fan shang, er hao zuo luan zhe, wei zhi you ye...”

1) Ю-цзы сказал: «Редко бывает, чтобы человек, отличающийся сыновнею почтительностью и братскою любовью, любил бы восставать против старших...»[4].

2) Ю-цзы сказал: «— Мало людей, которые, будучи почтительными к родителям и уважительными к старшим братьям, любят выступать против вышестоящих...»[5].

3) Учитель Ю сказал: « — Редко бывает, чтобы человек, полный сыновней почтительности и послушания старшим, любил бы досаждать правителю...»[2].

Tarjimalar mazmun jihatdan bir-biriga nisbattan yaqinroq, lekin asliyat matndan ozgina birinchi tarjima uzoqlashgan. Asliyatda berilgan 而好作乱者 *er hao zuo luan zhe* mansabdor shaxalar deb tarjima qilishni o'rniga “восставать против старших” ya'ni kattalarga qarshi chiqish deb olingan. Kattalar deganda oila a'zolarining kattalari ham tushuniladi. Ikkinchi tarjimada “против вышестоящих” ya'ni yuqori pog'onadagilarga qarshi deb tarjima qilingan bu esa mansabdor shaxs-

⁴ Youzi (有子) – Konfutsiyning 72 nafar iqtidorli shogirdlaridan biri. Sharfi Yo (有 You) ismi Ru (若 Ruo). Ba'zi manbalarda Youzi Konfutsiydan 13 yoshkichikligi, ba'zilarida esa 33 yosh kichik ekanligi ta'kidlanadi.

larga yaqin bo'lgan sinonim so'zdir. Uchinchi tarjimada “досаждать правителю” hukumdorni ranjitmoq deya tarjima qilingan. Bu esa asliyatdan uzoqlashgan. Tarixiy asarlar tarjima qilinayotganda o'sha davr muhitini yoddan ko'tarmagan holda hamda o'sha davrga mos terminlarni qo'llanilishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1978.

[2] – Семенко И.И. Конфуций. Луньей. Изречения. –Москва: Восточная литература, 1987.

[3] – 李泽侯. 论语今读. -北京.: 2000, -页。2。

[4] – <http://www.synologia.ru//Popov>

[5] – Переломов Л.С. Луньей. – Москва: Восточная литература, 2001.

[6] – 现代汉语词典. – 北京：商务印书馆，2005 年. -页。1178.

Gulnoza XAYTBOYEVA,
ToshDSHI, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik” mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d.,prof. Sh.Usmanova

O'ZBEK VA XITOY TILIDAGI ASARLARDA RANGLARNI RAMZIY TILSIMLASH XUSUSIYATLARI

Ranglar jilosi dunyo paydo bo'libdiki, insonga yaratgan tomonidan tortiq etilgan eng go'zal ne'matlar qatorida zikr etiladi. U hamma vaqt o'zining ajoyibligi va chiroyi bilan insonlarda qiziqish uyg'otib kelgan. Qadimda insonlar muloqot jarayonida “ranglar tili”dan foydalanib kelganlar. Har bir rang ma'lum bir pred-metni, holatni va hodi-sani ifodalagan.

Yetti sayyora, dunyoning yetti mo'jizasi, yetti iqlim, haftaning yetti kuni kabi quyosh nurining ham yetti rangda jilolanishida o'ziga xos hikmat mavjud. Quyosh nurining etti rangda jilonalishi yetti sayyora-dan chiqayotgan nurlarning qorish-masidan iborat. Mirrix sayyorasi-ni qizil, zuxroning ko'k, merkuriyning sariq, kay-vonning yashil, mushtariyning qirmizi, quyoshning qovoq rangi, oyning binafsha-rangi birlashib kamalak rangini hosil qiladi.

Ranglar nafaqat sayyoralarining balki, insonlarning ham ruhiyati va fel-atvorini ifodalovchi vositalardan biridir. Ma'lum bir xalqning o'zi tanlagan, milliy liboslarida aks etadigan, bayram tantanalarida foydalaniladigan ranglarida ham o'sha xalqning dunyoqarashi aks etadi.

Tasavvufda ham ranglarning o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, kubraviya tariqatida ular yaqqol namoyon bo'ladi. Kubraviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubroning "usul al-ashara", "risolat at-turuq", "fi ahbob as-solikin" va "favoidul jamol" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan [1,174].

U o'zining ko'plab shu kabi asarlarida "latoif" ya'ni, ranglar nazariyasi masalasiga to'xtaladi. Uning fikriga ko'ra, inson ruhi ko'zga ko'rinmas bir latif markazdan iborat. Bu ong va tuyg'u, ruh va jism orasidagi bir narsa. U shunday nozikki, uni ilg'ab olish mushkul. Ammo inson hayotida bu "latif" markazlarning ahamiyati katta. Sufiy aynan shu markazlarni yallig'lantirib, o'tkirlashtirib borishi va ilg'ab olishi darkor [1,174].

Bu nazariya mohiyatini chuqurroq anglab yetish uchun yana bir karra e'tiborni ranglar nazariyasiga qaratamiz. Kubroning qarashlariga ko'ra, rang bu ruhiy holatning o'zgarishini ifodalovchi vositadir. Har bir rang ma'lum bir holatni anglatadi. Sufiy bosqichma-bosqich ushbu holatlarni boshidan kechiradi.

Uning fikricha, inson ruhiy holatida bo'ladigan o'zgarishlar turli shakllarda, chunonchi: nuqta, dog', doira, shuningdek, turli ranglarda namoyon bo'ladi. Har bir shakl, har bir rangda ma'lum ma'no yashiringan bo'ladi.

Xususan, doira – falakning aylanib turishini ifodalasa, dog' – dunyo tim-solidir, nuqta esa vahdatdir. Doira o'z-o'zi atrofida aylanib turgani uchun nuqta tomon uzluksiz intiladi. Shuning uchun ham, nuqta mohiyatini anglash orqali inson ilohiy olam mohiyatini idrok etadi.

Oq rang – Najmiddin Kubro asaridagi nazariyasida poklanish ramzini anglatadi. Murid poklik, masumlik va to'g'rilikni qo'lga kiritgandagina "tariqat" yo'liga kirishi mumkin.

Sariq rang – qadimgi markaziy osiyo xalqlari nazdida quyosh nurlarining rangi, olov, oltin va boylik ramzi sifatida qaralgan.

Sariq kuz rangi, issiq yoz bilan xayrlashish ramzi hisoblangan va undan ayriliq, mahzunlik va g'am-anduh kabi tushunchalar kelib chiqadi, Najmiddin Kubro nazdida bu rang Allohga bo'lgan kuchli muhabbat, hayotning alloh nomi bilan boshlanishi ramzidir.

Ko'k rang – osmon va dengiz rangidir. Najmiddin Kubro nazarida bu rang "ehson"-sahovat, o'ziga yangi hayot bag'ishlash ramzi demakdir. Bu rang insonning o'zi haqida tafakkur qilishi, gunohlardan poklanishi, o'ziga yaxshilik inom etishi, oddiy hayot tarzidan "tariqat" – ma'naviy takomilga qadam qo'yishini bildiradi[1,175].

Zangori rang – Najmiddin Kubro nazdida "tavba" maqomidan so'ng, "imon" yo'liga kirish ramzini bildiradi. Bu rang yomon fikrlardan va yomon amallardan - "harom"dan qutilish holati, Alloh tomonidan man etilgan amallardan tiyilish va solih amallar – "halol"ga o'tish ramzi bo'lgan.

Yashil rang – Najmiddin Kubro ta'limotida haqiqiy imon belgisidir. Bu rang murid qalbining Allohga haqiqiy imon bilan limmo-lim bo'lish vaqtidagi xolatni ifodalaydi. Yashil rang kubraviya tariqatida bu rang valiylik nishonasidir. Shu bois ham qiyomatgacha musulmonlarga yaxshilik ulashuvchi hizrni yashil rang timsolida ko'radilar. Uning tirikligi doimo unib o'suvchi, gullab-yashnovchi va tiriklik ramzi hisoblanadi.

Qizil rang – bir tomondan, u go'zallik, shodlik va sevgi ramzi bo'lsa, ikkinchi tomondan, u qasos, dushmanlik, urush, xunrezlik ma'nosini ham bildiradi.

Qizil rang -Najmiddin Kubro asarlarida ruhning jismdan ajralib chiqishi, ruh tarbiyati, ruhiyat olamini idrok etish ramzi bo'lgan.

Qora rang – zulmat ramzi, u ko'pgina xalqlar uchun baxtsizlik, g'am-anduh, motam va shunga o'xshash ma'nolarni bildiradi.

Najmiddin Kubro nazdida qora rang ruhning maqsadga ilohiy olamning ostonasigacha yaqinlashishni anglatadi. Bu ilohni anglash, ilohiy olamdan zavqlanish va xayratlanish ramzi demakdir.

Rangsizlik – bu bo'shlik degani. Rangsizlik tushunchasi ranglar sirasiga kirmasa-da, Najmiddin Kubro asarlarida alohida o'rin tutadi. Rangsizlik bu haqiqat ramzi demakdir. rangsizlik xudo va uning haqiqatini anglashni bildiradi. Murid asta-sekinlik bilan ranglarga asoslangan ruhiy kechinmalarni bosib o'tib, ichki tuy-g'ularini tobora sayqallab boradi.

"Latoif" nazariyasi bo'yicha, murid qora rang tasarrufidan chiqib, maqsad - "haqiqat"ga etadi. Ya'ni, ilohiy olam bilan birlashib ketadi [1,175].

Najmiddin Kubro ranglarga asoslangan ruhiy bosqichlarni bir soʻz bilan «talavvun», rangsizlikka qaratilgan bosqichni esa «tamkin» deb atagan.

Solikning manaviy darajasini namoyon etuvchi ruhiy kechinmalari, koʻra-digan tushlari, ranglar muhokamasi kubraviylikda doimo eʼtibor markazida boʻlib keladi.

Najmiddin Kubro solikka tasir koʻrsatadigan oʻylar va timsollar – xavotir mavzusi hamda ruhiy sezgi azolari hisoblanuvchi latoifga katta ahamiyat bergan. Kubraviylikda ranglar ramziy tizimi ishlab chiqilib, har bir rang solikning irfon yoʻlida egallagan bosqichini bildirishi alohida eʼtiborga loyiq.

Bular:

1. Oq rang – islom ramzi;
2. Sariq – imon ramzi;
3. Toʻq koʻk rang – ilohiy marhamat (ehson) ramzi;
4. Yashil – xotirjamlik (itminan) ramzi;
5. Havo rang – haqiqiy ishon (iyqon) ramzi;
6. Qizil – irfon ramzi;
7. Qora – ilohiy ishq ramzidir.

Navoiy sheʼriyatida ham ranglar jilosi oʻziga xos oʻrin tutadi. Xamsaning tarkibiga kiruvchi uchinchi doston “sabai sayyor”da Navoiy nafaqat kunlar balki ranglar moʻjizakorligini ham kashf etadi. Unga koʻra, osmon yetti qavatdan iborat boʻlib, har bir osmon qavatiga maʼlum hafta kunlari toʻgʻri keladi. Osmonning yettinchi qavatiga dushanba, oltinchi qavatiga seshanba, beshinchi qavatiga chorshanba, toʻrtinchi qavatiga payshanba, uchinchi qavatiga juma, ikkinchi qavatiga shanba, birinchi qavatiga yakshanba kuni toʻgʻri keladi. Shu hafta kunlariga moslab ranglarni belgilaydi va ramziy jihatlarini koʻrsatadi [2,3].

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Najmiddin Kubroning ranglar va shakllar bilan bogʻliq ruhiy, psixologik tajribalari keyingi sufiylar tomonidan rivojlan-tirilgan. Buni misoli sifatida koʻplab tariqatlardagi oʻziga xos ranglarning ulugʻlanishi, ularga eʼtiborning yuqoriligini keltirish mumkin.

Navoiy ijodida ham ranglarning ahamiyati naqadar yuqoriligini uning asarlarida kuzatishimiz mumkin. Yetti rangning tasnifi shoir tomonidan mahorat bilan baholangan. Ranglarni bosqichma-bosqich mukammallashuvi ham uning dostonlarida oʻz aksini topgan.

Bugungi kunda inson psixologiyasiga tasir etuvchi omillar sirasiga kiruvchi ranglardan turli soha vakillar keng foydalanib keladilar.

Xususan, reklama sohasida mijozlarning e'tiborini tortish maqsadida yorqin ranglardan foydalanish bugungi kunda hech kimga sir emas.

Masalan, moviy rang ishonchli xabar, do'stona munosabatni ifodalagani bois o'zaro aloqalar jarayonida ushbu rangdan keng foydalaniladi.

To'q ko'k rang esa inson diqqatini pasaytirib ish samarasini sustlashuviga olib keladi. Shu bois ham ko'plab korxona va tadbirkorlik vakillari o'z xodimlarining ish samaradorligini oshirish maqsadida vaqti-vaqti bilan xona ranglarini o'zgartirib turishni maqsadga muvofiq deb biladilar. Aksar hollarda bu ish natija beradi.

Demak, rang har bir inson ongiga eng yuqori tasir etuvchi omillar qatoridan joy olar ekan, undan to'g'ri foydalanish kerak bo'ladi.

Buning uchun har bir rangning ramziy xususiyatini o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi.

Xitoy tilidagi asarlarda ham ranglarni ramziy ko'rinishlariga duch kelamiz.

青年(qīngnián) – yuqorida aytganimizdek “yoshlik” ramzini tilsim etadi.

青(qīng) ko'k+年(nián)yil=青年(qīngnián) yoshlik.

Xitoyda ko'k rivojlanish, salomatlik ramzini tilsim etadi.

Su Tongning “BiNu” hikoyasida ranglar bilan birga yoshlikni tilsim etuvchi ramzi qo'llanilgan.

Masalan:

青年(qīngnián)

如果不是从青年(qīngnián)箭囊中掉落的一支箭毒死了卫兵们的狗，没有人会相信那唇红齿白的青年(qīngnián)是一个刺客 [3,278].

Tarjimasi: Agarda *yosh yigit*ning komonidan otilgan o'q itni yaralamaganda, bu *yosh yigit* qotil ekanligini bilishmas edi.

Oq rang - xitoy tilida motom, o'lim ramzini tilsim etishini yuqorida aytib o'tgan edik.

Su Tongning “BiNu” hikoyasida ranglar bilan birga 白幡(báifān) oq bayroq ya'ni xitoy xalqida qadimdan o'limlik belgisidir. Biror bir

martabasi kata, ulug‘ inson vafot etsa, “oq bayroq” falakka ko‘tarilib, e‘lon qilingan. Masalan: 白幡 (báifān) 有人注意到他们手里举着的不是九龙旗.而是一面粗糙的，然白幡 (báifān)后一个惊天之声在空中炸响，跪下，都跪下，国王薨了，国王薨了[3,278]!

Tarjimasi: Ba‘zilar askarlarning qo‘lidagi davlat bayrog‘i emas, oq bayroq ekanligini payqashdi. So‘ng uzoqdan sado eshitildi:- “Hamma tiz cho‘ksin!- hamma tiz cho‘kdi, - “ Imperator olamdan o‘tdi! Imperator olamdan o‘tdi!”

Qadimda Xitoyda oq rang motomlik ramzi hisoblangani uchun, martabasi kata inson vafotidan so‘ng butun xalq oq kiyim kiygan va hamma maydonlarga “oq bayroq” larni ilib qo‘yishgan.

Hozirgi zamonda Xitoy xalqida ushbu udum saqlanib qolgan. Oila a‘zo-laridan, yoki yaqin ubu kim vafot etsa, oq libos kiyilib motam tutiladi.

Agar motamda qora kiyim kiyilsa, marhumning ruhi hech narsa ko‘rmaydi, deb ishonilgan. Shuning uchun ham motamda oq rang bu dunyodan keyingi hayot, ko‘rish ramzi hisoblanadi [4,107].

O‘zbekistonning Xorazm viloyatida ham motamda oq kiyim kiyish udumi mavjud. Su Tongning “BiNu” hikoyasida ranglar bilan ifodalangan ramzlar hozirgi kunda kundalik suxbatlashishda ibora tarzida qo‘llaniladi.

青年 (qīngnián) sinonimi sifatida bu hikoyada yana 半青半黄 (bànqīng bànhuáng) ni uchratamiz. Buning ham ma‘nosi voyaga yetmagan, pishmagan, yosh demakdir. Bu ibora inson o‘zini o‘quvsizga o‘xshab, yoshlarcha tutsa, ikkinchi inson tomonidan birinchi insonga tarif berish uchun qo‘llaniladi.

半青半黄 (bànqīng bànhuáng) so‘zma – so‘z tarjimasi:

Yarimi ko‘k, yarimi sariq ya‘ni hali oxirigacha yetilmagan, pishmagan ma‘nosi kelib chiqadi.

Sariq rang- Xitoyda ulug‘vorlik, boylik ramzi sanaladi.

Asarda esa: 半青半黄 (bànqīng bànhuáng)

五谷城暴乱给她添置了两件财产，一件玄色滚黑边的男人的绵袍，还有一只半青半黄(bànqīng bànhuáng)的葫芦，不知道是从哪儿捡来[3,279].

Tarjimasi: GuChen (joy nomi) unga ikkita narsani: bitta shoyi erkakcha qora chiziqli ko‘ylak va yana *pishmagan* qovoq berdi. Kim bilsin, qayerdan keldi ular?.

Ya’ni GuChen unga ko‘ylakdan boshqa hech narsa bermadi degan ma’noni ifodalaydi. U hech qanday tajribaga ega bo‘lmadi. U yoshlar-cha ish tutib, hech narsasiz, hatto yarim boylikka ham ega bo‘lmadi, quruq qo‘l bilan qaytdi degan ma’nolarni beradi.

半青半黄 (bànqīng bànhuáng)ning sinonimi 白面束身 (bái miàn shù shēn) yuqorida aytilganidek, bu ibora ham tajribasizlik, yoshlik, hali o‘quvga ega emas (hayotda pishmagan) degan ma’noni beradi. Hozirgi kunda bu iboralar ham sleng sifatida ishlatilmoqda.

Xitoyda qizil rang farovonlik, to‘kin-sochinlik va baxtli hayotni timsoli sifatida qabul qilinadi, shuningdek, qizil darvozalar oliy tabaqadagi zodagonlar, boylar yashaydigan uylarni ifodalagan[4,108].

Qizil rang yana uyalish, qizarish ramziy ma’nosini ifodalaydi.

Yana yuqorida ko‘rsatib o‘tgan iboralarimizdan yana bittasi 面红耳赤 (miàn-hóngqitong)ga ma’nosi jihatidan mos kelgan, rangning ramziy xususiyatini ifodalangan yana asarda 满脸绯红 (mǎnliǎn fēihóng) iborasi bor. Masalan: 满脸绯红(mǎnliǎn fēihóng)

最后几个有幸窥见美男子的宫女还在门口，满脸绯红 (mǎnliǎn fēihóng)地谈论着他的眼睛，他的嘴唇和肩膀[3,279].

Tarjimasi: Saroy kanizagini oxir-oqibat bir kishi yoqtirib qolib unga qaradi, kanizak yuzi *qizarib*, uyalganicha darvozani yoniga kelib, o‘sha kishining ko‘zlari va keng yelkalari haqida gapirdi.

Xulosa qilib aytganda, ranglar adabiyot taraqqiyoti davomida dastlab ifodalanayotgan detalning sifatlovchisi bo‘lib, badiiy tasvirni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob “Tavhid asrori”. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999.

[2] – <http://ziyouz.uz//mamadalieva.z>.

[3] – 苏童 碧奴–重庆出版集团图书发行有限公司. — 271 页.

[4] – Usmanova Sh. Tarjimonlik faoliyatining lingvomadaniy aspektlari.- Toshkent.: TDSHI, 2014.

Olmosxon NIYOZOVA,
ToshDShI, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik” mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d.,prof. Sh.Usmanova

O‘XSHATISHLARNI TASVIRIY USULDA TARJIMA QILISH

O‘xshatish deb “ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretrroq, bo‘rttiribroq ifodalash” [1, 239]ga aytiladi.

O‘xshatishlar tarjimasi tarjimondan alohida e’tibor, alohida mahorat talab qiladi. Tarjima jarayonida muayyan o‘xshatishning ekvivalenti ham, muqobil varianti ham topilmaganda tarjimon tasviriy usulga murojaat qiladi. Ushbu usul yordamida o‘xshatishning ma’nosi bevosita, ot + sifat, sifat + ot, ravish + fe’l va h.k. ko‘rinishidagi so‘z birikmalari vositasida tushuntirishga harakat qilinadi. Masalan:

G‘orning ichidan **boshi xumday, uzunligi xariday** bir narsa o‘rmlab, bular sari kela boshladi. O‘rtancha botir supadan tushib, qo‘riqning narigi tomoniga qarab qochdi. Odam borini bilib chiqqan ajdar, o‘rtancha botirga qarab yugurdi. Botir chap berdi va ajdar sultonning dumiga qilich bilan urib, uni yaraladi. Ajdar sulton aylanib qoldi. Yana poylab turib, ustalik bilan uning beliga qilich soldi, yarasi og‘irlashib, hansirab qoldi, shu choqda yana urib, ishini tugatdi. Terisidan bir tasma olib, ichidan beliga bog‘lab oldi. Hech narsa ko‘rmaganday bo‘lib, supaga borib o‘tirdi (Uch og‘a-ini botirlar. 한글문화인식연구소 2014. –B.191).

Qayd etilgan parchada tasvirni yanada kuchaytirish maqsadida ikkita o‘xshatish ketma-ket berilgan: **boshi xumday, uzunligi xariday bir narsa**. **Boshi xumday** o‘xshatishi, asosan, odamlarning, hayvonlarning boshini juda kattaligini ifodalash uchun ishlatiladi. **Xumbosh, xumkalla** qo‘shma so‘zlari ham aynan shu ma’noda qo‘llaniladi. **Uzunligi xariday** o‘xshatishi “juda uzun” ma’nosini anglatadi. O‘zbek xalqining o‘ziga xos moddiy madaniyatida xum – biror suyuqlik, don

qi qiyofasi, ko‘rinishi, ularning turli holatlari va xatti-harakatlari o‘xshatishlar vositasida xalqona aks ettiriladi. Masalan:

Bor ekan, yo‘q ekan, bir zamonda bir kishi bor ekan. Boy ham, kambag‘al ham emas ekan. Uning uchta o‘g‘li bor ekan. Uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, **yuzlari oyday, o‘zlari toyday**, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar (Uch og‘a-ini botirlar. ~~한글본문~~ 2014. –B.187).

Mazkur parchada ikkita o‘xshatish mavjud: **yuzlari oyday, o‘zlari toyday**. Tarjimada har ikkala o‘xshatish koreys lingvomadaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ~~한글본문~~ **ko‘rkam va o‘zlariga to‘g‘ri**, deb berilgan:

~~한글본문~~ 2014. –B.167).

O‘zbek kundalik turmushida non muhim ozuqa hisoblanadi. Xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, hamma narsadan afzal, aziz va muqaddas biladi. Ota-bobolardan qolib kelayotgan udum, an’anaga binoan, hatto nonni teskari tishlamaydilar, nonning ustiga boshqa narsalarni qo‘ymaydilar, nonni ustidan hatlab o‘tmaydilar, agar non qo‘ldan yerga tushib ketsa, darhol uni olib, uch marta o‘pib, peshanalariga suradilar, non ushoqni dasturxon ustida ko‘rsalar barmoqni ho‘llab, ushoq ustiga bosib, yeb qo‘yadilar. Nonga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo‘lish bolalarga yoshlikdan o‘rgatiladi, ularga nonning ushog‘ini yerdan yig‘ib olish, uni e‘zozlash va oyoq osti qilmaslik zarurligi uqtiriladi. Biron o‘zbek yo‘lga chiqsa, albatta, o‘zi bilan birga non oladi. Shunga ko‘ra, tarkibida *non* komponenti ishtirok etgan *non yemoq, noni butun, noni yarimta bo‘ldi, non ursin* singari frazeologizmlarning asosida *non* arxetipi hayot, tirikchilik, rizq-ro‘z, to‘kin-sochinlik ramzi sifatida keladi [2, 40].

Ko‘rinadiki, non o‘zbeklar uchun muhim ozuqa hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘zbek tilida non etaloni asosida hosil qilingan o‘xshatishlarning keng tarqalganini kuzatish mumkin: *nonday aziz, nondek arzanda, nondek tuyulmoq, nondek e‘zozlamoq, nonday ko‘zga surtmoq* va h.k. Non o‘xshatish subyekti bo‘lib kelgan kontekstlar ham talaygina uchraydi:

– Nimalarning hayolini surardim. Shu to‘rtta yetimning ertasini o‘ylayman-da, bolam. Zamonni o‘zing ko‘rib turibsan, tiriklik toshdan qattiq, **tuyaning ko‘ziday non anqoga shapig‘**. Hali bularning qo‘li-

Xulosa qilib aytganda, shu kungacha o‘zbek va koreys tillaridagi o‘xshatishlarning qiyosi va ularning tarjimasidagi o‘ziga xos jihatlar alohida tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Shu nuqtayi nazardan koreys va o‘zbek xalqlarining milliy tafakkuri, dunyoqarashi, mentalitetini o‘zida aks ettirgan, olamning lisoniy manzarasini yaratishda muhim rol o‘ynagan o‘xshatishlarni qiyosiy o‘rganish, ularning tarjimasidagi o‘ziga xos jihatlarini yoritib berish dunyoni o‘ziga xos milliy tarzda ko‘rishga, milliy tafakkurni, mentalitetlarni o‘rganishga imkon beradi. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlar koreys tiliga turli-tuman usullar vositasida, xususan, to‘la ekvivalent o‘xshatishlar, muqobil o‘xshatishlar, tasviriyl usul va kalka usulida tarjima qilinadi. Mazkur usullar ichida tasviriyl usul o‘zining sarmahsulligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

[2] – Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: ToshDShI, 2015.

[3] – XX аср ўзбек ҳикояси антологияси. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2009.

[4] – XX аср ўзбек ҳикоялардан. –Тошкент: “Адиб”, 2014.

*Xurshida AKBARALIYEVA,
O'zMU, "Lingvistika" mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

TURLI LINGVOMADANIYATLARDAGI O'XSHATISHLARNING QIYOSIY TAHLILI VA TILSHUNOSLIK

*Metaforada yolg'on va haqiqat o'zaro birlashadi...
Metafora nafaqat qisqargan o'xshatish,
shu bilan birga qisqargan qarama qarshilikdir
N.D.Arutyunova*

Har bir xalq o'zining tarixi va madaniyati bilan boshqa bir elatnikidan farq qilib turadi. "Lingvokulturologiyadagi o'xshatishlar (frazologizmlar, maqol, metafora orqali ifodalanishida) asosida har bir xalqning biror tushunchaga nisbatan ongida bo'ladigan assotsiativ munosabatni ko'rsatib berishni o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri sifatida baholanadi. Umuman, o'xshatishlar lingvokulturologiyaga oid adabiyotlarda metafora, metonimiya, maqol va iboralar kabi tilning lingvomadaniy boyligi sifatida e'tirof etiladi" [1, 48].

Tilshunoslik faniga turli madaniyatlardagi o'xshatishlar asosan antroposentrik paradigamaning tarkibiga kiruvchi fanlar orqaligina tavsiflanadi, chunki har bir tildagi o'xshatish asosan metaforalar orqaligina ochib berishga harakat qilingan holatlarni kuzatdik. Ushbu turli lingvomadaniyatlardagi o'xshatishlar tillardagi farqlanishlarni va umumiylik jihatlarini ko'rsatib beradi, har bir xalqning tilida aks ettiradi. Tilshunoslik sohasi ana shu tildagi o'zgarishlarni, xalqlarni tafakkuridagi farqlarni o'rganadi fikrimiz isbotini quyida biz misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Jorj Lakof, Mark Jonsonning "Biz bilan yonmayon yashayotgan metaforalar" (Metaphor by live) maqolasi. Mazkur maqolada MUNOZARA konsepti orqali MUNOZARA bu JANG metaforasi keltiriladi va bu metafora ko'plab iboralar orqali tavsiflanadi.

MUNOZARA - JANG.

Sizning qarashlaringizsiz kuchsiz.

U nutqiy dalilimga har safar hujum qilardi.

Uning tanqidlari har safar nishonga tegadi.

Men bu baxsni buzdim.

Biz hech qachon uni baxsda yengmaganmiz.

Norozimiz! Xo‘p tamom.

Agar bu usuldan foydalansang, u sani supurib tashlaydi.

U mening hamma isbotlarimni chipakka chiqardi.

Bizning ko‘z oldimizga jang deganda faqat urushlar, amaliy hayot bilan bog‘liq harakatlar tushuniladi. Lekin Lakof va Markning maqolasida u insonning nutqiy munozarasi va unga qarshi himoyani jang va jangda o‘zini himoyalashga harakat qilayotgan askarlarga o‘xshatadi. MUNOZARA va JANG konseptlarini ikki xil tushuncha sifatida ham ta’riflangan o‘rinlar ham mavjud. Ingliz tilidagi ushbu metafora Amerika xalqining turmush tarzidan kelib chiqqanligini bemalol ayta olamiz. Tilshunoslik uchun yana bir qo‘shimcha o‘rganilish uchun ilmiy tadqiqot: shakliiy metafora va yo‘naltiruvchi metaforalar haqida so‘z boradi. Lakof va Jonson “shakliiy metafora - bir tushuncha boshqasi bilan metaforik jihatdan shakllanadigan metafora” va “yo‘naltiruvchi metafora - bir tushuncha boshqasi bilan shakllanmaydi, balki bir qator tushunchalar tizimida bir-biri bilan uzviy aloqada tashkil topadi” [2, 256]. Yo‘naltiruvchi metafora sifatida baland - past, ichki - tashqi, old - orqa, sayoz - chuqur kabi tushunchalarni keltiriladi va baxt - balandda misoli orqali “O‘zimni yuqorida his qilyapman” ingliz iborasini keltirilgan. Shu o‘rinda o‘zbek xalqidagi “Og‘zi qulog‘iga yetmoq iborasini” keltiramizki, ushbu ibora garchi baxt bilan bog‘liqlik jihatidan aslida kam ma’no yuklasa ham, u quvonchni, shodlikni ifodalaydi. Lekin quvonch va shodlik baxtlikning ko‘rinishlaridan biri. Yana maqolada g‘am - past deb ko‘rsatiladi. G‘amgin (past) his qilyapman. Tushkunlikdaman. Bu misollar orqali “past” so‘zini tanlaganiga sabab sifatida inson gavdasini tushkunlikka tushganda egib, bukilib yurishiga ishora qiladi (bu haqiqatdan ham atrof muhitda kuzatilgan). “Baland” so‘ziga ta’rifini inson o‘zini baxtiyor his qilganda o‘zini qaddini ko‘tarib, xush kayfiyatda yurishiga qiyoslanadi. Behush va hushyor tushunchalarini keltiradi va hushyorni yuqorida, behushni pastda tasvirlaydi. Misol sifatida, uyg‘on (get up), uhlani keltiradi chunki inson uhlaganda u o‘zini pastda, yerda ko‘radi. Uhlaganda yotadi, uyg‘oqlikda tik turadi deya ta’riflaydi.

O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlarni bunday holda tasvirlangan o‘rinlar mavjud emas, undagi o‘xshatish tana qismlari orqali namoyon etilsa ham aynan baland - past, ichki - tashqi tushunchalaridan foydalanmaydi jangni u munozara sifatida tafakkur etsa ham o‘zining tilida u bilan bog‘liq metafora mavjud emas. Bu ko‘rinishdagi misollar ikki

millat tafakkuridagi turli o'ziga xosliklar sifatida bayon etishimiz mumkin, chunki madaniyat bilan bog'liq turli hildagi metaforalar millatning tushunchaga nisbatan tasavvurida farqli jihatlarni o'zida aks ettiradi.

“Tanadagi aql. Ma’no, taassurot, sababning moddiy asoslari” (Lakof). Bu maqolada o’xshatishlarning ingliz mentaliteti asosida yoritib berilgan. Ma’no, bir tushuncha ikkinchi bir tushuncha orqali ifodalaganda yuzaga chiqadi. Maqolada metaforaga ta’rif beriladi va unga qiyoslagan holda “Xudoning ko‘zi” iborasi keltiriladi. Mavhum ma’no-ning qismlari tavsiflanmoqda. Bunda asosiy e’tibor uning tasviriyligi, tushunarliyligi, aniqligi ko‘rsatib beriladi. Kishi tana harakati, jismlarining o‘zgarishi va ong bilan bog‘liq bo‘lgan holat qamrab olinadi. Bu maqolada asosan mavhum ma’noga katta e’tibor beriladi. Metaforada taassurot va ko‘chma ma’no kabilarga e’tibor qaratiladi. Butun maqolada konsept, metafora, ibora asosiga qurilgan ma’no haqida so‘z boradi. O‘zbek tilida ham inson tana azolarining ko‘chirilishi orqali metaforalar yasaladi va undagi ma’no aynan tashqi ko‘rinish va o‘taydigan vazifasiga qarab o‘xshatiladi. Masalan: derazaning ko‘zi, buloqning ko‘zi, daraxtning ko‘zi; devorning qulog‘i, qozonning qulog‘i; daftarning yuzi v.h.k. bundan ko‘rinib turibdiki yuqoridagi “Xudoning ko‘zi” metaforasi ma’no jihatdan yashirin va mavhum bo‘lishiga qaramasdan o‘zbek tilidagiga o‘xshab tana azosi mavhumlikka ko‘chirilgan va yangi ma’no yaratilgan deb ayta olamiz.

“Rus, ingliz va nemis frazeologiyasida dengiz konseptining etnik-madaniy komponenti” (Е.В.Ильина. “Этнокультурный компонент концепта море в русской, английской и немецкой фразеологии”) mavzusidagi maqolada dengiz bilan bog‘liq ko‘plab metaforalar beriladi va uni uch til asosida ko‘rib chiqiladi. “Dengizdan tomchi” metaforasi keltiriladi va rus tilidagi metafora sifatida ko‘rsatiladi. Uning ingliz tilidagi variant sifatida “Chelakdagi yoki ummondan tomchi” [3, 89-90] deb ko‘rsatiladi. Bunday o‘xshatish butun bir qismdan zarrani ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, xalqning metaforasi u yashagan muhit bilan chambarchas bog‘liq. Dengiz Osiyo mamlakatlaridan Rossiya, Yaponiya, Xitoy va Koreyanigina o‘rab tura-di, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan O‘zbekiston, Qirg‘iziston va boshqa qo‘shni davlatlardan anchagina olisda, shuning uchun ham dengiz bilan bog‘liq bu mamlakatlarda metaforalarning bo‘lmasligi tabiiy. Buning o‘rnida “Xamir uchidan patir” frazeologizmlari mavjud.

Dengiz o'sha mamlakatlarning tabiiy kodi, tabiiy obykti sifatida baholanadi. "Dengiz tizzagacha" (Tizzasiga chiqadi) metaforasi ham madaniy metafora sifatida ko'rsatiladi. Beparvolik salbiy ottenkalarini ifodalash maqsadida uning inglizcha varianti sifatida "Is a daredevil" (Hech narsadan qo'rqmas odam) qo'rqmas, jasur beg'am insonni tasvirlash uchun foydalanilgan. Mazkur rus va ingliz tilidagi iboralarning har ikkisi ham beparvo odamni ifodalashga hizmat qilsa ham rus madaniyati metaforasi dengiz konseptiga murojaat etgan. Shu o'rinda o'zbek frazeologizmlaridan "Dunyoni suv bossa o'rdakka nima g'am" misolini keltiramiz u ham aynan suv komponenti orqali yuqoridagi ma'noni ifodalab ko'rsatadi. O'xshash jihatlar har uchta xalqda ham insonning beparvo ekanligini aks ettirishda va alohida xususiyatlar sifatida ularning tillarida, tafakkurida bu holatni turlicha leksema, so'zlar bilan ifodalashda ko'riladi. Birida dengiz, birida qo'rqmas, beg'am odam, birida dunyoni suv bosishiga ishora (Nux a.s davridagi to'fon xalqimiz ongida shu metafora yaratilishiga sabab bo'lgan), lekin uchchalsida ham salbiy baho insonning harakteriga nisbatan umumlashib turadi.

Z.A.Gordeyeva. "Употребление зоонима "Кошка" для характеристики животного и человека: синтагматический и семантический анализ" maqolasida mushukka xos xususiyat inson harakteristikasi[4, 30-38]ga o'xshatiladi. Bunday xususiyat o'zbek mentalitetida mavjud bo'lmagan holat sifatida baholaymiz, lekin rus mentaliteti ifodalagan timdalamoq, hurpaymoq kabi xususiyatlar insonda mavjud ekanligi notanish emas. O'zbek mantalitetida ayolni mushukcham (ruslarda), sigirim (hindlarda), iloncham (italyanlarda) deb o'xshatish g'aliz va ayni bir misollar uni haqorat qiliganday tuyuladi. Lekin boshqa millat ayoliga nisbatan eng go'zal o'xshatish uni sigirga qiyoslaganda u o'zini baxtiyor his qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, xalqlardagi ayolga munosabat har bir tilda turlicha aks etadi.

Turkiy xalqlar tafakkurini ifodalashda o'xshatishlarning o'ziga xos o'rni haqida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida alohida ta'kidlangan. O'xshatishlarni lingvokulturologik jihatdan tadqiqi bir muncha yagi ilmiy izlanish bo'lsa ham u haqida misollarni aynan shu asrada ham uchratishimiz mumkin: "Biron xotin tuqqanda doydadan: tulki tug'dimi yoki bo'rimi deb so'raladi. Ya'ni qizmi yoki o'g'ilmi demakdir. Qizlar aldoqchi hamda yalinchoq bo'lganliklari uchun tulkiga, o'g'il bolalar ulardagi botirlik xislatining mavjudligi asosan bo'riga o'xshatiladi" [5, 83].

Ramz tushunchasi ham lingvokulturologiyada juda muhim ahamiyatga ega va u qator fanlar nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi. Lingvokulturologiyani ramzning belgilik jihati qiziqtiradi. Ramz hayvon, o‘simlik va boshqa narsalar nomi bilan bog‘liq. Ramz orqali xalqning o‘tmish madaniyat aks etadi. Hayvonlardan ot ramzi xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, Koshg‘ariy ta‘biri bilan aytganda ot “turkning qanotidir” [5, 404].

“Devonu lug‘otit turk”dagi ot bilan bog‘liq maqollarga e‘tibor qaratsak: “Qush qanatin, er atin”, “Uluq yag‘iri o‘g‘ulqa qalir”, “Arpasiz at ashumas, arqasiz alp cherik siyumas” – Arpasiz ot qir osholmaydi, yordamchisiz yigit (bahodir) jangda yenga olmaydi. Bu maqol birovning aybini so‘zlovchi g‘iybatchilarga nisbatan ishlatiladi. Xalqning boy merosi uning maqollarida, matallarida o‘z aksini ko‘proq topadi. O‘xshatishlarning turli qismlarga bo‘lib o‘rganilishi uning tadqiqot obyektni kengaytiradi.

“Devonu lug‘otit turk”da uchraydigan maqollarning yuz ellikdan ortig‘i ko‘chma ma‘noga ega. Ko‘p maqollarda hayvonlar obrazi mavjud bo‘lib, ularda insoniy xususiyatlar o‘z ifodasini topadi, ya‘ni insonlarga xos bo‘lgan xususiyatlar hayvonlarga ko‘chirilgan holda tasvirlanadi. Bu turdagi maqollar shu jihatdan hayvonlar haqidagi ertaklarga o‘xshab ketadi. Maqollarning bu turida har doim falsafiy fikr mavjud bo‘ladi. Bunday maqollar sirasiga “Devonu lug‘otit turk”dagi “Alimchi arslan, berimchi sichg‘an”, “Ikki bug‘ra igashur atra ko‘kagun janchilur”, “Qulan qudug‘qa tushsa qaurbaqa ajg‘ir bolur” maqolini olib ko‘raylik. Aslini olganda qulun-yovvoyi eshak quduqqa tushadigan bo‘lsa, qurbaqa undan havfsirab o‘zini chetga oladi. Qurbaqaning ayg‘irga aylanishi orqali vatandagi erkinlik, qulun-yovvoyi eshak orqali esa vatangadolik holatlari aks ettirilgan. Xalq orasida “To‘ygan yerdan tuqqan yer aziz” degan gaplarni ko‘p uchratib qolamiz. Haqiqatdan ham inson zoti o‘z vatanida, yaqinlari, do‘st-u birodarlari orasida alohida mavqega, qadr-qimmatga ega bo‘ladi. Begona joyda odam o‘zini erkin tuta olmaydi, bemalol harakat qilishdan o‘zini tiyadi. O‘zgalarning buyruq berishlari, begonalarga xos nazar bilan qarashlari musofirning ruhiyatini tushiradi, o‘ziga ishonchini susaytiradi. Bunday paytda odam na orqaga, na oldinga yurishni bilmay qoladi, chunki uning yelkasida begonalikning yuki bor. Mana shu yuk insonni erkin harakat qilishiga halaqit beradi. Shunday ekan har bir inson o‘z vatanini qadriga yetmog‘i, o‘z yurtining tuprog‘ini afzal ko‘rmog‘i lozim.

Durdona Xudoyberganova “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasida “O‘xshatish mazmunli matnlar” mavzusidagi bobda o‘xshatishlarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etadi. Bu tadqiqot obyekti sifatida asardan keltirilgan matnlar (O‘tkir Xoshimov “Daftar xoshiyasidagi bitiklar”, Nazar Eshonqul “Ochilmagan eshik”) tanlanadi. Masalan, Muhabbat bahor osmonidagi bulut[6]ga; Inson hayoti shatranj tahtasidagi piyodaning yurishiga: Haqgo‘y qorong‘uda chiroq ko‘tarib borayotgan odam[7]ga o‘xshatiladi. Demak, bundan kelib chiqadiki, insondagi eng pokiza tuyg‘ular, falsafiy tushunchalar, fazilatlar aynan o‘zbek xalqi madaniyatida o‘z aksini topa olgan va uning yozma nutqida ko‘proq aks etgan. “O‘zbek xalqining lisonida go‘zal fazilatlariga nisbatan borliqdagi eng sof, musaffo narsalarga o‘xshatilish holati tafakkurning obrazlilik bilan bog‘lasak bo‘ladi. O‘zbek mentalitetida qadimdan insoniy sifatlar yuksaklarga ko‘tarilgan” [8].

Xulosa qilib ayta olamizki, har bir mentalitetdagi o‘xshatishlar xalqning turmush-tarzi, yashash sharoitidan kelib chiqadi. Keltirgan misollar orqali kuzatish natijasiga ko‘ra, o‘xshatish mazmunini ifodalovchi turli tillardagi metaforalar, maqollar o‘z kompozitsion tuzulishiga ko‘ra xalqning saviyasini, tilidagi yaratuvchanlik qobiliyatini ko‘rsatib beradi. Buni bir tushunchani ifodalovchi leksemaning ko‘plab tillarda turlicha voqelanishi orqali kuzatdik.

Yana shuni ta’kidlashimiz lozimki, kuzatishlar natijasiga ko‘ra o‘xshatish mazmunini ifodalagan so‘zlar o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalarining ijodiy tafakkuri, fikrlash tarzi va milliy mentalitetining o‘ziga xosligini, tilning yaratuvchanlik imkoniyatini ko‘rsatuvchi lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, shu kabi so‘zlar semantikasi o‘xshatish munosabati nafaqat so‘z birikmalari yoki gaplar, balki iboralar orqali ham voqe bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa tilshunoslikda yuqoridagi ayni hodisalarni kengroq tushunish va yanada chuqur tahlil qilishni ilmiy jihatdan taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Воробьев В.В. Лингвокультурология: Теория и методы. – М., 1997.

[2] – Jorj Lakof, Mark Jonson. Metaphor by live. Chikago. University of Chicago Press. 2008.

[3] – Е.В.Ильина. Этнокультурный компонент концепта море в русской, английской и немецкой фразеологии. Лингвокультурология. №8. – М., 2014.

[4] –Гордеева З.А. Употребление зоонима “Кошка” для характеристики животного и человека: синтагматический и семантический анализ. Лингвокультурология. №7. – М., 2013.

[5] – Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 1-tom. – Toshkent. 1963.

[6] – Ўткир Ҳошимов, Дафтар хошиясидаги битиклар, –Тошкент, 2011.

[7] – Назар Эшонкул. Очилмаган эшик. Тошкент. 2013.

[8] – Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. 15-жилд. – Тошкент. 1968.

Mavluda XURSANDOVA,
ToshDShI, “Lingvistika” mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. O‘.Lafasov

VYETNAM TILIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV MA'NOLARI VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI

Emotsional-ekspressivlik tilning muhim vazifalardan biri hisoblanib, unda insonlarning borliqdagi voqea va hodisalarga nisbatan hissiyotlari aks etadi, bu his-tuyg‘ular esa nutq orqali ro‘yobga chiqadi. Dunyo tilshunos olimlari bu ikki tushunchaga turlicha qaraydi. Jumladan rus tilshunosi O.S.Axmanova bu masalani yoritar ekan [1], “emotsionallik” va “ekspressivlik”ni alohida hodisa sifatida izohlaydi. Emotsional his tuyg‘ularni, kayfiyatni, subyektiv munosabatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, mantiqiylik va intellektuallikni o‘zida qamrab oladi. Uning quydagi turlari bor: 1.emotsional bo‘yoq. 2.emotsional tus. 3.emotsional nutq. 4.emotsional so‘z. 5.emotsional leksika. Ekspressivlik esa nutqning sifatini yuqori darajada ifodalaydi, shuningdek uslubiy neytralikni aniqlaydi, obrazlilik va emotsional bo‘yoqdorlik olib keladi. Uni quydagicha tasnif qilish mumkin: 1.ekspressiv ifoda. 2.ekspressiv leksika. 3.ekspressiv bo‘yoqdorlik. 4.ekspressiv tus. 5.ekspressiv talaffuz. 6.ekspressiv nutq 7.ekspressiv suffiks. 8.nutqning ekspressiv vazifasi. Tilshunos olim A.Hojiyev esa “Har qanday emotsionallik ekspressivlikdadir. Shuning uchun fanda “emotsional-ekspressiv” termini qo‘llanadi. Bunga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, “ekspressiya” so‘zining birinchi ma‘nosi “ifodalilik” bo‘lsa, ikkinchi ma‘nosi “his-hayajonlarning nomoyon bo‘lish kuchi”dir. “Emotsional-ekspressiv” juft termini sostavidagi “ekspressiv” so‘zi ifodalilikdan

tashqari anglatilayotgan tushunchaga nisbatan soʻzlovchining emotsional munosabatini kuchli nomoyon boʻlishini ham bildiradi[2]. A.Hojiyev mazkur hodisani quydagicha turlarga ajratgan: 1.emotsional ekspressiv boʻyoq leksik usulda ifodalanishi. 2.emotsional ekspressiv boʻyoqning soʻzni metaforik qoʻllash natijasida ifodalanishi. 3.emotsional ekspressiv boʻyoqning affiksatsiya usuli bilan ifodalanishi. 4.emotsional ekspressiv boʻyoqning kontekstual ifodalanishi. A.Sodiqov esa “Frazeologizmlarning tarkibida nechta soʻz ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy maʼno bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv maʼnoni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va taʼsirchang vosita sifatida koʻp qoʻllanadi” deydi[3].

Taniqli vyetnamlik tilshunos olim Trin Duc Hien oʻzining “Vyetnam tili leksikologiya”si kitobida vyetnam tilidagi frazeologizmlarni odatiy, juft va solishtirma turlarga ajratgan. Shuningdek metafora, senekdoxa, metonomiya (giperbola) kabi maʼno koʻchish usullarini frazeologizmlarning tarkibiga kirishini aytib oʻtgan [4]. Ammo oʻzbek tilshunosligida maʼno koʻchish (metafora, senekdoxa, metonomiya, kinoya, vazifadoshlik) usullari leksikologiyadagi alohida masala sifatida oʻrganiladi. Jumladan vyetnam tilini oʻzbek tili bilan qiyoslaydigan boʻlsak. *Yaxshiligingni unutdi toʻngʻiz...* (A.Qodiriy). Bu gapdagi “toʻngʻiz” soʻzida metafora usuli orqali maʼno koʻchishi mavjud. Vyetnam tilidan misol keltiradigan boʻlsak, masalan: *Phuong pháp giáo dục mới là không bắt học sinh học vẹt [fing fap zao zuk miy la xom bat hop sin hop vet]* Oʻqituvchining metodi yangi emas, u oʻquvchilarga **toʻtidek** aytib beradi. (Vyetnam tili “B” qism 104-bet). Mazkur gapdagi “toʻti” soʻzi metafora usuli sifatida berilgan. Har ikki holatda ham oʻxshatish orqali kommunikativ maqsadga erishilgan. Ammo bu holat ikki tilda ikki xil yondoshilgan.

Tilshunos olimlarning ilmiy fikrlariga asoslangan holda ushbu maqolani soʻzni metaforik usulda qoʻllashga aloqador tahliliga doir vyetnam tilidagi somatik frazeologizmlarning emotsional-ekspressivlik jihatlarini asoslab berishni maqsad qilib qoʻydik.

Somatik frazeologizmlarning emotsional va ekspressiv maʼnolari koʻpgina tilshunos olimlar tomonidan oʻrganilgan. Jumladan L.A.Mironova oʻzining tadqiqot ishida his-tuygʻularni ifodalovchi jest, harakat, mimikalar va yuzdagi somatik zonalar qosh, ogʻiz, lab, peshona, burun kabilarning emotsional jihatlarini koʻrib chiqqan[5]. Bundan tashqari vyetnamlik tilshunos olim Fam Txi Txan Xaning ilmiy tadqi-

qot ishida ham shunday jihatlar yoritilgan [6]. Ammo olim o'z ilmiy ishida "zoomorfizm"larga to'xtalmagan. Shuningdek Fung Chong Toan o'z ilmiy tadqiqotida frazeologizmlarni bir necha tematik guruhlarga bo'lgan [7]. Shulardan biri hayvonlar va qushlarning nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar bo'lib, ular orqali insonlarning xarakteri tasvirlab berilishini asoslagan. Lekin mazkur ilmiy tadqiqot ishida emotsional-ekspressivlikka urg'u bermagan.

Til arsenalidagi so'zlar nutq subyektini nazarida uning fikrini o'z istagi darajasida emotsional-ekspressiv ifodalashga ojizlik qilib qoladi. Mana shu nuqsonni bartaraf etish maqsadida ongli ravishda hayvon, gazanda, qush va shu kabilarni, shuningdek ularning xatti-harakatlarini anglatuvchi so'zlarni metaforik ma'noda qo'llashga o'tiladi [8]. Bu esa o'z navbatida "zoomorfizmlar"ga borib taqaladi [9]. Jumladan "*tóc như tổ quạ*" [top niyi to kua] tarjimasi; "*sochi qarg'aning inidek*" va "*lòng mày sâu róm*" [lom may sau zom] tarjimasi; "*qoshida kapalak qurti*" frazeologizmlari bitta "tuk" bilan bog'liq leksema orqali ifodalangan, sochni qarg'aning iniga o'xshatish bilan hurpaygan va kir soch nazarda tutilgan va salbiy ekspressivlik hosil qilingan. Keyingi frazeologizmida esa shakl jihatdan biroz qo'pol, ammo ma'no jihatda qalin qoshga ishora qilish orqali ijobiy ekspressivlik saqlab turilibdi. Salbiy ekspressivlikni ifodalash uchun xizmat qiladigan 1. "*bụng cóc*" [bum cop] tarjimasi; "*qorni baqadek*" frazeologizmida bunday holat yanada aniqroq berilgan. Yani baqaning qorin qismi yerga tegib turishini, qorni osilib turgan odamga ko'chirish orqali ekspressiv bo'yoq hosil bo'lgan. Baqaning o'rniga boshqa suv hayvoni olinganida, "qorinini osilib turishi" yoki kulganda osilgan qornini silkinish holatiga tushmasligi mumkin edi. Bundan tashqari "masxaralash"ga ham ishora qilingan. 2. "*lòng lang dạ thú*" [lom lan za thu] tarjimasi; "*qalbi shoqol qalbidek ayyor*" insoning ayyorlik xususiyatini "shoqol"dek vahshiy hayvonga o'xshatish orqali salbiy ekspressivlikni ko'rish mumkin. 3. "*mặt đỏ như gấc*" [do niyi gak] tarjimasi; "*yuzi qisqichbaqadek qizil*" frazeologizmida betaraf holat mavjud. Yani o'zbek tilida "yuzi olmadek qizarmoq" shaklidagi o'xshatish, ko'chma ma'no orqali hosil qilingan. Biroq olmaning oq, yashil, sariq rangli turlari bor. Ammo qisqichbaqa faqat bitta qizil rangda bo'ladi. Shunday ekan uyalgan odamga nisbatan "qisqichbaqa" yuqori darajadagi ekspressivlikni anglatib kelmoqda. Keyingi frazeologizmida biroz chalkash holatni ko'rish mumkin. Yani 4. "*Mặt như mắt luộc*" [mat niyi mat luok] tarjimasi; "*ko'zi qaynatilgan cho'ch-*

qaning ko'zidek" deganda "baqrayib" qarab turgan odamga nisbatan qo'llanilishi yanada ekspressiv ma'noni kuchaytirilib ifodalanishiga olib kelgan. *Nổi gai óc* [noy g'ay op] tarjimasi; "*terisi shilliqurtdek*" ushbu ibora eti junjilib ketgan odamga nisbatan qo'llanilib ma'no jihatdan yuqori emotsional munosabatni bildirmasada ekspressiv jihatdan yuqori ma'no aks etib turibdi.

Bundan tashqari emotsionalikni yanada "quyuqlashtirib" ifodalash maqsadida o'simlik, daraxt, metal va shu kabilardan ham keng foydalalanib betaraf, salbiy va ijobiy bo'yoq hosil qilish mumkin. Jumladan "*bụng bầu*" [bum bau] tarjimasi; "*oshqovoqdek qorin*" frazeologik birligida "semiz" likka nisbatan masxaralashga va kulishga ko'proq ishora qilingan. Agar oddiy "semiz qorin" yoki "katta qorin" deyilganda, "qorin" leksemasiga bo'lgan so'zlovchining emotsional ekspressivligi yo'qolib, unga shunchaki odatiy munosabatini bildirgan bo'lardi. "*Ngón tay búp măng*" [nom tay bup man] tarjimasi; "*yosh bambuk novdasidek barmoqlar*" iborasida esa aksincha to'liq ijobiy ma'no aks etgan, "bambuk"ni yonida "yosh" so'zi qo'llanilmaganda, "barmoq"-larga nisbatan e'tiborsiz munosabat paydo bo'lgan bo'lardi. Ba'zan bitta frazeologik birlik birdan ikkita salbiy ma'noni ifodalaydi, yani "*mặt vàng như nghệ*" [mat van niyi nge] tarjimasi; "*yuzi shafrondek sariq*" frazeologik birligida ekspressivlikni "sariq gul" emas boshqa tushuncha orqali ifodalaganida edi, tinglovchiga kasal va qo'rqan odamning holati to'liq aks etmagan bo'lardi. Keyingi frazeologik birlikda aksini uchratish mumkin. "*Mặt hoa da phấn*" [mat xoa za fen] tarjimasi; "*yuzi gul, terisi upa*" yani chiroyli va nozik ayollar gulga qiyoslanib ijobiy ekspressivlik hosil qilingan. Har ikkala frazeologizm ham gul orqali ifodalangan, lekin birinchi iborada rangga alohida urg'u berilib o'tilgani bilan ajralib turadi. Shuningdek insonlardagi ba'zi xususiyatlarni turli xil buyumlar orqali ham ifodalash mumkin. Masalan: o'zbek tilida sog'lom va chiniqqan odamlarni "otdek sog'lom" deydi, ammo vietnam tilida bu butunlay boshqacha beriladi. Yani "*xương đồng da sắt*" [sing dom za sat] tarjimasi; "*suyagi bronza, terisi temir*" yoki qo'rqmas, jasur odamlarga nisbatan "*gan vàng dạ sắt*" [g'an van za sat] tarjimasi; "*jigari oltin, terisi temir*" ko'rinishida qo'llaydi. Bundan tashqari insonlarning xarakterni ko'rsatish uchun "*mặt như mặt thọt*" [mat niyi mat thit] tarjimasi; "*yuzi taxtadek*" yani qaysar odamlarni nazarda tutsa "*mặt rắn như sành*" [mat zan niyi san] tarjimasi; "*yuzi chinnidek*" frazeologizmini esa beparvo insonlarga nisbatan qo'llaydi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan frazeologizmlarda metal vositasi orqali ijobiy ekspressivlik hosil qilingan, bo‘lsa taxta va chinni buyumlari orqali salbiy ekspressivlik hosil qilingan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, vyetnam tilidagi somatik frazeologizmlarning emotsional-ekspressivlik ma’nolarida salbiy ma’no bo‘yoqdorligi, ijobiy ma’no bo‘yoqdorligiga nisbatan ko‘pni tashkil qiladi va aksariyat iboralarda ma’noni haddan ortiq bo‘rtirib va kuchaytirib ifodalanishini shuningdek obrazlilikni yuqori darajada ekanligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] –Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов, Москва, 1966.
- [2] – Ҳожиёв А., Ўзбек тили лексикологияси Тошкент, 1981, 162 б.
- [3] – Содиқов А., Тилшуносликка кириш Тошкент, 1981. 109 бет.
- [4] – Тринх Ёўс Хиен Тў винг хоп Х, 2004. 111 бет.
- [5] – Миронова Л.А., Соматические фразеологизмы украинского и испанского языков в эмоциональной сфере человека. Одесский национальный университет имени И.И.Мечникова, Украина.
- [6] – Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов английского и вьетнамского языков дис.канд. филол. наук. К, 2005.
- [7] – Национально-культурная специфика русских фразеологизм в сопоставлении с вьетнамскими в целях обучения русскому как иностранному канд.филол.наук.М, 1995.
- [8] – Ҳожиёв А., Ўзбек тили лексикологияси Т., 1981.
- [9] – Нгуйён Лân Тў ёиён тҳàнх нгў , тўс нгў Виёт Нам Т., 2010.
- [10] – Глебова И.И., Соколов А.А., Вьетнамско-русский словарь, М., 1992.

Naima RASHIDOVA,
ToshDSHI, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik” mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: y.f.d., dots. B.Begmatova

OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI ARABCHA TARJIMASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Xalqlar o‘rtasida o‘zaro madaniy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi tarjima – milliy adabiyotlarning o‘zaro aloqasi va bir-biriga

ta'siri jarayonini tezlashtiruvchi vosita hisoblanadi. U milliy adabiyotlarda mushtarak mavzular, rang-barang adabiy-estetik shakllarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Tarjima – milliy tillarning rivojlanish sur'atini tezlashtirish bilan birga tillarning lug'at boyligini yanada oshiradi, yangi-yangi grammatik vositalarning yuzaga kelishida muhim omil hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, tarjima jarayonida ijodkor asarni qayta yaratayotish ishtiyoqida bo'ladi. Muallifning butun ijodiy faoliyati, kerak bo'lsa, hayot yo'li, nuqtai nazari, vatan adabiyotida tutgan o'rni, adabiyotdagi mavqei, asar yozilgan davr, voqelik aks ettirilgan tarixiy sharoit, milliy o'ziga xosliklarni o'rganib, undan keyin asarni qayta yaratishga kirishadi. G'.Salomov ta'kidlaganidek, "Tarjimon asarni boshqa tilda, ya'ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so'z tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to'laroq ifodalash tashvishida yonadi"[3,57]. Buni yaxshi uqqan tarjimon muvaffaqiyatga erishadi. Asliyat va tarjima tilida so'zlashuvchi ikki xalqning milliy o'ziga xosliklarini chuqur bilish, ikki xalq adabiyotidan yaxshi xabardor bo'lish tarjimonga qo'yiladigan eng zarur talabdir. Bu talablar bajarilgandagina to'laqonli tarjima asari yaratilishi mumkin.

Quyida "Navoiy" romanidan olingan, shoir yashagan Hirot shari-ning tabiati, atrof-muhit go'zalligi Gavharshod madrasasi fonida mahorat bilan aks ettirilgan bir parchani tahlil qilamiz: *"Bahor quyoshi ko'kning tiniq feruzasida Hirotning Gavharshod madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat peshtoqlarining naqshlari sho'lalarda jonli, bir chamanzor kabi turli-tuman olov ranglar chaqnatar, kabutar dam uchib, dam sirpanib qo'nib, gumbaz tevaragida quvonch bilan inoq o'ynashar edi. Bir tomoni xonaqoh, uch tomoni katakcha-hujralar bilan o'ralgan madrasaning keng, tekis, chorburchak sahnidan kecha shovdirab o'tgan yomg'ir ko'zga ilinar-ilinmas bug' bo'lib havoga ko'tarilmoqda edi"* [1,5]. Adib atrof muhitning go'zalligini xuddi musavvirdek qalamga oladi. Undagi har bir detal muayyan maqsadga qaratilgan. Kitobxon uni o'qir ekan, vaziyatni aniq-tiniq ko'z oldiga keltira oladi. Buni boshqa tilga o'giruvchi tarjimon ham muallif uslubini to'laqonli qayta yaratish, parchani asliyat ohangini saqlangan holda o'girishga harakat qiladi. Turli sifatlash, o'xshatish va boshqa turli badiiy san'atlarni qo'llashga urinadi: کانت شمس

الربيع تتألق جذلي فوق القبة العظيمة لمدرسة "جوهرشاد". و كانت النقوش علي مدخلها الضخم تشع كزهرة ربيع حية بمختلف تلاوين النار. و كانت طيور الحمام تحوم مرحلة فوق صخرة المباني العريقة تارة و هابطة أخرى في انقضااض منزلق. و كانت الأرض بعد المطر الذي هبط يوم أمس تزفر بخارا رقيقا لا تكاد العين تبصره.)

Muallif atrof muhitni tasvirlashda sifat birikmalar va sifatdosh oborotlardan keng foydalanadi: *"ko'kning tiniq feruzasi"*, *"haybatli gumbaz"*, *"azamat peshtoqlar"*, *"jonli, olov rang"*, *"keng, tekis, chorburchak sahn"* va b. Bunda yozuvchining badiiy tasvir mahorati to'la aks etgan, go'zal tabiat personajlar kayfiyatiga mos holda san'atkorona tasvirlangan. Parchada jonlantirish (*yomg'ir ko'zga ilinar-ilinmas bug'bo'lib havoga ko'tarilmoqda*), jonivorlarning harakatlarini insonga xos xususiyatlar vositasida berish (*kabutar dam uchib, dam sirpanib qo'nib, gumbaz tevaragida quvonch bilan inoq o'ynashar*), o'xshatish (*Gavharshod madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat peshtoqlarining naqshlari sho'lalarda jonli, bir chamanzor kabi turli-tuman olov ranglar chaqnatar*) usullaridan foydalanilgan. Ta'sirni kuchaytiruvchi ohang-ritm o'z ifodasini topgan parchani o'g'irishda tarjimon ijod jarayonida erkin harakat qilganligi ko'rinib turibdi. Asliyat mazmuniga putur yetmagan, lekin arabchada ko'pchilik so'z, iboralarning aniq muqobillari borligi hisobga olinsa, tarjimonning ayrim kamchiliklari ko'zga tashlanishi tabiiy. Shu bois tarjimadagi ayrim bahsli jihatlarga e'ibor qaratamiz.

Asliyat matnidagi *"ko'kning tiniq feruzasida"* birikmasini arab tiliga " في السماء الزرقاء " tarzida o'g'irish mumkin edi, lekin tarjimon badiiy bo'yoqli mazkur birikmani (shuningdek, *"Hirotning"* so'zini) tarjima matnida tushirib qoldirgan. Parchadagi madrasa hovlisi tasviriga e'tibor beriladigan bo'lsa, *"Bir tomoni xonaqoh, uch tomoni katakcha-huchralar bilan o'ralgan madrasaning keng, tekis, chorburchak sahni"* murakkab birikmasi arabcha tarjima matnida tushib qolgan ko'rinadi. Vaholanki, bu birikmani من المرسح المربع الممهد الواسع للمدرسة عبارة shaklida tarjima qilish mumkin edi. Bundan tashqari, tabiat tasvirini berishda ayrim so'zlar ortiqcha, ayrim hollarda esa noto'g'ri qo'llanilgan. Masalan, " طيور " birikmasi o'rniga " الحمامات " ni qo'yish kifoya bo'lar, tarjimada "فوق صخرة المباني العريقة" shaklida berilgan *"gumbaz tevaragida"* birikmasini ham "حول القبة" deyish mumkin edi. Arabcha tarjimada berilgan birikma o'zbek tilida *"qadimiy binolarning toshlog'i ustida"* deya tushunilishi mumkin. Holbuki, asliyat jumlasida bunday birikma

mavjud emas. Shuningdek, asliyatdagi “sirpanib” ravishdoshini ham tarjimada " في انقضاء منزلق " deb bergan ma’qul edi. Lekin u " (so’zma-so’z: *sirpanishning o’pirilishida*) shaklida o’girilgan.

Asliyatdagi birgina " أمس " so’zi orqali berish mumkin bo’lgan “kecha” so’zi tarjimada ikki so’z " يوم أمس " (“kechagi kun”) bilan berilgan. Holbuki, “kecha” bilan “kechagi kun” uslub jihatidan sal farq qilishini hisobga olish kerak.

O’zbekcha jumla ichida kechgan “ko’zga ilinar-ilinmas” iborasi tarjimada maromida berilgan: " تكاد العين تبصره " ((so’zma-so’z: ko’z uni ko’rish arafasida) Bunda ham ibora " قد تكاد العين تبصره " deb berilganda ayni muddao bo’lar edi (“ehtimol ko’zga ko’rinar” ma’nosiga ega bo’lgan “ko’zga ilinar-ilinmas” iborasini to’la qoplay oladi). Parcha tarjimasida asliyat mazmuni, asosan bera olingan, tarjimon ishga ijodiy yondashishga harakat qilgan bo’lsa-da, tahlil etilgan birikmalarni o’gishda sal ehtiyotsizlikka yo’l qo’yilganligi seziladi.

Yuqoridagi fikrni amaliy asoslash uchun “Navoiy” romanidan olingan misollarga murojaat qilamiz: *Ular yapaloq g’isht yotqizilgan yo’lkalarga bo’yralar solib dars tayyorlashadi* [1,5]. Bu jumla arab tiliga quyidagicha o’girilgan: و بسطوا حصرانهم علي الممرات المرصوفة (بالأجرتهيأوا لدروسهم العامة). Ushbu jumladagi “bo’yra” so’zi tarjimada xuddi shu ma’noni beruvchi arabcha “حصائرهم” (hasairohum, ya’ni “o’zlarining bo’yralari”) birikmasi vositasida berilgan. Agar sinchiklab qaralsa, so’z imloviy xato bilan berilganligi bois “bo’yra” ma’nosini anglatmayapti (حصرانهم). “Bo’yra” so’zi qo’llangan yana bir jumla bilan fikrimizni davom ettiramiz: *Nariroqda uch mullavachcha bir bo’yra ustida o’tirib, mushkul bir masalani bahslashadi* [1,5]. Tarjimasi: (و علي مسافة أبعد تربع ثلاثة شبان علي حصيرة و شكلوا مثلثا فيما بينهم). Bu jumla tarjimasida ham “bo’yra” so’zi xato berilgan. Bundan tashqari, jumladagi “nariroqda” so’zi arabchaga ” علي مسافة أبعد ” shaklida o’girilgan va grammatik xatoga yo’l qo’yilgan. Gap shundaki, ayol jinsdagi so’zning aniqlovchisi erkak jins bo’lib qolgan. Uning grammatik jihatdan to’g’ri varianti علي مسافة بعدى yoki علي أبعد مسافة dir. Bu birikma o’zbekchaga qayta o’giriladigan bo’lsa, *eng uzoq masofada* degan ma’noni beradi. Baholanki, uni علي جانب الدار tarzida tarjima qilish mumkin edi (*madrassa hovlisining yon tomonida*). Ayni jumladagi “uch mullavachcha” birikmasi o’zbek tilida ma’lum diniy ma’lumot, diniy bilimga ega bo’lgan kishilarning farzandlariga nisbatan ishlatiladi. Birikma “ثلاثة شبان” tarzida tarjima qilingan (so’zma-so’z: “uch (o’spi-

rin) bola”). Bu yerda “mullavachcha” soʻzi inobatga olinmagan. “Uch mullavachcha” birikmasini “ثلاثة طلاب العلم” deya tarjima qilish kontekstga koʻra toʻgʻri boʻlar edi.

Yuqoridagi **boʻyra** soʻziga eʼtibor qaratiladigan boʻlsa, bu bir xos soʻz (realiya)dir. Tarjimashunos olim Q.Musayev taʼbiri bilan aytganda, “Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos soʻzlar deyiladi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi”[4,89]. Bunday soʻzlar tarjimondan alohida yondashuvni talab etadi. Ularni asardagi minglarcha soʻz orasidan alohida ajratib olish va oddiy yoʻl bilan boshqa tilga oʻgirish mumkin emas. T.Muxtorov taʼkidlagani kabi, “...bunday soʻzlarning baʼzilar tarjima matniga oʻzgarmasdan oʻtadi (transkripsiya), boshqalari esa tarjimada morfologik yoki fonetik shaklini qisman boʻlsa-da saqlab qoladi, hatto baʼzilarini umuman boshqa, tashqaridan qaraganda, maʼno jihatdan teng boʻlmagan, hatto “toʻqilgan” leksik birliklar bilan almashtirishga toʻgʻri keladi” [5,24].

Oʻzbek xalqining milliy oʻziga xosliklari toʻla aks etgan “Navoiy” romani qahramonlarining ismlari, unvon va taxalluslar, joʻgʻrofiy atamalar, joy nomlari, etnografik va maishiy realiyalar, libos, taqinchoqlarning nomlari, uy-joy, jihoz, taom va ichimlik nomlari va boshqa tushunchalar Oybek asarining milliy oʻzgachaligini koʻrsatadi. Chunki realiyalar har doim tabiiy soʻz yaratuvchiligi yoʻli bilan yuzaga kelgan, asosan, xalq maishiy turmushi bilan chambarchas bogʻliq xalqona soʻzlardirki, ularni oʻgirish tarjimondan yuksak bilim va tajriba talab qilinadi. Yana misollarga murojaat qilamiz: *Tolibi ilmlarning aksari **bukun** hovliga chiqishgan* [1,5]. Bu yerda adibning oʻziga xos soʻz qoʻllash uslubi yaqqol namoyon boʻlgan. U “bukun” soʻzini ishlatib, asarga oʻziga xos uslub rangbarangligi baxsh etgan. Jumlaning arab tiliga qilingan tarjimasi quyidagicha: (وكان الطلاب قد تركوا حجراتهم). (tarjima jumlasining mazmuni “*Talabalar xonalarini tashlab chiqib boʻlgan*”dir. Vaholanki, uni “كان خرج أكثر الطلاب إلى دار المدرسة” tarzida oʻgirish maqsadga muvofiq boʻlar edi).

Baʼzan asl mavzu-bahs gʻoyib boʻlar, ular bahs asnosida kelib chiqqan yangi nuqtalarga berilib, soʻz changalzorining tikanli mushkilot bilan toʻla sohalarida urina-urina, yana asli masalaga qaytishadi [1,6]. Jumlaning arabcha tarjimasi: (والمجادلون ينحرفون عن الموضوع الرئيسي) من حين لآخر و يتيهون في دغل الكلمات المحفوف بالمسائل الشائكة العويصة و لا يعودون

(إلى بداية المسألة الا بعد أن يشقوا طريقهم خلال هذا الدغل بصعوبة). Bu jumladagi “So‘z changalzorining tikanli mushkulot bilan to‘la sohalarida” metaforik o‘xshatishga asoslangan birikma (“sohalarida” so‘zi tushirilgan bo‘lsa-da) mahorat bilan tarjima qilingan. Shunga qaramay, jumla في ... deya tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Yoki, “Bahslashuvchilar ba‘zan munozara alangasida o‘zlarini unutib, bir-birlariga dag‘al iboralar aytishar, ba‘zan burgutday hurpayib, bir-birlariga chang solmoqqa tayyorlanganday qiziq bir vaziyatda bir zumgina qotishardi [1,6]. Jumlaning arabcha tarjimasi: (و أحيانا ينسون انفسهم في غبار المعركة الكلامية و يمطر بعضهم بعضا بغليظ العبارة. و احيانا أخرى يتوفزون و للحظة واحدة يجمدون في أوضاع مضحكة و كان الواحد منهم يتهياً لينشب في “munozara alangasi” birikmasi tarjimada “غبار المعركة الكلامية” shaklida o‘g‘irilgan (chang, tuproq) “عز” (avj, qizigan payt ma’nosida). Shuningdek, “burgutdek xurpayib” birikmasi tarjimasida “burgutdek” so‘zi tushib qolgan. Buning أظفاره لينشب أظفاره “بمحدثه كالعقاب deb o‘g‘irilgani ma’qul edi.

Oybek uslubi yaqqol namoyon bo‘lgan quyidagi jumlada Navoiy davrining tilini his qilish mumkin: “Uning sultonlarga, hatto beklarga navkar bo‘lib o‘tgan ota-bobosini oftob olamtob yaratilgandan beri davlati, iqboli zavol ko‘rmagan oliy nasabli **“saltanat spehrining xurshidi”** va hokazo puchak, lekin ko‘z qamashtirgich yaltiroq so‘zlar bilan madh etmoqqa mohir”. Gapning arabcha tarjimasi: (و كان يطري) و أباءه و أجداده الذين ماتوا عساكر بسطاء خالعا عليهم الألقاب من مثل “العالى المقام” و “الكوكب المنير في سماء الحكم” مؤكدا أن “سعودهم لا تعرف له نهاية منذ أن أشرقت الشمس”. Jumladagi **“saltanat spehrining xurshidi”** metaforik birikmasining ma’nosi “podshohlik osmonining quyoshi”dir. Tarjimon bu birikmani “الكوكب المنير في سماء الحكم (podshohlik osmonining yorug‘ yulduzi) tarzida tarjima qilib mahoratini ko‘rsata olgan.

Adib o‘z asarida metaforik iboralardan keng foydalangan: “U kimdan ranjisa, o‘sha soatda bir **hajv ila o‘z “dushman”ini so‘z balchig‘iga shunday bulg‘aydiki, o‘qirkan eng chirkin hid burqib turadi** [1,6]. Gapning arabcha tarjimasi: (و اذا تكررت نفسه هرع إلى قلمه ليصب جام) و اذ غلبه علي عدوه و يمرغه بشعره القارص في الرغام Jumla tarjimasida “kimdan” so‘zi tushirilgan (birikma “u o‘zi ranjisa” tarzida o‘g‘irilgan), “hajv ila” birikmasi esa “بشعره القارص” deya berilgan (“azob beruvchi she’ri bilan” ma’nosida). Gapning muhim metaforik ma’no kasb etuvchi “So‘z balchig‘iga bulg‘aydiki” birikmasi tarjimada o‘z aksini topmay

qolgan. Uni arab tarjimoni “qalamiga shoshadi” (هرع إلي قلمه) tarzida bergan. “Eng chirkin hid burqib turadi” sodda gapi tarjimada “uni yer bilan bitta qiladi” ma’nosida (يمرغه في الغام) berilgan.

Romanda portret tasviri keltirilgan “*Ulardan biri – sersoqol, rang-par va oriq – o‘z mantiqining kuchini ko‘rsatishga va “haqiqat mezo-ni”ni o‘zicha ta’rif etishga astoydil tirishar, sheriklarining dalillarini rad etardi* [1,6] jumlasining arabcha tarjimasi quyidagicha: (أحدهم و هو أكبرهم سنا نحيف شاحب يسعى جاهدا و بدقة متناهية لإظهار كل ما في المنطق من قوة رجل سيكون عالما في “Mana bunda biri” birikmasi “(لتحليل “كافة الميزان” المستقبل (so‘zma-so‘z) “kelajakda olim bo‘ladigan kishi” tarzida tarjima qilingan. Vaholanki, uni “هذا رجل منهم” deya berish kifoya edi. Asl nusxada bo‘lmagan “yosh jihatdan katta” ma’nosidagi birikma tarjima jumlasiga kiritilgan (أكبرهم سنا).

“*Undan yoshroq, lekin o‘jarlikda undan also qolishmaydigan sheriklari qichqirin, yangi-yangi dalillar, mulohazalarning tilsimli qo‘rg‘onini bir zumda so‘z bilan yasab qo‘yardilar* [1,6]. Gap arab tilida juda ishonchli berilgan: (ولكن رفيقيه لا يقلان عنه عنادا البتة فهما يشيدان في) (دقيقة واحدة قلعة سحرية من الاعتراضات الجديدة متصايحين صياحا صاخبا). Gapdagi “undan yoshroq” birikmasi tarjimada tushib qolgan, holbuki buni “أصغر ان منهما (u ikkovidan ko‘ra yoshroq) shaklida berish mumkin edi.

Xulosa. Bir tildan biror bir asarni tarjima qilish salkam yangi asar yaratishga teng. Chunki ikkala mehnat ham ijod bilan jambarchas bog‘liq. “Navoiy” romani tarjimasida mutarjim erishgan yutuqlarni sanab adog‘iga yetish qiyin. Shu bilan bir qatorda, tarjima jarayonida yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklarga nisbatan ham obyektiv munosabat bildirish lozim. Ana shu nuqtai nazarlardan kelib chiqib bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarimizni davom ettirishimiz kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Oybek, Navoiy, roman, / “Asr oshgan asarlar” turkumi // Tahrir hay’ati: Bobir Alimov va b./–T.: “Sharq”, 2004, 496 b.

[2] – آبييك، نوائي رواية، دار التقدم، فرع طشقند 1979

[3] – Саломов F. Таржима санъати, –Т., 1973.

[4] – Мусаев Қ., Таржима назарияси асослари, дарслик, Т.: О‘збекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2005.

[5] – Мухтаров Т.А., Непереводимое в переводе (мақола), “Таржима масалалари” (илмий мақолалар тўплами) . –Т.: 2012.

Бегзод ИСМАТУЛЛАЕВ,
магистрант 2-курса ТашГИВ, специальности «Лингвистика»
Научный руководитель: к.ф.н. Ш.Ибрахимова

ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА В ТУРЦИИ. ПЕРЕЛОМ В «ЯЗЫКОВОЙ ПОЛИТИКЕ» В 30-ГОДЫ XX ВЕКА

В первые годы независимости в Турецкой Республике начали проводиться реформы, направленные на всестороннее развитие страны. Одной из главных реформ Мустафы Кемаля Ататюрка и его правительства была реформа в области турецкого языка и истории – образование Турецкого лингвистического общества (Türk Dil Kurumu) и Турецкого исторического общества (Türk Tarih Kurumu), которые стали научными центром изучения и совершенствования турецкого языка и истории, до сегодняшнего дня ведут активную работу в этих областях. Политической опорой для мощного поколения ученых языковедов, нацеленных на освоение внутренних возможностей турецкого языка было правительство М.К.Ататюрка. В те годы некоторые языковеды, историки, бежавшие от притеснений советской власти нашли себе приют в Турции. Даже турки стали приглашать к себе специалистов, освоивших на высоком уровне российскую науку, знающих много языков.

В данной статье, посвященной изучению вопроса о переломе в «языковой политике» в Турции в 30-годы XX века использована статья киргизского исследователя Жакшилика Бердибек уулу [1], материалы из книги Ю.Н. Розалиева [2], а также статьи, опубликованные в сборниках «Таржима масалалари» (Илмий мақолалар тўплами, 3-қисм) [3] и «Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги кун ва келажаги», 3 (илмий мақолалар то‘плами) [4] и др.

Как известно, язык не может оставаться вне политики, выступая зачастую одним из объектов ее воздействия. Если говорить здесь о статусе турецкого языка, то следует отметить, что язык во многих отношениях выступает как инструмент политики – от политической идеологии и риторики до консолидации и формирования на его основе народа как субъекта политического процесса. Поэтому как таковой инструмент турецкий язык не сразу получил официальный статус государственного языка в Турции. В

Османской империи у турок было три языка: арабский – язык религии, «османский» – язык официальный, литературный и, наконец, турецкий – язык народный, разговорный. Такое многоязычие объясняется исторически.

Кемалисти стремились развивать турецкую национальную культуру. Немалые успехи были достигнуты ими в области народного просвещения. Вместо феодально-религиозной системы образования была создана новая светская система. Довольно большое развитие получило и женское образование. Конечно, кемалисты, ограничившись в силу своей социальной природы лишь буржуазными реформами, не смогли ликвидировать неграмотность больших масс населения.

В 1927 году в Турции было только 8% грамотных. За первые 10 лет (к 1935 г.) уровень грамотности повысился до 15%. Каким образом добились такого успеха? В первую очередь, арабский алфавит переводился на латинский, арабские слова были заменены на турецкие. «Все это было реализовано принудительным методом на основании специально принятого закона. Каждый турок был обязан знать, читать, обучиться латинскому алфавиту. Более того, не желающие это исполнять беспощадно подвергались наказанию» [1]. Освоение грамоты было облегчено и заменой в турецкой письменности арабицы латыницей. Это было сделано не без влияния успехов подобной реформы письменности в Азербайджане, проведенной несколькими годами раньше.

Кемалисты в основу орфографии новой латинизированной турецкой письменности положили простой принцип – фонетический: слова пишутся так, как произносятся (*gözlük* – [gözlük], *İstanbul* – [İstanbul], *marangoz* – [marangoz]).

«Одним из труднейших преобразований в области культуры и общественной жизни было введение латинского алфавита турецкого языка вместо арабского. Официально современный алфавит в Турции начал действовать с июня 1928 года, но Ататюрк затратил много времени на изучение вариантов алфавита и пропаганду латинской азбуки. По замыслам Кемаля, латинская графика должна была ускорить распространение грамотности среди населения, приблизить турецкую культуру к европейской» [2,70].

9 августа 1928 года на массовом митинге в Стамбуле Ататюрк объявил о начале кампании по всеобщему изучению нового алфа-

вита. Затем он с энтузиазмом разъяснял и пропагандировал новую графику алфавита среди учителей, депутатов, населения. Выступая в меджлисе Ататюрк заявлял, что он никогда не испытывал такого подъема духа в утверждении нового, как тогда, когда он агитировал за новый алфавит. «Дорогие друзья, говорил он в меджлисе, благодаря историческим мерам, которые мы приняли, турецкая нация вступает в новый мир света» [2,70].

Закон о реформе турецкого алфавита был принят в 1928 г., практический переход к новой письменности начался с 1929 г. Наряду с этим стала проводиться постепенная, но неуклонная замена «османского» языка турецким во всех областях государственной деятельности и общественной жизни. Более того, сам турецкий язык был подвергнут «чистке» от многих арабских и персидских слов; вместо них вводились древние тюркские слова из старинных текстов – орхонских, уйгурских – искусственно создавались новые, на основе тюркских корней. Это движение возглавил сам Кемаль Ататюрк. По его инициативе Турецкого лингвистического общества, ставшего научным центром изучения и совершенствования турецкого языка проводилась колоссальная работа. В результате такой работы возник, по сути, новый турецкий язык, резко отличающийся даже от языка 20-х - начала 30-х годов XX века, в котором арабизми и персизми составляли до половины лексики. Новый язык усиленно внедряли в народное образование, высшую школу. На нем были написаны школьные и вузовские учебники.

В ходе реформ проявили активность турецкие журналисты. Большинство журналистов перешли на новый язык. Окончательно закрепила его в качестве общенационального турецкая литература, сделавшая большие успехи в 30-40-е годы, когда возник и развивался турецкий критический реализм. Среди его виднейших представителей – Решад Нури Гюнтекин, Сабахаттин Али, Якуб Кадри Караосманоглу, Садри Эртем. В эти же годы в турецкой литературе появились и такие ставшие впоследствии знаменитыми поэты и писатели, как Назим Хикмет, Орхан Кемаль, Яшар Кемаль. Кемаль Тахир, Суад Дервиш, Азиз Несин, которые прославили турецкую словесность далеко за пределами Турции, вложив громадный вклад в развитие современного турецкого языка. Произведения некоторых известных поэтов и писателей пере-

ведени в том числе на узбекский и русский языки (романы «Король птичка певчая» [5], «Листопад» [6] Р.Н.Гюнтекина, роман Суад Дервиш «Фосфорная Джаврия» [7], рассказы Я.К.Караосманоглу, стихи Назима Хикмета, сатирические рассказы А.Несина и т.д).

Однако с рождением нового языка родились и новые проблемы. Старшее поколение не всегда понимает этот язык. А молодежь с трудом разбирает классиков, даже произведения авторов 20-30-х годов, хотя они отпечатаны новым алфавитом. Чтобы такие произведения были понятны молодым поколениям, их нужно было еще «перевести» на новый язык, а такое дело оказалось трудоемким и дорогим.

В 60-70-годы в турецких интеллигентных семьях разные поколения порой говорили на разных языках. Часто дедушка не может понять и объяснить внуку задачу, заданную в школе на дом: учебники написаны незнакомым ему языком. В самом деле, в том учебнике геометрии, например, по которому учился дед, *треугольник* назывался *мйселлес*, *угол* - *завие*, *биссектриса* - *мунасиф*. А в учебнике внука все эти арабские слова заменены совершенно непохожими тюркскими: *ййген*, *ақи*, *ақюртай*. Для преодоления лингвистического барьера между поколениями в стране изданы специальные словари - «османско-турецкие», в которых старые слова объясняются новыми, и наоборот. С помощью этих словарей многие пожилые люди читали газеты, а молодежь - произведения писателей, написанные до 30-х годов. Например, рассказы Умара Сайфиддина даже сегодня трудно понять без «османско-турецкого» словаря, в котором старые слова объясняются новыми.

В общем, языковая реформа – это изменение языка, которое может касаться графики, лексики, грамматики, словарного запаса и других разделов языка. К этому результату можно отнести даже изменение написания фамилий или их введение, во всяком случае исторические примеры подтверждают политико-идеологическую направленность подобных действий.

Использованная литература:

- [1] – Бердибек уулу Жакшилик, Языковая реформа Ататюрка, статья.
- [2] – Розалиев Ю.Н., Мустафа Кемаль Ататюрк, очерк жизни и деятельности, Институт всеобщей истории РАН, 1995.

[3] – Исматуллаев Б., Заимствование иноязычных слов и его последствия (на примере современного турецкого языка), Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами, 3-қисм. – Тошкент: ТошДШИ, 2015, с. 131-135.

[4] – Исматуллаев Б., О некоторых проблемах ретюркизации лексики и пуризм в Турции “Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги” 3 (илмий мақолалар то‘плами).–Т.: ТошДШИ, 2015 с. 96-100.

[5] – Güntekin R.N., Çalıkuşu, roman, İstanbul, 1995.

[6] – Güntekin R.N., Yaprak Dökümü, roman, İstanbul, 1995.

[7] – Derviş Suat, Fosforlu Cevriye, roman, Selenge Yayınları. -İstanbul, 2004.

Gulobdon TO‘RAYEVA,
*ToshDSHI, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik” mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d.,prof. Sh.Usmanova*

BILVOSITA TARJIMA MUAMMOLARIGA DOIR

Tarjima jarayoni hamisha o‘ziga hos murakkabliklarga ega bo‘lib kelgan va hozirgi kunda ham bu muammolar o‘z yechimini kutmoqda. Shulardan biri sifatida bevosita va bilvosita tarjima usullarining qaysi bir samaraliroq va keng qo‘llanishi masalasi. Har ikkala tarjima usullari ham kamchiliklardan holi emas. Bilvosita tarjimalarda g‘alislik va xatolar ko‘p bo‘lsa, bevosita tarjimachilik bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar soni juda kam. Lekin, bilvosita tarjima usuli shunchalar yomon bo‘lsa nega undan vos kechilmaydi, nega hanusgacha tarjimonlar shu osson yo‘lni tanlashmoqda? Bu kabi savollarning javobi oddiy, chunki soqib sovet davridan boshlab to shu kunga qadar aksariyat tarjimalar rus tilidagi tarjimalar orqali qilinib kelinmoqda. “Vositachi til orqali tarjimada yo‘qotishlar miqdorining ko‘pligi jihatidan u ijobiy hodisa hisoblanmasa-da, bilvosita tarjimaning xizmatidan butunlay voz kechib bo‘lmaydi. Chunki dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarda ham barcha tillardan bevosita tarjima qilishning iloji yo‘q [1, 144].”

“Ma’lumki, bevosita tarjima deganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri asliyat tilidan tarjima qilish, bilvosita tarjima deganda vositachi til orqali o‘girish ko‘zda tutiladi. Bilvosita tarjimaning ikki shakli mavjud:

– muayyan asarni uning boshqa tildagi tarjimasi orqali tarjima qilish;

– til bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan taglama asosida o‘g‘irish [2, 26].”

Hozirgi kunda yurtimizda chet tillarini o‘rganish va o‘rgatish borasida ko‘plab tashkiliy ishlar olib borilishiga qaramay, tarjimonlar orasida aynan bevosita tarjima usulidan foydalanib badiiy tarjima bilan shug‘ullanuvchilar sanoqligina holos. Shunday ekan bilvosita tarjima usulidan vos kechishning iloji yo‘q. “Tarjima nazariyasi bilvosita tarjimoni, taglamani har qancha rad etmasin, tarjima amaliyoti bu vositalardan voz kecholmaydi: Jahondagi barcha tillardan bevosita tarjima qilishga o‘tilmaguncha bu tajribaga murojaat etilaveradi. Bungacha esa hali ancha bor... Binobarin, arman olimi L.Mkrtchyanning taglamaga haykal o‘rnatsa arziydi degan fikri hali-beri o‘z kuchida qoladi[1, 147].”

Quyida bir necha misollar orqali bilvosita tarjima usulining murakkabliklari va qulayliklarini tahlil etamiz:

Asliyat: Yuragi duk-duk ura boshladi [3].

Badiiy tarjima: उनका दिल तेज़ी से धड़क रहा था [4, 27]।

So‘zma-so‘z tarjima: Uning yuragi tezlik bilan urayotgan edi.

Tarjimon gapni asliyatga juda yaqin tarjima qilgan. Chunki agar so‘zma-so‘z tarjimaga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, asliyatdagi har bir so‘z to‘g‘ri va bir-biriga mos qilib o‘g‘irilgan. *Yuragi duk-duk ura boshlamoq* jumlasining ma‘nosini kengroq o‘ylab ko‘rsak, duk-duk ya‘ni yurakka nisbatan tez-tez urayotganligini anglatadi. *दिल तेज़ी से धड़क रहा* jumlasidagi “धड़कना” fe‘lining 1) urmoq, urib turmoq-yurakka nisbatan, 2) shovqin bilan tushmoq yoki urilmoq [5, 818] kabi ma‘nolari berilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, tarjimon so‘z tanlashda adashmagan va shaklda biroz o‘zgarish bo‘lsada mazmun saqlab qolingan.

Asliyat: Alisher ham kichikligida oyisiga o‘xshab, doim dadasi-ning yo‘liga ko‘z tikib yurar edi [3].

Badiiy tarjima: बचपन में अलीशेर भी विश्वास करता था कि उसके पिता लौट आयेंगे [4, 218]।

So‘zma-so‘z tarjima: Bolaligida Alisher ham ishonar ediki, uning otasi qaytib keladi.

Asliyatdagi *ko‘z tikib yurar* frazeologik birligi hindiy tilidagi tarjimada afsuski tushurib qoldirilgan. Buning o‘rniga esa tarjimon gapda soddagina qilib, *Alisher ham ishonar ediki* jumlasini berib o‘tgan. Tarjimon buning o‘rniga *ko‘z tikib yurar edi* frazeologik birligi hindiy tilida mavjud bo‘lgan *आँखें प्यासी होना* ya’ni *ko‘zlari to‘rt bo‘lib kutmoq* [6, 34] frazeologik birligini qo‘llashi ham mumkin edi. Bu frazeologik birlik asliyatda keltirilgan frazeologik birlikning aynan muqobil shakli. Bu g‘alislikka taglama tufayli yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa ajab emas. Lekin shunga alohida e’tibor berish kerakki, tarjimon frazeologik birlikni tashlab ketgan bo‘lsada, gapning mazmunini saqlab qolgan.

Asliyat: Qo‘lingiz yengil ekan. Mutlaqo tuzalib ketdim [3].

Badiiy tarjima: आपने मुझे एक तरह से दूसरी ज़िंदगी दी, क्योंकि पेट में दर्द ने मुझे काफी अरसे से परेशान कर रखा था [4, 117]।

So‘zma-so‘z tarjima: Siz meni bir tomondan boshqa hayot berdingiz, chunki qornimdagi og‘riq meni ancha vaqtdan beri havotirga qo‘yib edi.

Ushbu jumlada esa, bilvosita tarjimaning qanchalar g‘aliz bo‘lishi mumkinligini ko‘rishimiz mumkin. Kontekstdan kelib chiqib, asliyatdagi ma’noni berishga bir qadar harakat qilingan bo‘lsada, tarjimon muallif uslubiga putur yetkazgan. Asliyatda *qo‘lingiz yengil ekan* frazeologik birlik kimningdir qaysidir sohada o‘ta bilimli, o‘z ishining ustasi ekanligidan boshqalarga foydasi, nafi tekkanligi va bundan atrof-dagilarning undan minnatdor, mamnun bo‘lganliklarida qo‘llaydigan iboralaridan biridir. Shu o‘rinda *qo‘lingiz yengil ekan* iborasining rus tilida “у вас легкая рука” shakli har tomonlama ekvivalentdir. Demak, taglamada yo‘l qo‘yilgan xatoni tarjimada ham ko‘ramiz. “Har qanday tarjimada asar o‘z fazilatlaridan ma’lum darajada mahrum bo‘ladi. Agar asar tarjimasi bevosita asliyatdan emas, vositachi tildan, yana bir tarjimonning ijodi orqali amalga oshirilsa, tabiiyki, u bu jarayonda yana bir qancha o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Vositachi tilga xos ma’lum g‘oyaviy qarashlar, milliy madaniyat tushunchalari, uslubiy yondashishlar tarjima matniga muayyan yot chizgilarni olib kirishi, tarjima madan tarjima qilingan matnda shu sabab tushunmovchiliklar va chalg‘ishlar vujudga kelishi mumkin. Tarjimonning asliyat tili va matn xususiyatlaridan bexabar bo‘lishi tarjimada adekvatlikka erishish jarayonida qator muammolarni keltirib chiqaradi [7, 20].”

Asliyat: Quyosh ufqqa *lab bosdi* [3].

Badiiy tarjima: सूरज क्षितिज की ओट से झाँकने लगा [4, 128]

Soʻzma-soʻz tarjima: . Quyosh ufqning ortidan moʻraladi.

Ushbu misolimizda muallif quyoshning botish manzarasini tasvirlagan. Tarjimon ham tarjima qilish jarayonida bu gapni tasviriy usulda tarjima qilib, har tomonlama toʻgʻri yoʻl tutgan. Chunki muallifning oʻzi ham quyosh botdi, kun kech boʻldi deb tasvirlash oʻrniga ushbu tasviriy jumladan foydalangan. Agarda tarjimon bu gapni *सूरज डूबता है* [5, 735] yaʼni *quyosh botdi* deb oʻgʻirgan taqdirda, gapning mazmuni saqlanib qolgan boʻlardi, ammo yozuvchining uslubi yoʻqqa chiqar va bu gap oddiy gapga aylanib, oʻzining taʼsir doirasini mutlaqo yoʻqotib qoʻygan boʻlar edi. Aynan shuni hisobga olgan tarjimon oson yoʻlni tanlamay, tarjimada ham tasviriy shakldagi jumlani keltirib oʻtgan.

Aksar tilshunos va tarjimashunos olimlar bilvosita tarjimani “shoʻrvaning shoʻrvasining shoʻrvasi” deb talqin qilsalarda, hech narsadan koʻra shuning boʻlgani ham maʼquldir balki. Demak, bilvosita tarjima usulidan foydalanib tarjima qilish har doim ham yaxshi samara bermasada, uning xizmatidan vos kechib ham boʻlmaydi. To bevosita tarjimachilik maktablari keng yoʻlga qoʻyilmaguncha, bilvosia tarjima orqali qilingan tarjimalar bilan boʻlsada, kitobxonlarimizni jahon adabiyoti durdonalari bilan tanishtirishim lozim. Shu bilan birgalikda bilvosita va bevosita tarjimalarimizning sifatini yanada yaxshilash, asliyatga tenglashtirishning samarali yoʻllarini ham qidirib topish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (oʻquv qoʻllanma). – Toshkent: ToshDShI, 2014.

[2] – Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: ToshDShI, 2014.

[3] – www.OʻzLib.uz

[4] - सुख का पंछी. ताशकन्द: रादुगा, 1984.

[5] – Хинди-русский словарь. В двух томах, М., Советская энциклопедия, 1972.

[5] - सुश्री नजीदा नज़रबायेवा हिंदी और उज़बेक के अंगिक मुहावरों का तुलनात्मक अध्ययन. लघु शोध प्रबंध., आगरा.: केन्द्रीय हिन्दी संस्थान, 1993-94.

[6] – Досбаева Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш. Номзодлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2011.

Zuhra MAMATSALIYEVA,
*ToshDSHI, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik” mutaxassisligi 1-kurs magistranti*
Ilmiy rahbar: f.f.d.,prof. Sh.Usmanova

“HITOPADESHA” ASARI TARJIMASIDA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI

Qadimgi Sharq adabiyoti insonni yashashga o‘rgatadigan, oliynoblik, insoniylik, yaxshi xulqlarni targ‘ib qiladigan durdona asarlarga boy. Hind xalq og‘zaki ijodida “Panchatantra”, “Hitopadesha”, “Akbar va Birbal” kabi asarlar mavjudki, ularda yuqorida aytib o‘tilgan mavzular to‘liq yoritiladi. Shunday pandnoma asarlardan biri “Hitopadesha” dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingan, jumladan o‘zbek tiliga ham.

“Hitopadesha” o‘z tabiatiga ko‘ra didaktik asarlar jumlasiga kiradi. Har bir hikoya ezgulik, yaxshilikka undaydi, to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Tarbiyaviy ahamiyatga katta bo‘lgan mazkur asarni hind xalqi “ilm-hikmat xazinasini” deb bejiz aytmaydi. “Hitopadesha” ko‘plab g‘arb va sharq tillariga, jumladan, rus va o‘zbek tillariga ham tarjima qilingan. “Hitopadesha” o‘zbek tiliga ham hindiy tilidan Anzoriddin Ibrohimov tomonidan tarjima qilingan. Birinchi nashri 2000-yilda kirill alifbosida, 2008-yilda esa lotin alifbosida nashr etilgan.

Har bir badiiy asa shakl va mazmunning dialektik birligini tashkil etadi. Bu xususiyatning badiiy tarjimada qayta yaratilishi to‘la-to‘kis adekvatlikka erishishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mashxur tarjimashunos G.R.Gachechiladze haqli ravishda “Tarjima shuning uchun san’atki, unda shakl va mazmun bir-biridan ajratilgan holda emas, balki bir butun tarzda qayta yaratiladi...Tarjimon asliyatga mos shakl va mazmun birligini yaratishi lozim” deydi. [1,273]

“Hitopadesha”ning Anzoriddin Ibrohimov tarjimasini hindiy tilidagi asliyat bilan qiyoslaganda, birinchidan hikoyalar ketma ketligi, ularning sarlavhasi o‘zgartirilgani aniqlandi. Hindiy tilidagi to‘plamda o‘zbek tilidagi ko‘pgina hikoyalar topilmadi. Bu narsadan ma’lum bo‘ldiki, qo‘limizdagi hindiy tilidagi nusxa aynan A.Ibrohimov tarjimada qo‘llagan nusxa emas. Ma’lum bo‘lishicha, “Hitopadesha” hikoyalari-ning Hindistondagi bugungi kundagi nashrlarida hikoyalarni tanlab olgan holda nashr etilgan va to‘plam bitta emas, bir nechta bo‘lishi

mumkin. Shu bois ularning bizdagi o‘zbekcha nusxasiga mos kelmasligi tabiiy hol.

Avvalom bor, mundarijadagi hikoyalar nomining tarjimasini qiyoslaydigan bo‘lsak. To‘plamdagi mundarijalar ketma ketligi mos kelmasligini inobatga olgan holda ba’zi hikoyalarning nomida to‘xtalib o‘talmiz. Tahlil uchun “Axmoq maymun haqida hikoyat” va “Fillarni laqillatgan quyon” hikoyalarini asos qilib oldik.

Birinchi hikoyamizning nomi hindiy tilida “*Murkha bandar*”, ya’ni “Axmoq maymun” deb nomlanib, o‘zbek tiliga “*Axmoq maymun haqida hikoyat*” deb tarjima qilingan. Ikkinchi hikoyamiz hindiy tilida oddiygina “*Murkha xatxi*”, ya’ni “Ahmoq fil” deb nomlangan bo‘lib, o‘zbek tilida “*Fillarni laqillatgan quyon*” deb tarjima qilingan.

Bundan ko‘rinadiki, tarjimon A.Ibrohimov hikoyalar nomini tarjima qilish va unga nom berishda badiiylikni ta’minlash maqsadida hikoya mazmunidan foylangan holda nom bergan.

Endigi vazifa hikoyaning shakl va mazmunini berishda tarjimonning yondashuvi masalasini o‘rganishdan iborat.

Birinchi hikoyamiz “Ahmoq maymun”. Bu hikoyada maymunning o‘ylamasdan ish qilganligi tufayli ajal sirtmog‘iga ilingani hikoya qilingan. Hikoya hajm jihatdan kichik, lekin A.Ibrohimov uni tarjima qilishda hikoyaning asosiy mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirib tarjima qilgan, ya’ni asl matndagi ayrim jumlar tushirilib, matnda yo‘q so‘zlar va jumlar tarjimada kiritilgan, masalan, hikoya voqea-ning qaysi yurda sodir bo‘lganligini bildiruvchi so‘zlar bilan boshlanadi va bu voqeaga sababchi bo‘lgan shaxsning nomini ham aytib o‘tadi, undan keyin ham ayrim batasillik uchun ma’lumotlar kiritilgan, lekin, tarjimada bu qismlar tarjimon tomonidan tushirib qoldirilgan, jumladan, birinchi abzasni misol keltiramiz:

मगध देश की बात है। वहाँ धरामवान के निकट की भूमी पर शुभादात्ता नाम के एक कायास्थ ने विहर बनवाना किया। उसी कारया के लिये दो बाढ़ी एक बहुत बड़ी लड़की चिड़ी गई थी वहाँ पर एक लड़की की कील थोक कर उन्होंने ने अरी को निकाल लिया और भोजन करने के लिए अपने घर को चल दिये।

“Magadh desh ki bat he. Vahan dharamvan ke nikat ki bhumi par Shubhadatta nam ke ek kayastha ne vihar banvana arambh kiya. Usi karya ke liye do barhai ek bahot bari lakri ko are se chir rahe the. Madhyanha ke bhojan ka jab samay hua to jahan tak voh lakri chiri

gai thi vahan par ek lakri ki kil thok kar unhon ne ari ko nikal liya aor bhojan karne ke liye apne ghar ko chal diye”. [3,54]

So‘zma so‘z tarjima:

“Magadxada bo‘lgan voqea. U yerda bir o‘rmon yaqinidagi bir yerda Shubxadatta ismli bir taqvodor kishi ibodatxona qurdirishni boshlagan edi. Bu ishni bajarish uchun yollangan ikki usta kattagina bir taxtani arra bilan arralayotgan edilar. Tushlik vaqti kelganida taxtaning kesilgan yeridan arrani olib, u yerga taxtadan yasalgan bir mixni qoqib, o‘zlari tushlik qilish uchun uylariga ketdilar”.

Tarjimada:

“O‘rmonning chekkasida bir taqvodor kishi o‘ziga oshiyon qurdirayotgan edi. O‘sha yerda xar xil uzun kalta g‘o‘lalar xodalar uyilib yotardi. Xodalardan birining ichiga katta mix qoqib qo‘yilgandi”. [2,46]

So‘zma so‘z tarjimini bilan Ansoriddin Ibrohimov tarjimasini qiyoslaydigan bo‘lsak, hindiydagi matnning ko‘pgina qismi tushirib qoldirilgan (namunada ajratib ko‘rsatilgan), o‘zbekcha tarjimasida esa matnda yo‘q jumlar va so‘zlar (namunada ajratib ko‘rsatilgan) kiritilgan. Lekin, hikoyaning shu abzas qismining mazmuni saqlab qolingan.

Xuddi shuningdek kichik bir hikoya tarjimasiga ijodiy yondoshgan holda asl matndagi quyidagi jumlar tushirib qoldirilgan:

“सब शरामीकोन को चले जाने पर”

“sab shramikon ko chale jane par” – “hamma ishchilar ketganidan keyin”

कोई कहीं बैठ गया तो कोई कहीं खुदने-फनदने लगा

“koi kahin beyth gaya to koi kahin kudne-phandne laga” - “kimdir bir yerga o‘tirib olgan bo‘lsa, boshqalari boshqa yerda sakrab yurardi”.

Quyidagi jumla va so‘zlarni tarjimada o‘zi tomonidan kiritgan:

“mixga ko‘zi tushdi”, “tishi bilan sug‘urmoqchi bo‘ldi”, “chunonam kuchandiki”, “mana bo‘lmasa har narsaga burnini suqaveradigan eshak haqidagi hikoyamni eshit”.

Bu jumlar hindiy tilidagi matnda uchramaydi.

Demak, “Ahmoq maymun haqida hikoyat” hikoyasining hindiycha va o‘zbekcha tarjimasining qiyosiy tahlili asosida shuni aytish mumkinki, tarjimon A.Ibrohimov mazkur hikoya tarjimasida anchagina shakl o‘zgarishlariga yo‘l qo‘yib, erkin tarjima usulidan foydalangan.

Lekin, tarjimadagi bu yondashuvdan hikoyaning umumiy mazmun mohiyatiga hech qanday putur yetmagan. Ikkirnchi hikoyamiz “*Murkha hathi*”, ya’ni “*Fillarni laqillatgan quyon*” deb nomlanadi. Bu hikoyada ham tarjimonning yuqoridagi maymun haqidagi hikoyaga o’xshash yondoshuvi kuzatiladi. Hikoyada asosiy mazmunni saqlagan holda ko’pgina qismlar tushirib qoldirilgan. Ularning ayrimlarini keltiramiz:

- हमारे जो छोटे छोटे बच्चे हैं वे भी पानी के अभी मैं तराप रहे हैं –
- “*Hamare jo chote chote bachche heng ve bhi pani ke abhav me tarap rahe heng*” - “*Bizning yosh bolalarimiz ham suvsizlikdan qiynalishayapdi*”
- कभी जब वर्षती तो जयेगी तो अपने स्थान पर लौट आयेंगे । “*Kabhi jab vrishti ho jayegi to apne sthan par laot ayenge*” – “*yana yomg’ir yog’sa, o’z joyimizga qaytib kelmiz*”
- एक का सुख तो दूसरे का दुख - “*Ek ka sukh to dusre ka dukh*” – “*birovning baxti boshqaning bebaxtligi*”.

Huddi shuningdek, tarjima jarayonida tarjimon matnda bo’lmagan so’z va jumalarni qo’shib tarjimani ta’sirchanligini ta’minlagan, ular quyidagilar:

- “*o’zingiz juda yaxshi bilasiz, suvsiz biz harob bo’lamiz*”;
- “*o’rmonda bir ko’l bor, undan hech suv arimaydi*”;
- “*bu gapdan so’ng barcha quyonlarning ko’ngli bir qadar taskin topdi*”;
- “*qanaqa xabar ekan u*”;
- “*roostingmi chopar - so’radi fil*”;

va boshqalar. Tarjimada bunday erkinlik to’plamning har bir hikoyasida kuzatiladi.

“Mazmun va shakl birligining tarjimada to’laqonli aks ettirilishi san’atkordan nafaqat amaliy, balki nazariy bilimlar bilan ham qurollangan bo’lishni talab etadi. Til hodislari sirlarini o’zlashtirib olmasdan, asliyat va tarjima tillarining o’ziga xos qonun-qoidalaridan hamda muallifning individual-ijodiy uslubidan xabardor bo’lmay turib, asliyat ruhini to’la qonli talqin etish aslo mumkin emas”. [1,273] Ansoriddin Ibrohimov ana shunday amaliy, nazariy bilimlari va bir necha yillik tajribalari asosida ushbu hikoyalarni sermazmun tarjima qilishga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, A.Ibrohimov “Hitopadesha” hikoyalari tarjimasida shakl va mazmun masalasida anchagina erkinlika yo‘l qo‘ygan. Tarjimon asarni tarjima qilishda shaklni saqlab qolishdan ko‘proq ma‘noni saqlab qolishga ahamiyat bergan. Tarjimon garchi bu usulda tarjima qilgan bo‘lsa-da, asliyatdagi matnning ma‘nosini tarjimada ochib bera olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] – Мусаев.Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005.
 - [2] – Hitopadesha yoki ibratli hikoyatlar. A. Ibrohimov tarjimasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
 - [3] – Hitopadesha. – Delhi: Diamond books, 2003.
-

***Mohigul ALTUNDAG‘,**
ToshDSHI, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik” mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. A.Alimbekov*

BADIIY TARJIMADA LINGVOKULTUREMALARNING BERILISHI

(“Kelinlar qo‘zg‘oloni” asarining turkcha tarjimasi misolida)

Bir millatning turmush tarzi, moddiy va ma‘naviy madaniyati, urf-odatlar, milliy o‘ziga xosliklari, hatto badiiy tafakkuriga xos jihatlar, yuqori saviyada amalga oshirilgan badiiy tarjima orqali boshqa bir tilda o‘z aksini topishi mumkin.

Badiiy matn tarjima qilinganda badiiylik bilan birga madaniy kontekstni ko‘chirishga harakat qilinadi. Tarjima jarayonida badiiy asardagi ma‘no assotsiatsiyalari o‘zgarib, madaniy vazifani bajaruvchi asliyat so‘zi tarjima tilidagi so‘z, belgi bilan almashtiriladi.

Tarjima matnida madaniyatning turli xil qatlamlaridan yangi ma‘no, yangi xususiyatlar ochiladi. Unda madaniy xususiyat yangi assotsiatsiya orqali qabul qilinib, tarjima qilingan so‘z o‘z ma‘nosiga ko‘ra yangi funktsiyani bajaradi. Milliy adabiyot boshqa xalq adabiyotiga ta‘sir o‘tkazib, kommunikativ muloqotni ta‘minlaydi. Adabiyotlar o‘zaro muloqotga kirishganda biri ikkinchisining rivojiga hissa qo‘shadi. Ushbu o‘zaro muloqotning davomiyligini esa tarjima matni ta‘minlaydi.

Yuqorida soʻz borayotgan mavzu tadqiq etilgan maqolamizda oʻzbek adabiyotining taniqli namoyandasi, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi, Oʻzbekiston Qahramoni Said Ahmadning xalqimiz dilidan joy olgan ajoyib sahna asari – “Kelinlar qoʻzgʻoloni” komediyasi [1] va uning turk tilining bilimdoni Iristoy Qoʻchqortoyev va turk tarjimoni, oʻzbek adabiyoti namunalaridan anchasini turk tiliga oʻgʻirgan Aynur Oʻz tomonidan turk tiliga tarjima qilingan matni [2] qisman tahlilga tortildi.

S.Ahmadning oʻzi ushbu asarning turk tiliga tarjimasi haqida shunday degan edi: “Bir necha tilga tarjima qilingan “Kelinlar qoʻzgʻoloni” nomli asarimning turk tiliga oʻgirilib nashr etilishini sabrsizlik bilan kutayapman”–deb yozgan edi [2,1]

S.Ahmad asarlarining qahramonlari oddiy odamlar. Ularning hatti-harakatlari, gap-soʻzlari, orzu-umidlari tabiiy, hayotda biron narsaga erishsa quvonishadi, xato qilishsa, toʻsiqlarga duch kelishsa, qaygʻurishadi, iztirob chekishadi. Ularning quvonch onlari, dardu iztiroblari adib tomonidan gʻoyat ishonchli qalamga olingan. Turkcha tarjimada ham ijodkorlar asarning badiiy qimmatini toʻla saqlashga intilganlar.

Tarjimada har doim madaniy komponent mavjud boʻladi. Tarjimon ijod jarayonida madaniy boʻyoqdor soʻzlarga doimiy ravishda eʼtibor berisi kerak. Madaniyatlararo muloqot – tarjima demakdir, chunki u bir koddan boshqasiga oʻtishni taqozo qiladi. Demak, tarjimon soʻzma-soʻz emas, balki madaniyat belgilaridan kelib chiqqan holda kitobxonning dunyoqarashini hisobga olgan holda tarjimani amalga oshirishi lozim. Zero, tarjimon ijod qilish jarayonida nafaqat tilni bilishi, balki uning urf-odatlarini, turmush tarzi, oʻy-kechinmalari haqida ham tasavvurga ega boʻlishi lozim. Chunki tarjimon oldida oʻquvchiga asl matnda ilgari surilgan gʻoya, madaniyatni kitobxonga yetkazishdek maʼsuliya vazifa turadi. “Kelinlar qoʻzgʻoloni” tarjimonlari ana shu vazifani ado etishgan. Bunga asar tarjimasini oʻqigach, amin boʻlish mumkin.

Tarjima jarayonida faqat soʻzlar emas, balki ikki madaniyat tutasadi. Obrazli qilib aytganda, uchinchi madaniyat hosil qilinadi. Unda bir madaniyatga xos, lekin ikkinchi madaniyat uchun noodatli, yot soʻzlar yangi matnda moslashtiriladi. Bundan tashqari, “begona” madaniyat xususiyatlari, obrazlar oʻzlashtiriladi.

Misollarga murojaat qilamiz: *“Lutfi Boboyeva mening eng yaxshi koʻrgan kelinim boʻladi. Unga oʻzim tarbiya berganman. Uy ishlarini oʻynab-kulib bajaradi. Hurmatimni qiladi. Pazandaligini aytmay qoʻya*

qolay. Lag‘monni sochning tolasidek ingichka cho‘zadi, chuchvarani danakdek tugadi. Yopgan nonlari lolaga o‘xshab qizaradi. Ham ishda, ham ro‘zg‘orda ilg‘or bo‘lgan sevikli kelinim bilan faxrlanaman. Men umuman er-xotinning ishiga aralashmayman. Olgan maoshi bilan ishim yo‘q. Kam-ko‘stiga yaratsin, deb o‘zlariga qo‘yib beraman...” [1,224]. Pesa bosh qahramoni Farmonbibining kelini Lutfi Boboyeva haqida reportaj olgani kelgan radiomuxbirga aytgan so‘zlari asarni o‘qigan, spektaklni tomosha qilgan barchaga yaxshi tanish va asar umumiy mazmunining belgilovchi nuqtalaridan biridir. Buni yaxshi anglagan tarjimonlar parchani turk tiliga quyidagicha o‘girishgan: “*Lütfi Babayeva benim en çok sevdiğim gelinimdir. Onu ben yetiştirdim. Ev işlerini canı gönülden yapar. Aşçılığını bir kenar bırakalım. Makarnayı saçı gibi uzun açar. Erişteyi çekirdek gibi küçük yapar. Yaptığı ekmekler nar gibi kızarır. Hem işte hem de evde becerikli olan gelinim ile gurur duyuyorum. Ben genellikle gelinlerim ile oğullarım arasına girmem. Aldıkları maaşa bakmam, eksiklerini alsınlar diye kendilerine bırakırım...*” [2,42]. Tarjimada asliyat parchasining mazmuni to‘la aks etgan. Bundan tashqari, tarjimonlar sof o‘zbekcha birikmalarni sof turkcha birikmalar orqali bera olishgan. Masalan, “*Unga o‘zim tarbiya berganman. Uy ishlarini o‘ynab-kulib bajaradi*” gaplarini “*Onu ben yetiştirdim. Ev işlerini canı gönülden yapar*” shaklida o‘girib, asliyat jumllarini to‘laqonli aks ettirishgan. Biroq, “*Hurmatimni qiladi*” sodda gapini tarjimada tushirib qoldirishgan (Holbuki, uni “*Bana karşı çok saygılıdır*” deb o‘girish mumkin edi). Asliyatda berilgan realiyalar tarjimasiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bu yerda kichik muammoga duch kelamiz: mashhur uyg‘ur taomi (*lag‘mon*)ning nomi bir xos so‘z sifatida turkchaga aynan ko‘chirilishi kerak edi. Lekin tarjimonlar uni “makarna” deb o‘girishgan. Holbuki, “*lag‘mon*” – “*makarna*” (makaron) emas, qolaversa, turk kitobxoni “makaron”ni faqat fabrikada ishlab chiqariladigan mahsulot sifatida biladi va uning uy sharoitida “*soch tolasidek ingichka cho‘zilishi*”ni xayoliga keltirmaydi. Shu kabi, “*chuchvarani danakdek tugadi*” gapi ham “*Erişteyi çekirdek gibi küçük yapar*” (“danakdek kichkina qiladi”) deb o‘girilgan. Zotan, danakdek degach, chuchvaraning “kichkinaligi” ayon bo‘ladi. Demak, *küçük* (“kichkina”) so‘zi bu yerda ortiqcha. Jumladagi “*chuchvara*” so‘zi turkchada “erişte” deb berilgan. Holbuki, turk tilining izohli lug‘atida forsha “rishte” so‘zidan olingan “erişte”ga quyidagicha izoh berilgan: “1. yoyilgan xamirdan ingichka chiziqlar shakli-

da kesilgan, tuppa, ugra; 2. qishda yeyish uchun, xususan, ramazon oyida ovqat pishirish uchun tayyorlangan makaron” [3,645]. Demak tarjimonlar “*chuchvara*” soʻzini turkchada “erişte” deb notoʻgʻri berishgan. Bu soʻzni turkchada “manti” deydilar, yaʼni oʻzbeklarning “*chuchvara*”si turklarning “manti”siga toʻla muqobil boʻla oladi. Bunday misollarga asar va uning tarjimasida tez-tez duch kelamiz.

Yuqorida aytilganidek, milliy madaniyatni asliga xos tarjima qilish asar oʻquvchisining boshqa millat madaniyati haqidagi tassavurlarini kengaytirsang, oʻzga madaniyat xususiyatlarini, oʻy-kechinmalari, obraz, gʻoyalarini yoritishda oʻzlashtirilgan “oʻzining” tilidagi soʻzlar bilan tarjima qilishi madaniyatlararo muloqotni hosil qiladi.

“Kelinlar qoʻzgʻoloni” komediyasidan olingan quyidagi muallif jumlasiga eʼtibor beraylik: “*Usta Boqi allaqanday qoʻshiqni xirgoyi qilib tufli yamayapti. Farmonbibi choynak-piyola koʻtarib kiradi. U sal xomushroq*” [1,225]. Tarjimasi: “*Baki Usta mırıldanarak ayakkabı tamir eder. Fermanbibi, elinde çaynek ve piyale ile girer*” [2,42]. Bu tarjimada ham ayrim kamchiliklarga duch kelamiz: birinchidan, “*mırıldanarak*” soʻzidan oldin “*şarkıyı*” soʻzini qoʻshish kerak edi; ikkinchidan, “*çaynek*” soʻzi turk kitobxoniga tanish emas, chunki bu soʻz turkchada “*çaydanlık*” deyiladi va u tarjimasiz qoldirilib, izohlanadigan xos soʻz hisoblanmaydi. Bundan tashqari, asliyatdagi “*U sal xomushroq*” gapi turkchaga oʻgirilmagan.

Endi asl nusxadagi, Farmonbibining oʻgʻli Asqarning gapini olib koʻramiz: “*Yoʻq, bu artist emas. Bu – artistlarga isnod keltirib yurgan otarchi. Urgan bilan bu yaramas otarchini tuzatib boʻlmaydi. Yaxshisi 15 sutkaga qamab qoʻyish kerak*” [1,225]. Tarjimasi: “*Hayır, bu artist değil, artistlerin yüz karası. Döverek bu rezili adam edemeyz. En iyisi on beş gün hapsedelim*” [2,44]. Asliyat jumlasining mazmuni tushunarli qilib berilgan, hatto “*isnod keltirib yurgan otarchi*” birikmasini tarjimonlar “*yüz karası*” deb oʻgirib qoyilmaqom ish tutishgan. Shunga qaramay, gap tarjimasi kamchilikdan xoli emas. Uni quyidagicha bergan maʼqul edi: “*Hayır, bu sanatçı falan değil, sanatçıların yüz karası. Döverek bu rezili adam edemeyz. En iyisi on beş güne hapse attıralım*”.

Xullas, “Kelinlar qoʻzgʻoloni” pyesasi va uning tarjimalari ustida katta-katta tadqiqotlar olib borish mumkin. Asarda aks etgan oʻzbek xalqiga xos chuqur milliylik, urf-odat va anʼanalarning boshqa tillarda qanday berilganini kuzatish tadqiqotchilar uchun yirik materialni tash-

kil etadi. Ushbu mo'jaz tadqiqot kelajakda amalgam oshirilishi rejalashtirilgan tadqiqotlardan bir zarradir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Саид Аҳмад, Танланган асарлар, 3 жилдлик, 2-жилд, Ҳажвиялар, пьесалар, “Шарқ” нашриёт–матбаа концерни Бош тахририяти. –Тошкент, 2000.

[2] – Said Ahmed, Kelinler kozgalanı (Gelinlerin İsyanı), aktaranlar: İristay Kuçkartay, Aynur Öz. –Ankara, 1997.

[3] – Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 10.Baskı, Ankara, 2005.

Lobar UMARXODJAYEVA,
*ToshDSHI, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik” mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d.,prof. M.Abdurahmonova*

HINDCHA IBORALAR TARJIMASIDA SOXTA EKVIVALENTLIK MUAMMOSI

Tarjimashunoslikdagi ilmiy atamalardan biri – tarjimonni chalg'ituvchi so'zlar, ya'ni soxta ekvivalentlardir. Rus tarjimashunosi A.Fedorov bunday birliklarga quyidagicha tarif bergan: “Soxta ekvivalent shunday so'zki, eshitilishi va yozilishi jihatidan o'zaro qardosh tillarda yoki qisman chet tilidagi so'z bilan butunlay mos keluvchi, kelib chiqishi, ya'ni ildizi, etimologiyasi bitta bo'lsa ham, ma'no jihatidan boshqa-boshqa narsalarni bildiruvchi so'zlardir” [1, 152-160]. Shakli bir xil, ammo ma'nosi butkul farqli so'zlar bo'lgan soxta ekvivalentlar nafaqat so'zlar, balki turg'un birikmalarni o'girishda ham mushkulliklar keltirib chiqaradi.

Soxta ekvivalentlar tushunchasi nafaqat so'zning fonetik jihatidan o'xshash, balki bir til oilasiga mansub bo'lgan tillarda, ya'ni yozuvi bir xil bo'lgan tillarda shakl jihatidan bir biriga o'xshash bo'lishini ham bildiradi. Iboralar o'rtasida soxta ekvivalent mavjud deb aytilgan fikr borasida “Iboralar o'rtasida qanaday “soxta ekvivalent”lik bo'lishi mumkin?” degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunday savolga javob berishdan oldin bir misolga murojaat qilaylik. Ustoz G'.Salomov shunday misol keltirib, bu savolga javob beradilar: “O'zbekcha-ruscha lug'at”da

Ko‘r hassasini bir marta yo‘qotadi mataliga Canëp ouuëbaemcya oëun paz matali muqobil qilib ko‘rsatiladi. Vaholanki, tuzilishi juda o‘xshash bo‘lgan bu ikki birikmaning ma‘nosi bir-biriga zid: hassasini bir marta yo‘qotgan ko‘r shundan keyin ehtiyotkor bo‘ladi, ammo bir marta xatoga yo‘l qo‘ygan sapyorning o‘z xatosini tuzatib, ehtiyotkor bo‘lishi mumkin emas – uning xatosi o‘lim bilan barobar. Shuning uchun bu ikki birikma bir-biriga soxta ekvivalentdir” [2, 277].

Badiiy tarjima jarayonida tarjimon so‘zlar bilan ishlash mobaynida ba‘zan g‘ijjalab tarjima qilish uslubidan foydalanadi. Natijada matndagi ba‘zi bir iboralar ham oddiy so‘zma-so‘z tarjima qilinadi. Yoki bo‘lmasam, bir tildagi iborani so‘zma-so‘z tarjima qilganda undagi ma‘no xuddi ikkinchi tildagi ma‘no bilan aynan mos kelgandek tuyuladi. Hamda ushbu holatda tarjimon asl tildagi iborani so‘zma-so‘z tarjimadagi o‘xshashligiga aldanib, tarjima qilinayotgan tilda mutlaqo boshqa bir ma‘no anglatuvchi ibora bilan almashtirib xato tarjima qilishi ehtimoldan holi emas. A.V.Fyoderovning “turli tillarda faqat ayrim so‘zlarnigina fonetik jihatdan o‘xshashligini soxta ekvivalent deb oladigan bo‘lsak, “soxta ekvivalent iboralar” terminini strukturasi jihatidan bir-biriga o‘xshash, ammo ma‘nosi bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan, hatto bir-biriga zid bo‘lgan frazeologik iboralarga nisbatan qo‘llaniladi” [2, 277] deb aytgan mulohazasi yuqoridagi fikrimizning isboti bo‘la oladi.

कुत्ते की दुम [3, 89] – *So‘zma so‘z*: “Kuchukning dumi”. Ushbu iborani so‘zma so‘z tarjima qilganda o‘zbek tilidagi “*itning keyingi oyoq*” iborasiga ekvivalent bo‘lgandek ko‘rinadi. Iboraning asl ma‘nosi esa mutlaqo boshqa tushunchadir. Ya‘ni “tushuntirganing bilan tushunmaydi”.

Qo‘llanilishi: इतना समझाया मगर तुम कुत्ते की दुम ही बने रहे।

So‘zma so‘z: Shuncha tushuntirganim bilan itning dumi bo‘lib qolaveribsən.

Badiiy: “Senga shuncha uqtirsam ham odam bo‘lmading” yoki bo‘lmasam “o‘qibsanu uqimabsan” iborasiga aynan mosdir.

जी ठंडा होना [3, 150] – *So‘zma so‘z*: “qalb sovuq bo‘lmoq”, ya‘ni “qalbning sovuq bo‘lishi”, biroq ushbu iboraning hindiy tilidagi ma‘nosi “mamnun bo‘lmoq”dir. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi jumlani ko‘rib chiqamiz. *Qo‘llanilishi*: तुम्हे देख कर जी ठंडा हो गया।

Soʻzma soʻz: Seni koʻrib qalbim muzladi.

Badiiy: Seni koʻrib hursand boʻdim.

Bordiyu tarjima jarayonida ushbu iboraning asl maʼnosini mutarjim bilmasa matndagi soʻzma soʻz tarjimadan kelib chiqqan holatda “seni koʻrib qalbim ozor chekdi”, “seni koʻrib qalbim ranjidi” deyishi aniq va bunda xatolik yuzaga keladi.

नानी मर जाना – iborasini “buvisi oʻlib qoldi” deb soʻzma soʻz tarjima qilganda maʼno anglashilmaydi. “Juda koʻp frazeologizmlar borki, ularni gʻijjalab tarjima qilsa, beʼmani soʻz uyumlari hosil boʻladi, xolos”. Aslida yuqorida keltirilgan नानी मर गयी frazeologizmini tarjimasida “tarvuzi qoʻltigʻidan tushmoq” iborasi barobarida “xafsalasi pir boʻlmoq” muqobilini ham qoʻllash mumkin edi [4, 141].

काम-तमाम करना – *Soʻzma soʻz:* “ishni tamom qilish”. Hindiy tilidagi maʼnosi “oʻldirmoq”. Eʼtibor qaratgan boʻlsangiz “ishni tamomlamoq” bilan “oʻldirmoq” oʻrtasida juda katta farq bor. Oʻzbek tilida bunday tushunchani faqatgin jaydari uslubda uchratishimiz mumkin. Yaʼni maʼlum bir doira aʼzolarigina kimnidir tinchitganida “ishni tamomladim” yaʼni “oʻldirdim” deb qoʻllashadi.

Qoʻllanilishi: गरज़ वह काम किया काम ही तमाम किया।

Soʻzma soʻz: Gʻaraz ish qilganning ishi tamom

Badiiy: Gʻarazli insonning ishi unmaydi

Gʻaybullal Salomov ibora va maqollarni tarjima qilishda quyidagi usullarni koʻrsatadi.

1) Maqol va matallarni – tarkibidagi soʻzlarning (obʼektlarini) moddiy maʼnosini aynan saqlagan holda – aniq tarjima qilish;

2) Asl nusxadagi maqol, matal va frazeologik iborotlar tarkibidagi soʻzlarning moddiy mazmunini yoki shaklini birmuncha oʻzgartirib tarjima qilish;

3) Asl nusxadagi maqol, matal va frazeologik butunliklarni asar tarjima qilinayotgan tilda haqiqatda mavjud boʻlgan muqobil bilan almashtirish [4, 278].

नानी याद आ जाना [3, 217] – *Soʻzma soʻz:* “buvisini yodiga keltirmoq”. Biroq, hindiy tilidagi ushbu iboraning maʼnosi “qattiq xavotirlanish”, “tashvishlanish” maʼnolarida qoʻllaniladi. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi misolga murojaat qilamiz.

Qoʻllanilishi – इतनी तकलीफ हुई कि नानी याद आ गयी।

So'zma so'z: Shuncha mashaqat bo'ladi-yu buvisini esladi.

Iboraning *so'zma-so'zi* tarjimasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak hech qanday ma'no anglashilmaydi. Shuning uchun iboraning asl ma'nosi quyidagicha:

“Shuncha qiyinchilik bo'ladiyu, tashvishlanmay bo'ladimi”.

अंदर वाला [3, 10] – *So'zma so'z*: “ichkaridagi”. Ammo hindiy tilidagi ma'nosi *qalb, dil* hisoblanadi. “Qalb” bu insonning ichki makoni bo'lsa ham, “ichkaridagi” so'zidan butunlay farqlidir. Chunki, “ichkaridagi” deyilganda ma'lum bir xonaning yoki, ma'lum bir binoning ichki qismi hamda ichkaridagi shaxs tushuniladi.

Qo'llanilishi – क्या करु अंदर वाला ही नहीं मानता।

So'zma so'z: Nima qilay ichkaridagi tan olmasa

Iboraning o'z ma'nosida qo'llasak quyidagi jumla yuzaga keladi.

“Qandoq qilay, yurak bo'y sunmasa”.

नाम नहीं [3, 218] – *So'zma so'z*: “nomi yo'q”. Ushbu iborani bilmagan tarjimon “nomsiz”, “nomi yo'q” deb tarjima qiladi. Iboraning asl ma'nosi esa, “hisobda yo'q”, “sanoqda yo'q”dir. Ushbu iboraning gapda qo'llanilishini ko'radigan bo'lsak,

Qo'llanilishi – हंसाए का नाम नहीं, रुलाए का नाम है।

So'zma so'z: “kuldirishning nomi yo'q, yig'latishda nomi bor.” Ushbu iboraning o'zbek tiliga aynan muqobil varianti bo'lmaganligi bois, ma'no doirasi mos tushadigan quyidagi shaklga mosdir;

“Kuldirganni nomi yo'q, yig'latganni nomi bor”.

Ya'ni, mehribon, ko'ngilchan insonlar boshqalarning yodidan tez ko'tariladi, qattiqqo'l, talabchan, jahldor insonlarni esa unutish mushkulroqdir.

दूर ही से सलाम करना [3, 199] – *So'zma so'z*: “uzoqdan salomlashish”. Hindiy tilidagi ma'nosi “bezor bo'lmoq”, “joniga tegmoq”dir.

Qo'llanilishi – मेरा तो इस कम्बख्त को दूर ही से सलाम है।

So'zma so'z: Men bundaylar bilan uzoqdan salomlashib qo'yi-shimning o'zi kifoya.

Badiiy: Bunday odamdan bezor bo'lganman.

Agarda iborani *so'zma so'z* tarjima qilinsa kitobxon uchun asar qahramonining *bezor bo'lganligini* ya'ni munosabatni emas masofani tushungan bo'lardi.

मेरा सलाम है [3, 327] – *So‘zma so‘z*: “mening salomim” bo‘lib, hindiy tildagi ma’no anglashmasi “bunga parvo qilmaslik”, “e’tibor bermaslik”dir.

Qo‘llanilishi – ऐसे खराब काम को मेरा सलाम है।

So‘zma so‘z: Bunday rasvo ishga mening salomim.

Badiiy: Bunday nomaqbul ishga mening parvoyim yo‘q.

काम से काम [3, 84] – *So‘zma so‘z*: “Ishdan ish”. Iboraning asl ma’nosi esa, “har qanday holatda ham o‘z maqsadidan qaytmaslik va vos kechmaslik” tushuniladi.

Qo‘llanilishi: इन बातों से हमें क्या मतलब, हमें तो अपने काम से काम है।

So‘zma so‘z: Bu gaplardan bizga nima foyda, biz o‘z ishimizdan ishimiz bor.

Badiiy: Bu gaplardan bizga nima foyda, o‘z ishimizni bilib bilib qilamiz.

Ushbu ibora fonetik jihatdan कम से कम birikmasiga omonim bo‘la oladi. Biroq, कम से कम birikmasining asl ma’nosi o‘zbek tilidagi ma’nosiga tengdir. Ya’ni, “kamdan kam”.

कुत्ते घसीटना – *So‘zma so‘z*: “Kuchukni tortmoq”. Mazkur iborani *so‘zma so‘z* o‘girsam hech qanday ma’no anglatmaydi. Iboraning asl ma’nosi esa “hurmatsezlik qilish, beizzat qilish”dir.

Qo‘llanilishi: काम क्या करता है, दिन भर कुत्ते घसीटता रहता है।

So‘zma so‘z: Kim nima qilardi, kun davomida qiladigan ishi kuchukni tortishdir.

Badiiy: Hurmatsezlik uning kun davomida qiladigan ishi.

Iboraning badiiy tarjimasini bilan *so‘zma so‘z* tarjimasidagi farq osmonu-yercha desak yanglishmagan bo‘lamiz.

अगले दफ्तर खोलना [3, 14] – *So‘zma so‘z*: “Boshqa daftarni ochish” ma’nosini anglatadi. Biroq iboraning ma’nosi “eski gaplarni qo‘zg‘amoq”.

Qo‘llanilishi: कब के किस्से ले बैठे, अगले दफ्तर खोलना किस ने कहा था।

So‘zma so‘z: Qachondir olib qo‘yilgan, boshqa daftarni ochish kim aytdi.

Badiiy: Eski gaplarni qo‘zg‘agin deb kim aytdi.

Ushbu iboraning *so‘zma so‘z*idagi “keyingi daftarni ochmoq” bilan “eski gaplarni qo‘zg‘ash” orasidagi farq juda kattadir. Bordini tarjima

jarayonida tarjimon अगले दफ्तर खोलना iborasini bilmasa keyingi daftarni ochish” ya’ni “o’tgan ishga salovat” degan mazmundagi ibora bilan yanglishishi mumkin.

Soxta ekvivalent ko‘rinishlaridan biri sanalmish “aldoqchi iboralar” tarjimonni o‘ylashga, izlanishga majbur etuvchi jihatdir. Tarjimon asliyatdagi iboraning asl mazmuni nima ekanligini anglamog‘i va mos keluvchi iborani topmog‘i lozim. Yuqorida keltirilgan कुत्ते की दुम – *kuchukning dumi* iborasining asl ma’nosini anglamagan mutarjim “itning keyingi oyog‘i” deb tushunishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Федоров А. Основы общей теории перевода. – Москва: Филология три, 2002.

[2] – Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966.

[3] – बालमुकन्द अर्श मलसियानी, मुहावरे और कहावतें, दिल्ली १९५७।

[4] – Ходжаева Н. Ҳиндий тилидан ихчам ибора ҳикматли ибора образли иборалар таржимасига доир. // Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги 2. – Тошкент: ТошДШИ, 2014.

Gulnoza NAZRULLAYEVA,
ToshDSHI, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik” mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d. U.Muhibova

KRISHAN CHANDAR HIKOYALARINING DUNYO TILLARIGA TARJIMALARI XUSUSIDA

Krishan Chandar hozirgi zamon talabiga javob beradigan yozuvchilardan edi. Uning romanlarini va hikoyalarini nafaqat o‘z ona yurtida balki o‘zga yurtlarda ham mutola qilishadi. Uning romanlari ko‘plab dunyo tillariga tarjima qilingan. Xususan ingliz tiliga, fransuz tiliga, nemis tiliga, golland tiliga, norveg tiliga, rumin tiliga, venger tiliga, chex tiliga, slovyan tiliga, polyak tiliga, serb tiliga, arab tiliga, fors tiliga, sinigal tiliga, xitoy tiliga, koreys tiliga, yapon tiliga, o‘zbek tillariga va boshqa tillarda nashr etilgan. Krishan Chandar ijodiga bag‘ishlab yozilgan maqolalar ko‘pdir. U 20 dan ortiq roman, 30ga yaqin hi-

koya muallifidir. Shuningdek, yozuvchining kinofilm ssenariylari va hajviy romanlari mashhur.

Krishan Chandar 1913-yil 23-noyabrda Vazirobod shahrida tavallud topgan. Uning otasi shifokor bo'lishiga qaramasdan she'riyatga qiziqar edi va farzandlarini adabiyotga bo'lgan muhabbatini oshira olgan. Shu sababli uning ikki o'g'li Krishan Chandar, Maxendranatx va bir qizi Surla Devi yozuvchi bo'lib yetishishdi [1,6]. Krishan Chandar 1930-yil Laxordagi Farman xristian kollejida tahxsil olgan. 1934-yil kollejni tamomlab, kollejni o'zida ingliz mahalliy jurnal muharriri bo'lib ishlay boshlagan. Ishlash davomida ingliz adabiyotiga qiziqishi ortib borgan. 1932-yil Krishan Chandarning "Sadxu" hikoyasi ana shu jurnalda urdu tilida chop etilgan. Yozuvchi ijodida ko'plab romanlar, hikoyalar to'plamlari, drammlar, tanqidiy maqolalar va ocherklar uchraydi. Ular taxminan 80 ga yaqindir.

Krishan Chandar ijodi odatda hayotdan olingan voqealardan tashkil topardi. Uning roman, hikoyalarida nochorlikda yashovchi odamlar hayoti, mehribon va g'ururli insonlar taqdiri, yaxshi insonlarni xor qilmaslik to'g'risida so'z yuritilar edi.

Krishan Chandar hikoyalarining ilk tarjimalari: 1955-yilda "Seni kutaman" [2] ("Жду тебя"[3] मैं इंतज़ार करूंगा[4]) nomli hikoyasi rus tilidan Mahmud Yahyoyev tomonidan o'zbekchaga tarjima qilingan. 1957-yil "Shamollar onasi" ("Мать ветров" [3] तुफान की कलीआँ[4]) hikoyasi rus tarjimoni V.Bikova tomonidan tarjima qilingan. 1958-yilda ushbu hikoyani rus tilidan Qodir Mirmuhamedov o'zbek tiliga tarjima qilgan [5]. "Yozuvchining ilk ijodiga mansub lirik hikoyasi "Angi" romantik bo'yoqdorlikka ega. "Angi" hikoyasi yozuvchining bolaligi o'tgan Kashmir bilan bog'liqdir. 1972-yilda "Angi" hikoyasi urdu tilidan rus tarjimashunoslari I.Rabinov va I.Kudryavsev tomonidan rus tiliga tarjima qilingan"[1]. 1979-yil "Bir eshakning sarguzashi" ("Положения Осла" [3] एक गधे की आत्मकथा[4]) hikoyasi Mustafo Horun tomonidan Bengal tiliga tarjima qilingan[4]. 1983-yil Amir Fayzullayev "Ezgulik xapdori" hikoyani o'zbek tiliga tarjima qilgan[7].

1972-yil Moskvada Krishan Chandar qissalari va hikoyalari "Zamonaviy nasr ustalari. Hindiston." (Мастера Современной прозы. Индия.)[1] kitobi chop etilgan. Mazkur kitobda Krishan Chandarning eng mashhur 2 ta qissasi va 23 ta hikoyasi jam bo'lgan. Kitobni tuzuvchi va tarjimoni A.Suxochev. Ushbu kitobdagi barcha qissa va hikoya-

lar urdu tilidan tarjima qilingan. “Kitobda yozuvchining eng mashhur qissalaridan “Yer qachon paydo bo‘lgan” (“Когда пробудились поля”, “जब खेत जागे”1951) va “Xotiramdagi chinorlar”[12,100] (“Чинары моих воспоминаний”, “मेरी यादों के चिनार”1968) qissalari joy olgan”[1]. Kitobda 23 ta hikoyalarning rus tiliga qilingan tarjimalari mavjud.

Odatda Krishan Chandar hikoyalarida Hindistondagi hayot qiyinchiliklari gavdalanar edi. Garchi u boshqa mavzularda ham ijod qilgan bo‘lsada. Hindistonda Krishan Chandarning kitoblari mahalliy 16 tilda bosib chiqarilgan. Hamda ko‘plab asarlari chet tillariga tarjima qilingan. Xususan ingliz va rus tillariga. Uning eng mashhur romanlaridan biri “Eshakning sarguzashti” (“Похождения Осла”[1,11] एक गधे की आत्मकथा[4]), “Singan daraxt” (“Перевернутое дерево”[6] उल्टा दाराखत[4]) falsafiy ertaglaridir. 2007-2008-yillarda mashhur kitoblari-dan biri “Qalb ovozi” (“Голос сердца”[3] चांदी का घाव दिल[4]) R.Qayumova tomonidan urdu tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

“Krishan Chandarning ilk hikoyalari “Botkin kasalligi” (“Желтуха”) hamda, Laxor jurnallarida chop etilgan “Adabi dunyosi” (Адаби дунья) va “Хумоюн” (Хумаюн) asarlari kitobxonlar etiborini tezda o‘ziga chorladi. Krishan Chandarning dastlabki hikoyalar to‘plami “Tilsimi xayol”(1937) (Талисман мысли) nomli ilk hikoyalar to‘plami unga shuhrat olib keldi”[1].

“Yozuvchi qalamiga mansub bo‘lgan “Angi” (Анги), “Feldsher” (Фельдшер), “Gurdjandagi tun” (Вечер в Гурджане) nomli romantik hikoyalari va “Novda o‘zi o‘sa olmaydi” (Молодая травка сама не вырастет!), “Chandr dunyosi” (Мир Чандру), “Трах-tararax” (Трах-тарарах!) nomli realistik hikoyalari kitobxonlar orasida mashxurdir”[1].

Krishan Chandarning “Dadar ko‘prigidagi bolalar”[8] (“Дети с Дадарского моста”[1,11] ”दादर पुल के बच्चे”[9]) qissasi 1999-yil hindiy tilidan Anzoriddin Ibrohimov tarjima qilgan. Yozuvchining “Bir qizga ming oshiq” [10] (“Одна девушка и тысяча влюбленных”[3] एक लड़की हजार दीवाने [11]) romani 2011-yil tarjimon Amir Fayzullayev hindiy tilidan tarjima qilgan.

Krishan Chandar shunchalar ijodga sho'ng'iganidan o'zining salomatligiga beparvo bo'gan. Uning san'atga bo'lgan muhabbati juda kuchli edi. U 1977-yilning 8-martida Bombay shahrida yurak xuruji tufayli vafot etgan. Yozuvchiga bag'ishlab Punch shahrining markaziga haykal qo'yishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Сухочев А. Мастера современной прозы Кришан Чандар. -М., Прогресс, 1972.

[2] – Кришан Чандар, Сени кутаман, ҳикоя, рус тилидан Махмуд Яҳёев таржимаси, “Жаҳон адабиёти” журнаלי, 1955, 3-сон.

[3] – <https://m.livelib.ru/book/10004544>

[4] – https://hi.m.wikipedia.org/wiki/विकिपीडिया_में_खोजें

[5] – Кришан Чандар, Шамоллар онаси, ҳикоя, рус тилидан Қодир Мирмуҳаммедов таржимаси, “Жаҳон адабиёти” журнаלי, 1958, 9-сон.

[6] – old.rsl.ru/table.jsp

[7] – Кришан Чандар, Эзгулик хапдориси, ҳикоя, ҳиндий тилидан Амир Файзуллаев таржимаси, “Жаҳон адабиёти” журнаלי, 1958, 9-сон.

[8] – Кришан Чандар, Дадар кўпригидаги болалар, ҳикоя, ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси, “Жаҳон адабиёти” журнаלי, 1999, 2-сон.

[9] – कृश्न चन्दर। दादर पुल के बच्चे। नई दिल्ली-2013।

[10] – Кришан Чандар, Бир қизга минг ошиқ, ҳикоя, ҳиндий тилидан Амир Файзуллаев таржимаси, “Жаҳон адабиёти” журнаלי, 2011, 4-сон.

[11] – कृश्न चन्दर। एक लड़की हजार दीवाने। नई दिल्ली-2013।

[12] – Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2003, 5-том.

Gavhar JO'RAYEVA

ToshDShI, “Tarjima nazariyasi va amaliyot”

yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d. prof. A.Quronbekov

HAR INSON KO'NGLIDA SHOIR YASHAYDI

Sharqshunos olim, filologiya fanlari doktori professor Ahmadjon Quronbekovning tarjimashunoslik faoliyati bilan tanishar ekansiz, o'zbek tilining naqadar boyligi, rang-barangligi, unda inson qalbidagi

eng nozik his-hayajonlarning o‘z go‘zal ifodasini topganini kurasiz. Buning sababi bu kishining uzoq yillar G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyotida avval muharrir, keyin Xorijiy sharq xalqlari adabiyoti bo‘limining boshlig‘i sifatida faoliyat olib borgani va O‘zbekistonning eng yetuk yozuvchi va tarjimonlarining asarlarini tahrir qilish jarayonida qilni qirq yorib tahlil va tasnif qilishga to‘g‘ri kelganini anglab olasiz .

U 1967-yildan 1983-yilgacha turli yillarda uch marta Afg‘onistonda uzoq muddatli xizmat safarida bo‘lgan. Bu safarlar besamar o‘tgan, bir tomondan fors-dariy tilining eng nozik sir-asrorlarini o‘rganishga sabab bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu g‘alayonli yillar uning hayot tajribasini ortishiga, sharqshunos sifatida tanilib yetishishiga xizmat qilgan.

Ahmadjon Quronbekov 1983-yilda safardan qaytgach, amaliy bilimlar qatorida o‘z nazariy bilimlarini oshirishga jiddiy kirishadi. U ToshDU ning sharq fakultetida ishlab turib 1988-yilda “Amir Xusrav Dehlaviyning “Oynai Iskandariy” dostonida ismlar turkumidagi so‘zlarning statistik-semantik tahlili” mavzusida Moskvada Ittifoq FA Sharqshunoslik institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

Undan so‘ng o‘z izlanishlarini “G‘azal sohiri” Hofiz tili bo‘yicha davom ettirib 1995-yil “Hofiz g‘azaliyoti leksikasining manolar strukturasini tadqiq etish yo‘sinlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi [1,160].

Bu izlanishlar Ahmadjon Quronbekovning fors va o‘zbek tillarining ma’nolar tizimini yanada teranroq egallashiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan keyingi faoliyatida asosiy diqqatini ilmiy izlanishlarga va darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishga qaratgan bo‘lsada, fors tilidan tarjimalarga ham qo‘l urib turadi. Bu tarjimalar uning fors tili va o‘zbek tillarini yanada chuqurroq egallash yo‘lidagi sof mashqlari deb hisoblash kerak.

Uning rus,fors,dariy,pushtu tillaridan qilingan ko‘plab tarjimalari mavjud. 1971-yil Mate Zalkaning “Mangulik” nomli hikoyalar to‘plamini, 1972-yil O‘rxon Kamolning “Ustasi farang” nomli hikoyalar to‘plamini, 1977-yilda Eronlik mashhur yozuvchi Buzo‘rg Alaviyning “Ajal raqsi” kabi hikoyalar to‘plamlarini o‘zbek tiliga, 1985-yilda “Mardo‘me shejo va vazifeshenos” nomli hikoyalar to‘plamini o‘zbek tilidan fors tiliga o‘g‘irgan.

1981-yilda “So‘nggi tabassum”, “Qora quzg‘unlar” [2,21,68] nomli hikoyalarni va 1987-yilda “Oq ko‘ylakli qiz”, “Ko‘r burgut”, “Avtobusda”, “Mirxonbek” [3,15,65,99,138-b] kabi afg‘on mualliflari qalamiga mansub bo‘lgan ko‘plab hikoyalarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Shuningdek olim tomonidan 1982-yilda Bo‘zurg Alaviyning “Uning ko‘zlari” romani o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qilindi. Roman 1952-yilda yozilgan bo‘lib, u Eron demokratik kuchlarining monarxiyaga qarshi kurashi tasviriga bag‘ishlangan. O‘zbek kitobxonlari va siyosatchilari tomonidan roman tarjimasi kata qiziqish va alohida etibor bilan kutib olindi.

Olim badiiy tarjimalar bilan bir qatorda ilmiy va tarixiy asarlar tarjimasi bilan ham shug‘ullanadi. Jumladan, olim 1999-yil Amir Xusrav Dehlaviyning 15 g‘azalini katta mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. G‘azallar tasavvufiy ruhda yozilgan bo‘lib, tarjimon tomonidan baytlardagi har bir so‘zga alohida urg‘u berilishi, mukammal izohlaniishi tarjimaning qiymatini yanada oshirgan. Tarjimon tomonidan berilgan sharh va izohlar o‘quvchiga g‘azal mazmunini tushunishga, anglashga katta yordam berishi tayin. 2014-yilda olim tariximizning nodir durdonalaridan biri sanalgan, o‘zida buyuk bobo kalonimizning oltinga teng pand-nasihatlar hamda siyosat, rayosat haqidagi qarashlari jamlangan “Temur Tuzuklari” ni “Amir Temur ko‘ragon. Temur tuzuklari” nomi bilan o‘rta asr davridagi eski o‘zbek tilidan hozirgi o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. Asar kitobxonlar, tarixnavislar va Amir Temur faoliyati bilan qiziquvchilar uchun katta sovg‘a bo‘ldi. Asar mukammal sharhlar, ilova, izohlar bilan chop etilgan. Tarjima jarayonida so‘zlarni to‘g‘ri tanlay olganligi, shakl va mazmun birligini saqlab qolganligi tarjimaning qiymatini oshirish bilan bir qatorda tarjimonning mahoratidan ham dalolat beradi. 2015-yilda olim tarixchilar va boburiylar sulolasining taqdiri bilan qiziquvchilar uchun o‘ta muhim va qimmatli manba bo‘lgan “Humoyunnoma” asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qildi [5,2]. Mazkur asar - Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim qalamiga mansub bo‘lib, asarda Bobur Mirzo, Humoyun, Akbar shoh va boshqa temuriy mirzolar hayotidan lavhalar matonatli va shijoatli ayol Gulbadanbegim nomlaridan tasvirlanadi. Gulbadanbegim o‘tkir va sinchkov nazar hamda otasiga xos haqiqat qalami bilan tarix voqealarini aks ettiradi. Sharqshunos olimi Anet Beverij xonim asar haqida “Bu kitob tengi yo‘q noyob asardir. Unda malika o‘zi mansub bo‘lgan ayollar dunyosini mufassal tasvirlab bergan. Tilining soddaligiga qaramasdan, bu

asar kiborlik va malohat bilan, hatto qahri qattiq shohlarning faoliyatini ham sahna ortidan turib ziyraklik bilan kuzatib borgan ulug‘vor malikaning mulohazalari bayon qilingan bebaho manbadir. Muallif mulohazalarining samimiyligi saroy tarixchilarining ko‘plarini lol qoldirishi va uyaltirib qo‘yishi ham mumkin”[4,11] –degan edi. “Humoyunnoma” tarjimasiga ko‘plab tarixnavislarning qayta-qayta murojaat qilishi ham asarning haqqoniyligidan dalolat beradi. Ahmadjon Quronbekov tomonidan asarning qayta tarjima qilinishi tarixnavislar ishini anchayin osonlashtirdi. Ko‘pgina noaniq so‘zlar aniqlanib ularga izoh va sharhlar berildi. Asarda ko‘p qo‘llanilgan so‘zlarga tarjima jarayonida so‘zlarning muqobillari va mutarodiflari qo‘llanilganki tarjimonnning mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tarjima jarayonida har bir personaj nutqini tarjima qilishda tarixiy haqiqatlarga asoslangan holda so‘z tanlanganki, personaj nutqidan uning qanday shaxs ekanligini, qanday saviyadagi inson ekanligini yaqqol sezish mumkin.

Olim forscha o‘quv qo‘llanma va darsliklarni ham o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Jumladan; 2001-yilda U.Samara tomonidan yozilgan “Omuzesh-e zabon-e forsi” kitobining 2 ta jildi tarjimasini, 2011-yilda Sayyid Muhammad Ziyo Husayniy tomonidan yozilgan “Fors tilini chet elliklarga o‘qitish nazariyasi va yo‘riqlari” nomli o‘quv qo‘llanmasini, 2012-yilda “Hozirgi zamon Eron adabiyoti” nomli o‘quv qo‘llanmasini tarjimasini taqdim etgan. Hozirda olim rahbarligida F-1-135 guruh “Alisher Navoiy asarlari konkordansining ilmiy-uslubiy tadqiqi” nomli ilmiy-tadqiqot loyihasi ustida ish olib bormoqda. Loyiha bo‘yicha 2012-yilda “Alisher Navoiyning “Hayratul-abror” dostoni konkordansi”, 2013-yilda “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni konkordansi” 2014-yilda “Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni konkordansi”, 2015-yilda “Alisher Navoiyning “Sabbai sayyor” dostoni konkordansi” monografiyalari nashr qilindi. 2016-yilda “Alisher Navoiyning “Sa‘di Iskandariy” dostoni konkordansi” monografiyasi chop etilishi kutilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, sharqshunos olim, o‘tmish sharqshunos olimlarining eng yaxshi ana’analarini davom ettirib, sharqshunoslik sohasida nafaqat ilmiy izlanishlar bilan cheklanganlar, balki tarjimonlik faoliyatini ham birga olib borganlar. Bu narsa qo‘shni sharq mamlakatlarining adabiyoti, tarixi va turmush tarzi bilan o‘zbek xalqini tanishtirishda munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] - Abdusamatov M. O‘zbekiston sharqshunoslari. T.,1996.
 - [2] - Parda orqasidagi qo‘g‘irchoq. Hikoyalar to‘plami. T.,1981.
 - [3] – Mannonov A. Savr shabadalari. Hikoyalar to‘plami. T.,1987.
 - [4] - Goden R. Gulbadan.T., 2007.
 - [5] - Quronbekov A. Humoyunnoma, T., 2015.
-

Nazokat JALILOVA,
*ToshDShI, “Filologiya va tillarni o‘qitish”
yo‘nalishi, 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. Xayrulla Hamidov*

R.N.GUNTEKINNING “DUDAKTAN KALBE” (MUHABBAT SIMFONIYASI) ROMANI O‘ZBEK TILIDA

Ma’lumki, tarjimonlik juda qiziqarli ish bo‘lish bilan birga, ijodkordan katta mahorat talab qiladigan, sermashaqqat faoliyatdir. Badiiy asarni tarjima qilishda tarjimon o‘z mahoratini ishga soladi. Tarjima qilingan matn kitobxonga yoqishi, uni qiziqib o‘qishi uchun tarjimonning so‘z qo‘llash san’ati yuqori bo‘lishi lozim. Tarjimonlik san’ati va mahoratini mukammal egallash uchun tarjimondan bilim, mehnat, izlanish va tajriba talab etiladi. Tarjimada g‘alizliklarning uchrashi esa ana shu sanab o‘tganlarimizning yetishmasligi natijasida yuzaga keladi.

Ushbu tadqiqot mashhur turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning “Dudaktan Kalbe” [1] (“Muhabbat Simfoniyasi” [2]) romanining o‘zbek tilidagi tarjimasi asosida olib borildi. Uni tayyorlashda manbalardan tashqari, Berdaq Yusufning “Turkcha-O‘zbekcha “aldoqchi” so‘zlar lug‘ati” [3], Ibrohim Yo‘ldashevning “O‘zbek-Turk maqol va iboralari lug‘ati” [4] hamda O‘zbek tilining izohli lug‘atidan [5] foydalanildi.

Ma’lumki, R.N.Guntekinning nomi va asarlari Yevropa va Osiyoning deyarli barcha mamalakatlarida yaxshi tanish. Asarlari orasida 1925-yilda yozilgan “Dudaktan kalbe” (“Muhabbat simfoniyasi”) romani sevgi-muhabbat mavzusiga bag‘ishlangani, yozilish uslubi, badiiy saviyasi bilan alohida e’tiborni tortadi. Romanda turli ijtimoiy qatlam vakillarining yashash tarzlari qalamga olingan. Yozuvchi nafa-

qat kitobxonlarni milliy an'analar va yangiliklar bilan tanishtirgan, balki umuminsoniy muammolarni ham benihoya go'zal tasvirlar bilan jonlantirgan va shu tariqa keng omma qalbidan joy olgan.

R.N.Guntekinning "Dudaktan Kalbe" tarjimon Miraziz A'zam tomonidan "Muhabbat Simfoniyasi" nomi ostida o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ma'lumki, yozma tarjimonlardan har ikki tilning nozik nuqtalarini ilg'ay bilishi, tushunilishi qiyin bo'lgan badiiy so'z yoki ilmiy atamalarning eng mos ekvivalentini topish talab etiladi. Bu esa tarjimonidan muayyan tilning grammatikasini mukammal o'zlashtirishni taqazo etadi. Har bir tarjima asarlarida bo'lgani kabi mazkur roman tarjimasida ham bir qator yutuq va kamchiliklarni kuzatdik. Quyida bir necha misollarni ko'rib chiqamiz:

«Leb-i Nigârım» 'dan mutlaka birkaç tane yemelisiniz!... Onda bir kiraz lezzeti bulacaksınız... Bunları yemekte o kadar beğendiğiniz «Nur-i Nigâr» 'lar ile şu karşiki tabakta yaldızlanmış gibi görünen «Tâcîzer»lerin evlenmesinden aldım... [1, 2].

Tarjimasi: *"Labi nigorim" dan bir necha g'ujumini yeb ko'rishing kerak!..Unda sal gilos mazasi borligini ham sezasan... Anavi yoqtirganing "Nuri nigor"lar bilan manavi qarshidagi vazada zarlanganday ko'rinuvchi "Toji zar"larni bir-biriga changlatish orqali olganim bu uzumni yeb ko'rganingda hammasini anglaysan [2, 5].*

Tarjimon mazkur jumlani o'zbek tiliga katta mahorat bilan o'girgan. Turk tilidagi evlenmek so'zining lug'aviy ma'nosi "turmush qurmoq" bo'lib, yozuvchi ikki xil navdagi uzumlarning turmush qurishi natijasida yangi bir uzum navi paydo bo'ldi deb yozgan. Tarjimon esa so'z qo'llash san'atidan mohirona foydalanib, "turmush qurmoq" birikmasining o'rniga "changlatish" so'zini qo'llagan. Ammo, asar tarjimasining bir necha o'rinlarida g'alizliklarga ham duch kelindi. Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin: ...*Artık resmen nişanlım sayılıyorsunuz. Beyhude **üzülmenize** hacet kalmadı...Söyleyeceğim bunlardan ibaret... [1,48].* **Tarjimasi:** ...*Endi bundan buyog'iga siz mening unashilgan qizim hisoblanasiz. Behuda **uzilishingizga** hojat qolmadi... Aytar gaplarim shulardan iborat [2, 94].* Turkcha *üzülmek* so'zining o'zbek tilidagi tarjimasida "ranjimoq", "xafa bo'lmoq" dir. Ammo tarjimon mazkur jumlani tarjima qilish jarayonida *üzülmek* so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratmagan va o'zbek tiliga "uzilish" tariqasida tarjima qilgan va natijada noaniqlik yuzaga kelgan.

Yoki, ...*Tabiatın anlaşılmas kanunları var azizim... insanlarda olsa fenaya çekeriz...* [1, 2]. **Tarjiması:** ...*Tabiatning anglashilmas qonunlari bor azizim... Insonlarda bo'lsa fanoga tortamiz* [1, 5]. Mazkur misol orqali turk tilidagi *fenaya çekmek* iborasining o'zbek tiliga tarjima qilinishidagi xatoni ko'rish mumkin. Turk tilidagi *fena* so'zi "yomon", *çekmek* esa "tortmoq" ma'nosini bildiradi. Ushbu ikki so'z birlashib iborani tashkil qilgan. O'zbek tilida turkcha *fenaya çekmek* iborasining ekvivalenti mavjud bo'lib, "yomonlikka yo'yish" deb tarjima qilinadi. Ammo tarjimon iborani to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish bilan kitobxonga noqulaylik keltirgan.

- *Sakın aklınıza bir şey gelmesin... Vallahi onun için değil... Başımızın üstünde yeriniz var*, diye mazere beyan etti [1,120].

Tarjiması: - *Xudo haqqi, hayolingizga bir narsa kelmasin. .. Valloh, uning uchun emas... Boshimizning ustida joyingiz bor*, - deya uzrini bildirdi [2, 237]. Yuqoridagi misolimiz ham turk tilidagi iboraning o'zbek tiliga g'aliz tarjima qilinganligidan guvohlik beradi. Tarjimon mazkur iborani ham o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilgan. Bilamizki, iboralar xalq turmush tajribasidan kelib chiqib, xalqning tasavvurlarini, dunyoqarashini o'zida namoyon etadi. Turk tilidagi "*Başımızın üstünde yeriniz var*" iborasi kishiga bo'lgan hurmat, ehtiromni ifodalab keladi va o'zbek tilidagi "Uyimning to'ri sizniki" iborasiga ekvivalent bo'la oladi. O'zbek xalqi "*Boshimizning ustida joyingiz bor*" kabi iboradan foydalanmasligi ma'lum, shunday ekan, ushbu ibora tarjimasida ham g'alizlik mavjud deb ayta olamiz. Shuningdek, quyidagi misolimiz orqali ham turk xalq iboralarining tarjimada berilishini ko'rishimiz mumkin: ... *O çavuşun seni kollarına aldığını düşündükçe aklım başımdan gidiyor... Billahi katil olacağım...* [1,62] **Tarjiması:** *O'sha chovushing seni qo'lga olganini o'ylaganimda aqlim boshimdan uchadi... Xudo haqqi qotillik qilaman...* [2, 126]. Turk tilidagi *aklı başından gitmek* iborasi nima qilishni bilmay qolish, o'z harakatlarini ongli ravishda boshqara olmaydigan darajaga tushish kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Mazkur iboraning o'zbek tilida aynan ekvivalenti mavjud bo'lib, kishi shunday holga tushib qolganda *aql-hushini yo'qotmoq* iborasi ishlatiladi. Demak, tarjimon *aqli boshidan uchmoq* deb o'g'irgan ibora aslida *aql-hushini yo'qotmoq* iborasiga to'g'ri keladi.

Tanınmış bir musiki ustadının teşebbüsü üzerine verdiği bir konser, ona **umulmaz** bir muvaffakiyet temin etti [1,17]. **Tarjiması:**

Muhim bir musiqa ustodining tashabbusi bilan bergan ilk konserti uni **beqiyos** bir muvaffaqiyat bilan ta'minladi [2,33]. *Taninmiş* soʻzining oʻzbek tilidagi tarjimasi “taniqli”, “mashhur” boʻlib, tarjimon “muhim” deb tarjima qilgan. Koʻrib turganimizdek, “muhim” soʻzi maʼno jihatdan ham gapga toʻgʻri kelmaydi. “Mashhur musiqa ustoz” yoki “taniqli bir musiqa ustoz” kabi birikmalar oʻrniga “muhim” soʻzining ishlatilishi oʻquvchiga tushunarsiz, noaniq tuyuladi. Ammo diqqatimizni *umulmaz* soʻzining oʻzbekcha tarjimasiga qaratsak, muvaffaqiyatli tarjima boʻlganiga guvoh boʻlamiz. Turk tilidagi ushbu soʻz “kutilmagan”, “umid qilinmagan” maʼnolarini anglatadi. Tarjimon mazkur oʻrinda “beqiyos” soʻzidan foydalangan va “tengi yoʻq”, “cheksiz” kabi maʼnolarni aks ettirgan.

Har bir tarjimon oʻzi tarjima qilayotgan til nuqtai nazaridan kelib chiqib oʻquvchiga oson va tushunarli bir asarni yaratib berishi lozim. Asl matndagi soʻz, soʻz birikmalari yoki iboralarni toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish kitobxonni chalgʻitishi, shuningdek, jumlada berilayotgan maʼnoni anglab yetmaslikni keltirib chiqarishi mumkin. Buni quyidagi misolimizda ham koʻrishimiz mumkin: *Fakat buna rağmen Nail, bir türlü bu lekeyi silememiş, hayatını memuriyetten başka yerlerde aramağa mecbur kalmıştı* [1,7]. **Tarjimasi:** *Lekin shunga qaramay Nail bir turli bu dogʻdan qutulolmagan, hayotini maʼmuriyatdan boshqa yerlardan izlashga majbur qolgandi* [2,12]. Oʻzbek tilida boʻlgani kabi turk tilida ham omonimlik hodisasi mavjud. Shunga binoan, turk tilida baʼzi soʻzlar yozilishi va aytilishiga koʻra bir xil boʻlsa-da, turlicha maʼnolarni anglatadilar.

Misol tariqasida quyidagi jumlani olaylik: *Kenan, o akşam erkenden odasına çekilmişti. Çok sinirliydi. Lambasını yakmadı. Karanlıkta mütemadiyen gezinerek sigara içiyordu. İçinde korku, telaş ve utanma ile karışık bir heyecan vardı.* [1, 42]. **Tarjimasi:** *Kanon oʻsha oqshom xonasiga erta kirib ketgandi. Koʻp asabiy edi. Lampasini yoqmadı. Qorongʻilikda tinimsiz u yoqdan-bu yoqqa yurgancha sigaret chekardi* [2, 81]. **Çok** soʻzining ikki xil maʼnosi boʻlib, 1) *koʻp* va 2) *juda* kabi maʼnolarni anglatadi. Oʻzbek tarjimoni yuqoridagi tarjimada **çok** soʻzining *koʻp* emas *juda* maʼnosidan foydalanganida maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Turk tilidagi *aşk* soʻzi oʻzbek tilida “sevgi”, “muhabbat” maʼnolarini anglatadi, ammo baʼzi tarjimonlar ushbu soʻzni *ishq*, *savdo* kabi soʻzlar bilan tarjima qiladilar. Xuddi shu soʻzni “*Böylelikle genç kıza*

ümitsiz aşkını, İzmir'e de bu çirkin vakayı unutturacaklarını umuyorlardı" [1,21] yoki *"Bir mehtaplı yaz gecesinden uzak bir keman sesinden doğan bu genç kız sevdası beş sene sonra yine aynı hisler içinde sönmüştü"* [1,324] jumalari misolida ham ko'rish mumkin. **Tarjima-si:** *"Shu tariqa yosh qizga umidsiz savdosini, Izmirga esa bu chirkin voqeani unuttira olishlarini umid qilardilar"* [2,15]. Turkcha jumalarda yozuvchi qo'llagan *aşk* ("ishq", "ishq savdosi", "ishq-muhabbat") so'zini o'zbek tarjimoni *"savdo"* so'zi orqali bergan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir tarjimon badiiy asarni tarjima qilish jarayonida o'z mahoratini ishga soladi. Tarjima-ning kitobxonga asliyatdagi asar kabi estetik zavq berishida hamda qahramonlarning ruhiy kechinmalari, o'y-fikrlari va voqea-hodisalar-ning aynan yetkazib berilishida tarjimonning so'z qo'llash san'ati ham muhim ahamiyat kasb etadi. *"Dudaktan Kalbe"* asarining o'zbek tilidagi tarjimasini tahlil qilish jarayonida yuqorida sanab o'tgan yutuq va kamchiliklarni uchratdik. Tarjimon asarni o'zbek tiliga o'giran bo'lishiga qaramay, tarjima to'laqonli o'zbekcha deb ayta olmaymiz. Chunki tarjimada tarjima qilinayotgan til unsurlaridan kelib chiqqan holda, muayyan xalqning mentaliteti, madaniyati, tasavvurlari, dunyo-qarashlari ham hisobga olinishi lozim. Asl matnda uchragan so'zlar, iboralar va maqollarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish bilan ko'chirish o'quvchiga bir qator noqulayliklar tug'diradi. Shunday ekan, R.N. Guntekinning *"Dudaktan Kalbe"* romanining o'zbek tilidagi tarjimasini (*"Muhabbat Simfoniyasi"*) muvaffaqiyatli tarjima asari deya baholash qiyin, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Guntekin R.N., *Dudaktan Kalbe*, roman, mutlukitap@hotmail.com. <mailto:kitapsevenler@gmail.com>".

[2] – Guntekin R.N., *Muhabbat simfoniyasi*, roman, turk tilidan M.A'zam tarjimasi, Toshkent, 2011.

[3] – Yusuf Berdak, Turkcha – o'zbekcha *"aldoqchi"* so'zlar lug'ati. *Türkçe-Özbekçe Sesteş Kelimeler Sözlüğü*. –T.: 2009.

[4] – Yoldaşev İ., Öztürk T., Öztürk Y., *Özbek-Türk Atasözleri ve Deyimleri Sözlüğü*, Taşkent: 1998.

[5] – O'zbek tilining izohli lug'ati. –M.: *"Rus tili"*, 1981.

Dilbar ASADOVA,
*ToshDShI, “Filologiya va tillarni o‘qitish”
yo‘nalishi, 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. Xayrulla Hamidov*

TARIXIY SHAXSLAR NUTQINING TARJIMADA BERILISHI (Yavuz Bahodiro‘g‘lining “Xorazm o‘t ichida” romani misolida)

Tillar va tarjimalar bahsida turkiyzabon xalqlarning o‘zaro ilmiy hamda madaniy ayirboshlash va boyitish jarayonini tadqiq qilish muhimdir. Bu jihatdan istiqlol yillarida badiiy tarjima ishi jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Ayniqsa, qardosh xalqlar, xususan, turk adabiyotidan o‘zbek tiliga, o‘zbek adabiyotidan turk tiliga tarjima qilish adabiy jarayonning faol bir yo‘nalishiga aylandi.

Tarjimashunos olim G‘aybullar Salomov shunday yozgan edi: “Badiiy asarlar tarjimasining xususiyati shundaki, u chinakam nafis narsadan bahramand etishdan tashqari, xususan, estetik tuyg‘uni o‘stirishga, did paydo qilishga va nafis narsa to‘g‘risida haqqoniy tushuncha tarqalishiga xizmat qiladi” [1,11]. Najmiddin Komilov esa tarjima asarini boshqa xalq yaratgan narsadan aynan ko‘chirilgan nusxa emas, balki “boshqa tildagi badiiy go‘zallikni o‘z xalqi uchun ijodiy o‘zlashtirish, yangi tilning quvvati va qudratini namoyish etib, asarni shu tilning san‘at hodisasiga aylantirish” ekanligini ta’kidlagan edi [2,5].

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar, yaqin yoki uzoq o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to‘qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to‘qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari asosida o‘rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o‘sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish,

ular da o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otish va shu yo‘l bilan ma‘rifatli avlodni tarbiyalash, zamondoshlarni tarixiy o‘tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash, bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o‘tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir. Yozuvchi tarixiy roman qahramonlarining tilini xususiylashtirishda ularning ruhiyatidan, gapirish ohangidan, hamda bilim doirasidan samarali foydalanadi. Jumladan, bu xil yo‘nalish tarixiy asarni soxta badiiylik, davr koloritini buzib ko‘rsatish, so‘zlarni ishlatishda o‘ta jimjimadorlik kabi illatlardan saqlaydi [3, 31]. Demak, yozuvchi biror bir tarixiy mavzuga qo‘l urar ekan, bunday asar yaratishning o‘ziga xos jihatlarini, ijodkorlik mas‘uliyatini chuqur anglashi, tarixiy davr voqeligi va tarixiy shaxs ruhiyatini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi shart.

Ana shunday tarixiy asarlardan biri taniqli turk tarixchi olimi va yozuvchi Yavuz Bahodiro‘g‘lining “Xorazm o‘t ichida” (“Buhara yanıyor”) romani bo‘lib, uni o‘zbek tiliga Boboxon Muhammad Sharif tarjima qilgan. “Xorazm o‘t ichida” romanidagi tarixiy shaxslar nutqining tarjima qilinishida so‘z tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunda tarjimonning mahorati namoyon bo‘lgan. Asardagi har bir personajning nutqi uning xarakter xususiyatlariga, dunyoqarashi, muhit, ma‘naviy qiyofasi, madaniy-ma‘rifiy darajasi kabi jihatlariga muvofiq bo‘lib, tarjimon ham uning ana shu tomonlarini asl holicha berishga harakat qilgan.

Tarixiy asarlarning boshqa badiiy asarlardan farqli jihati shundaki, unda tarixiy so‘zlar, tarixga xos obrazlarning xarakteristikasi tasvirlanadi. Albatta, tarixiy qahramonlar nutqi ham shunga yarasha o‘zining xususiyatlariga ega bo‘ladi. Tarixiy badiiy asar yozilar ekan, yozuvchi tarixiy va eskirgan so‘zlarni sinchiklab o‘rganib chiqishi lozim:

1. Tarixiy so‘zlar (*istorizmlar*) – o‘tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o‘z sinonimiga ega bo‘lmagan so‘zlardir. Masalan: *miri*, *paqir*, (pul birliklari) *qozi*, *qushbegi*, *yasovul*, *xalifa* (mansab nomlari), *omoch*, *yorg‘ichoq*, *charx* (tarixiy realiyalar) kabilar.

2. Eskirgan so‘zlar (*arxaizmlar*) – hozirgi kunda mavjud bo‘lgan narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir. Eskirgan so‘zlarning hozirgi tilda sinonimi mavjud bo‘ladi. Masalan: *budun*, *ulus*, *raiyyat* –

xalq; *handasa* – geometriya; *muarrix* – tarixchi; *lang* – cho‘loq, oqsoq.

Roman tarjimasi jarayonida tarixiy hamda eskirgan so‘zlar e’tibordan chetda qolmay, o‘zbek tilidagi istorizm hamda arxaizmlarni qo‘llashga harakat qilingan. Masalan, romandagi tarixiy qahramon Jaloliddin Manguberdining nutqida shunday so‘zlar uchraydi:

*“Gerektiğinde kardeşimiz Ozlak Şah'an emri altında da bir asker gibi dövüşmesini biliriz. Babamızın **sancağı** altında dövüştüğümüz gibi...”* Tarjimon yuqoridagi **sancak** so‘zini bayroq deb tarjima qilmasdan uni eskirgan so‘z bilan keltirib o‘tgan: *“Kerak bo‘lsa ukamiz O‘zloqshoh qo‘li ostida oddiy askar sifatida xizmat qilaveramiz. Xuddi otamizning **tug‘i** ostida urushganimiz singari...”* [4, 24].

Tarjima jarayonida qo‘shimchalarga ham ahamiyat beriladi. Romanning turkchasida hozirgi zamon fe‘li qo‘shimchasi tarixiy bo‘lmasa ham o‘zbek tilida bu eski o‘zbek tilidagi qo‘shimchaga aylantirilgan. Bu esa romanning tarixiy bo‘yoqdorligini oshirgan: *“... Memleketе bu kararın hayırlı olmasını diliyorum. Ama **anlayamadım.**”* Tarjiması: *“... Mamlakat uchun bu farmon hayrli bo‘lishini tilayman. Ammo bir narsaga tushunol**mayotirman**”*[4, 24].

Ba’zi joylarda esa oddiy so‘zlar tarixiy so‘zlarga o‘girilgan. Masalan, Muhammad Xorazmshoh nutqida shunday jumla kechadi: *“Huzur yok, fakirlik artıyor, millet homurdanmaya başladı...”*. Bu gapdagi *millet* so‘zi, o‘zbekchaga *raiya* deb tarjima qilingan: *“Huzurhalovat yo‘q, odamlar qashshoqlashdi, raiyat to‘ng‘illashga o‘tdi”* [4,28]. Demak, tarjimon so‘z tanlashda to‘g‘ri yo‘ldan borgan, san‘atning nozik tomonlariga e’tibor qaratib, so‘zma-so‘z tarjimadan qochgan. Bu esa romanning ta’sirchanligi va saviyasiga putur yetkazilishini oldini olgan. Masalan, Jaloliddinning nutqida: *“Cengiz basit çorbalarla karnını doyururken, biz yemek seçeriz...”* gapida *basit çorbalar* (so‘zma-so‘z: oddiy sho‘rvalar) birikmasi *qora yovg‘on* deb tarjima qilingan: *“Chingiz qora yovg‘on ichgan paytda biz ovqat tanlaymiz”*. Ma’lumki, *yovg‘on* sho‘rvada masalliqlar juda kam bo‘ladi, shu sababli oddiy sho‘rva tushuniladi. Bu yerda tarjimon so‘z tanlashda mohirlik qilgan. Romandagi qahramonlar nutqini kuzatar ekanmiz, tarjimada bir turkumga oid so‘z boshqa so‘z turkumiga aylangan holatlar ham uchraydi. Masalan Muhammad Xorazmshohning: *“Onu yıkip bize sadık bir halife bulmalıyız. Yoksa ülkemizin bekası mümkün değildir...”* degan so‘zlarida *ülkemizin bekası* so‘zi quyidagicha tarji-

ma qilingan: “*Nosirni ag‘darib, o‘rniga bizga sodiq bir xalifa qo‘ymog‘imiz kerak. Bo‘lmasa mamlakatimiz tinchimaydi...*” [4, 25]. Romanning aslida ot bo‘lib kelayotgan so‘z tarjimada fe‘lga aylangan. Bunday holatlar tarjimada tez-tez uchrab turadi.

Ba‘zi joylarda eski adabiy so‘zlar o‘zbek tiliga oddiy qilib tarjima qilingan. Masalan Chingizxonning nutqida shunday so‘z uchraydi: “*Danış Şaman, danış ve yıldızların muvafakatini al, yoksa yıldızlara da savaş açacağım...*”. Hozirgi turk tilida *muvafakat* so‘zi izin almak sifatida ishlatiladi va bu so‘z deyarli muomaladan chiqib ketgan. Tarjimon esa ushbu so‘zning ma‘nosinigina tarjima qilgan, eskirgan variantini ishlatmagan: “*Tillash, tillash, shomon, ammo yulduzlardan ruhsat ol. Aks holda yulduzlarga qarshi urush ochaman...*” [4, 92].

Romanda badiiy tasvir vositalari ham qo‘llanilgan bo‘lib, tarjimon ularga ham ahamiyat bergan. Ba‘zi yerlarda romanning asli qanday bo‘lsa, shundayligicha tarjima qilgan: “*Bir memlekette iki Sultan fesat kazanını ateşleyen alevdir Sultanım*”. Tarjimasi: “*Bir mamlakatda ikki sulton bo‘lsa fitna qozoniga o‘t qalanadi*” [4, 27].

Tarjimashunos X.Hamidov o‘zining “O‘zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari” nomli monografiyasida mazkur romandan olingan ayrim parchalar va ularning o‘zbekcha tarjimasini tahlil qilgan. Unda jumladan shunday deyiladi: “So‘nggi yillarda turk tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan asarlarda tarjimonlarning ijodiy ishga qanchalik mas‘uliyat bilan yondashganliklarini ko‘rish mumkin. Masalan, turk adibi Ya. Bahodiro‘g‘lining “Xorazm o‘t ichida” asaridagi *İki kardeşin birlikte devlet idare etmeleri mümkün degildir* [BY,39] (so‘z-ma-so‘z: *Ikki aka-ukaning birgalikda davlatni boshqarishi mumkin emas*) jumlasida muallif maqol ishlatmagan, lekin tarjimada “bir mamlakatda ikki podsho, bir shaharda ikki hokim kelishib, tinch-totuv yashay, ishlay olmaydi” ma‘nosidagi *Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi* [BYo,27] degan mashhur o‘zbek maqoli turkcha jumlaning ma‘nosini to‘la ifodalay olgan. Yoki, *Sultan olanın ağzından söz bir kere çıkar* [BY,27] jumlasini *Sulton degani bitta gapiradi* deb tarjima qilsa ham bo‘lar edi, lekin tarjimon buni *Aytilgan so‘z – otilgan o‘q* [BYo,16] deb maqol orqali o‘girkanki, badiiylik yanada oshgan” [5,112].

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, asar yuqori saviyada tarjima qilingan. Tarjimonning so‘z tanlashdagi mahorati romanning badiiy ta‘sirchanligini yo‘qotmasligiga, balki yana-da samarador bo‘lishiga

zamin yaratgan. Tarjimaning ba'zilar muvaffaqiyatli chiqishi yoki aksariyat qismida kamchiliklar kuzatilishi tarjimonning mohirligiga, ikki tilni qay darajada mukammal egallaganiga bog'liq hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] – Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. –T.: Fan,1980.
[2] – Komilov N. Bu qadimiy san'at. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1998.
[3] – Imomova G. Tipik milliy xarakterlar yaratishda badiiy nutqning o'rni: Filol.fan.nom.diss. –T., 1993.
[4] – Yavuz Bahodiro'g'li. Xorazm o't ichida. "Minhoj" nashriyoti. Toshkent-2002.
[5] – Hamidov X., O'zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. – T., 2014. – 140 b.
[BY] – Bahadıroğlu Yavuz, Buhara Yanıyor, Roman. –İstanbul, 1998.
[BYo] - Баҳодирўғли Ё, Хоразм ўт ичида, роман, туркчадан Б. М. Шариф таржимаси, Жаҳон адабиёти, 2-(3-) сон. –Т.: 2003.
-

Humoyun AVAZMETOV,
ToshDShI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti"
yo'nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: o'qit. S.Sultanxodjayeva

FORS TILIDAN HIKOYALAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI

"San'at koshonasining shinam va go'zalligi bino chizmasining qanchalik puxta va aniqligiga, bezaklarning bejirimligiga, me'morning mahorati va quruvchilarning mehnatiga bog'liq. Ammo bunda bino-ning qanday materiallardan qurilganligi, qurilish materialining sifati ham katta ahamiyatga ega. Badiiy tarjimada esa asosiy "qurilish material", tarjimaning birinchi va eng zarur elementi bo'lgan so'zning o'rni beqiyosdir. Bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning hamma muammolari – badiiylik hosil qilish, uslub yaratish, milliy koloritni aks ettirish so'z muammosi bilan chambarchas bog'liqdir.

Bas, shunday ekan, badiiy tarjima sohasida yaratilgan xoh katta yo xoh kichik hajimdagi har qanday nazariy ish birinchi galda so'zni tahlil qilishga bag'ishlanadi" [1,3].

Hikoya – badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Yevropa adabiyotida hikoyachilikning rivojlanishiga italyan yozuvchisi Bokachcho "Dekameron" asari bilan katta hissa qoʻshgan. Asarda yetti qiz va uch yigitning oʻn kun davomida aytgan yuz ta hikoyasi berilgan. Gi de Mopassan (fransuz), O.Genri (ingliz), A.P.Chexov (rus), A.Qodiriy, Choʻlpon (oʻzbek) hikoya janrining asoschilari hisoblanadi. Yevropa adabiyotida hikoya novella deb ham ataladi.

Oʻzbek adabiyotida hikoya juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar – Kultegin va Toʻnyuquq bitiktoshlarida bayon qilingan voqealar ishtirok etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Nosiriddin Rabgʻuziyning "Qisasi Rabgʻuziy" asarida ham axloqiy xarakterdagi hikoyaning yaxshi namunalari bor. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining 5-maqolotidagi "Hotami Toy hikoyati", 20-maqolatidagi "U qul hikoyati", "Sabʼai sayyor" dostonidagi yetti musofir hikoyalari ham bu janrning ilk namunalari hisoblanadi. 16-asrda yaratilgan Poshshoxojaning "Gulzor" va "Miftoh ul-adl" asarlari oʻzbek hikoyachiligining rivojlanishiga asos boʻlgan.

Oʻzbek adabiyotida realistik hikoya janri 20-asr boshlarida shakllandi (Choʻlpon, "Qurboni jaholat", "Doʻxtur Muhammadyor (1914); A.Qodiriy, "Uloqda" (1915) va boshqalar. 20-yillarda Gʻ.Gʻulom, A.Qahhor, Oydin va boshqalar bu janrda barakali ijod qildilar. 30-yillarda A.Qahhor hikoya ustasi sifatida tanildi. 50-60-yillarda S.Ahmad, 60-70-yillarda Oʻ.Hoshimov, Sh.Xolmirzayevlar bu janr taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshdilar.

"Hikoya" atamasi kengroq maʼnoda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. Soʻzlab berilgan bunday voqelik oʻz qamrovi, hajmi, rang-barangligi bilan qissa yoki romanga xos boʻlishi ham mumkin. Bunday hollarda bu atama janr maʼnosida tushunilmaydi. Masalan, Oʻ.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani toʻqqiz personajning qirq toʻqqizta hikoyasidan tashkil topgan. Sh.Xolmirzayev "Olaboʻji" asarini "romandan katta hikoya" deb ataydi. Hozirgi oʻzbek hikoyachiligi O.Muxtor, N.Aminov, S.Siyoyev, F.Musajonov, X.Sultonov, E.Aʼzamov, N.Eshonqulov, Sh.Boʻtayev va boshqa yozuvchilar bilan boyidi.

Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani loʻnda ifodalashga moʻljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima boʻlgan, qanday roʻy bergan, kim bilan – bular toʻgʻrisida maʼlumot berish shart emas. Juda zarur boʻlsa, ayrim detallar orqali ishora qilini-

shi mumkin. Masalan, A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida Qobil boboning kechagi kuni haqida lom-mim deyilmaydi. Egamberdi paxta-furushdan kichkina shart evaziga ikkita ho'kiz olgan Qobil boboning ertasi to'g'risida "Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi", deb xabar beradi, xolos. G'.G'ulom esa "Mening o'g'rigina bolam" Hikoyasidagi o'g'ri-ning kechagi kunini lo'nda detallar orqali to'ldiradi. Uydan biron narsa olmay chiqib ketgan yigitning ertangi kuni haqida hech qanday ma'lumot bermaydi.

Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo'li, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo'lib qolishi mumkin. Biroq har qanday ko'rinishda ham tasvir siqiq tarzda beriladi.

Fors tilida hikoya tushunchasi oxiri ibrat bilan tugaydigan, qahramonlari yo hayvonlar, yo insonlardan iborat bo'lgan, biror shaxs tomonidan hikoya qilinadigan janr tushuniladi.

Hikoyalarni tarjima qilish jarayonida har bir tilning o'z milliy xususiyatlariga ega bo'lgani kabi tarjimon ham uni o'z tilidan kelib chiqqan holda tarjima qiladi. Tarjima shunday tarjima bo'lishi kerakki, uni o'qigan kitobxon go'yo o'z tilida yozilgan asarni o'qiyotganday bo'lishi kerak. Shunday ekan, har bir tarjimon o'zining tarjima uslubi-dan kelib chiqqan holda, o'z tiliga moslab tarjima qiladi. Bunday holatlarni tarjima tiliga moslab yuborilishi, frazeologiyalarni tarjima tilidagi frazeologiyalarga o'zgartirilishi, so'zlarni boshqa bir shu ma'noni anglatuvchi so'zlar bilan ifodalanishi va shu kabi boshqa so'zlarning tarjima tiliga moslashtirilishida ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda taniqli Eron yozuvchisi Sodiq Hidoyatning "Obji xonim" nomli hikoyasining o'zbek tiliga tarjimasini qay darajada tarjima qilinganligi va uning o'ziga xos uslubiyat orqali tarjima qilinganligini ko'rib o'tishimiz mumkin.

Hikoyani o'qishni boshlar ekanmiz, uning boshidanoq quyidagi jumlani ko'rishimiz mumkin:

"آبجی خانم خواہر بزرگ ماہرخ بود، ولی ہر کس کہ سابقہ نہ داشت و آنہا را می دید

ممکن نبود باور بکند کہ با ہم خواہر ہستند. " [4.1]

"Objixonim Mohruhning opasi edi. Ammo bir ko'rishda tanimag-an-bilmagan odam bunga asti ishonmasdi. Ular umuman bir-biriga o'xshamasdi."

Bu yerda tarjimon Rustam Jabborov yuqoridagi jumlaning tarjimasini o'zining uslubida, ya'ni yuqoridagi tarjima orqali ifodalaydi. Ushbu jumlaning tahlil qiladigan bo'lsak, "Bir ko'rishda tanimagan-bilmagan odam bunga asti ishonmasdi" – degan qismiga e'tiborimizni qarataylik. Forscha jumlada esa "bir ko'rishda" degan so'zning o'zi yo'q. Biroq tarjimon "bir ko'rishda", deb tarjima qilgan. Bu o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, tarjimon tarjimaga erkin yondashadi. Shu bilan birga badiiy bo'yoqdorlikni o'zining ijodiy uslubiyatidan kelib chiqqan holda oshirishga ham harakat qiladi.

Shu bilan birga, yuqorida fors tilidagi "هر کس که سابقه نداشت" jumlasini "ularning o'tmishidan xabardor bo'lmagan ham" deb tarjima qilsa ham bo'lar edi. Shu bilan birga "می دید ممکن نبود باور بکند که با هم" ushbu jumlaning "ularni ko'rgan, ularning opa-singilligiga ishonmas edi" deb tarjima qilsa ham bo'lardi. Biroq tarjimon o'zining uslubidan kelib chiqqan holda sodda, tushunarli va aniq qilib tarjima qilib qo'ya qolgan: "Ammo, bir ko'rishda tanimagan-bilmagan odam bunga ishonmasdi. Ular umuman bir-biriga o'xshamasdi.[2.1]

Bu, albatta, har bir tarjimonning o'z tarjima uslubiga bog'liq bo'lib, o'ziga yoqqan va o'zi ma'qul ko'rgan tarzda tarjima qiladi va kitobxonlarga havola etadi. Ushbu misolda ham tarjimonning qay darajada o'zbek tiliga yaqin tarjima qilganligini ko'rishimiz mumkin: "آبجی خانم بلند بالا، لاغر، گندمگون، لب های کلفت، موهای مشکی داشت و روی هم رفته زشت بود." [4.1]

Ushbu jumlaning o'qib, o'zbekcha tarjimasi bilan qiyoslar ekanmiz, ushbu jumladagi "qalin labli" so'z brikmasining tashlab ketilganligi va "ko'rimsiz" jumlasini orqali ifodalab yuborilganligini ko'rishimiz mumkin. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, tarjimon tarjimaga bevosita fors ijodiyoti tomonidan yondashadi. Ya'ni o'zbek ijodiyotida "ozg'in, uzun bo'yli, qorasoch qiz" deganda xushbichim, chiroyli va kelishgan qiz ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Biroq Eron ijodiyotida bunday sifatga ega bo'lgan qizlar go'zallikning aksini ifodalay ekan. Shunday ekan, tarjimon ushbu ma'lumot haqida havola tarzida berib o'tsa, maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Bundan tashqari,

"Objixonim baland bo'yli, ozg'in, qorachadan kelgan, qalin labli, qorasoch – xullas, xunuk edi." deb tarjima qilsa ham bo'lar edi. Biroq tarjimonning o'z uslubini bo'lib, u quyidagicha tarjimini ma'qul ko'rgan: "Objixonim ozg'in, uzun bo'yli, bug'doyrang, qorasoch qiz bo'lsa-da, ko'rimsizligi bois unchalik e'tiborni tortmasdi."[2.1]

Bu yerda “روی هم رفته” soʻz brikmasini tarjimon mahoratidan kelib chiqqan holda turlicha tarjima qilish mumkin. Masalan: “xullas”, “ustiga ustak”, “bir soʻz bilan aytganda” tarzda tarjima qilsa ham boʻlar edi. Lekin Rustam Jabborov oʻzining uslubidan kelib chiqqan holda “koʻrimsizligi bois unchalik eʼtiborni tortmasdi” deya tarjima qiladi.

Har bir tarjimani oʻqib, uni kuzatar ekanmiz, ularning har bir jumlasida turlicha soʻzlar va soʻz brikmalarining oʻziga xos tarzda, taʼkidlash joiz boʻlsa “silliq yutiladigan” tarzda soʻzlar orqali jumlar chiroyli tarjima qilingan boʻladi. Bunga misol tarzida yana bir jumlani koʻrib oʻtishimiz mumkin:

“در صورتی که ماهرخ کوتاه، سفید، بینی کوچک، موهای خرمایی و چشمهایش

گیرنده بود و هر وقت می خندید روی لب های او چال می افتاد” [2.1]

“Mohruh past boʻyli, oq yuzli, qoʻngʻirsoch, kulganida lablari yonida kulgichlar oʻynar, istarasi issiq qiz edi.”

Ushbu jumlada ham tarjimonning baʼzi bir soʻzlarni qoldirilgan holda boshqa bir jumlada ifodalab ketganini kuzatishimiz mumkin. Yuqoridagi forscha jumlani oʻqir ekanmiz, unda Mohruhning “past boʻyi, oq yuzi, qoʻngʻir sochi va kulgichlari” dan tashqari, Mohruhning “kichkina burni va quralay koʻzlari” haqida ham soʻz boradi. Biroq tarjimon oʻzining uslubidan kelib chiqqan holdami yoki bilvosita tarjima qilgani uchunmi, uning burni va koʻzlarini tarjimada bermaydi va istarasi issiq qiz edi”, deb tarjima qiladi.

Hikoyani oʻqish davomida tarjimonning uslubiy jihatdan va ijodiy jihatdan oʻz maqsadini amalga oshira olgan deyish mumkin. Chunki tarjimon R.Jabborov asliyadagi fors hikoyasida aytib oʻtilgan joy nomiga izoh berib oʻtadi va shu bilan birga kitobxonlarga qoʻshimcha maʼlumot ham berib oʻtgan deb bimalol ayta olamiz. Buning misolini quyidagi jumlada koʻrib oʻtishimiz mumkin: “حالا همه آرزویش این بود که [4.2] هر طوری شده یک سفر به کربلا برود و در آنجا مجاور بشود.”

Yuqoridagi koʻrgan misolimizda, Iroqdagi Karbalo shahri haqida aytib oʻtilgan. Tarjimon R.Jabborov esa Karbaloga nima uchun bormoqchiligini ham izohlab, tushuncha berib oʻtadi: “uning birdan-bir istagi Karbalo (Iroqdagi dasht nomi – tarj) ziyoratiga borish, Hazrati Imomi Husaynning shahid qoni toʻkilgan joylarni tavof qilish edi” [2.3].

Yuqoridagi jumlaning tarjimasida berilgan maʼlumotni albatta bormagan yoki biror joydan oʻqib olmagan odam bilmaydi. Lekin tarjimon bunga aniqlik kiritib oʻtadi va Karbalo qayerda, u qanday joyligini toʻliq va aniq qilib oʻz tarjimasida beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarjima shunchaki qilinadigan ish emas. Tarjimani amalga oshirish jarayonida tarjimon, yozuvchi nima demoqchiligini anglagan holda tarjima qilishi kerak. Ya’ni tarjimonning o‘zi tushunmay, yozuvchining tasavvuridagi obrazlar, tasvirlarni chiqarolmas ekan, o‘quvchi uni ummuman tushunmagan holda va hech bir qiziqishsiz o‘qiydi. Shuning uchun ham tarjima tarjimondan bir vaqtning o‘zida ham mahorat, ham mashaqqat talab etadi va albatta tarjimon shunga tayyor bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] – Salomov G‘, Til va tarjima, 1966-y. 3, 167, 168, 170-bet
[2]- Hidoyat Sodiq, Obji xonim, fors tilidan Rustam Jabborov tarjimasi, 01.11.2013-y. 1-2-3-bet
[3] -دکتر حسن انوری، «فرهنگ بزرگ سخن»، تهران- 1381-1382 ص-187
[4] - صادق هدایت - تهران - 30 شهریور 1309 ص-1-2

Barno SHERMATOVA,
*ToshDSHI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
yo ‘nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. Xayrulla Hamidov*

O‘ZBEKCHA REALIYALARNING KOREYSCHA TARJIMADA BERILISHI MASALASI

Tarjima jarayonida tug‘iladigan eng muhim qiyinchiliklardan biri – original asarning milliy o‘ziga xos bo‘lgan so‘z va tushunchalar ya’ni realiyalarni boshqa tilga ko‘chirishdir. “Asarning milliy o‘zgachaligini namoyon etuvchi xos so‘z (realiya)lar va ularning badiiy tarjimada berilishi tarjimashunoslikning muhim masalalaridan hisoblanadi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq hech bir tadqiqot mavzusi xos so‘zlarning tarjimada berilishi muammosini chetlab o‘tmagan” [1,226].

Bir xalqqa xos bo‘lgan narsa, tushuncha yoki hodisani ifodalaydigan so‘zlar asarda tasvirlayotgan personajlarning moddiy-ma’naviy hayotini haqqoniy, milliy shaklda bayon qilish imkoniyatini beradi. Boshqacha aytganda, bu so‘zlar badiiy asarning tarixiy va milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bunday so‘zlarni

tarjimada aynan o‘zidek talqin qilish asl nusxa milliy xususiyatini o‘ziga tilda qayta tiklashdek murakkab hisoblanadi. Chunki bunday hollarda tarjimon oldida o‘z xalqi uchun notanish, binobarin, nomlari ham tilida mavjud bo‘lmagan narsa, tushuncha va hodisalarni kitobxonga to‘la-to‘kis yetkazib berish vazifasi turadi.

“Milliylik u yoki bu millatning ma’naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xoslikdir. Badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig‘indisi adabiyotshunoslikda milliy kolorit deb ataladi. Milliy kolorit bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamalar realiyalar boshqacha qilib aytganda milliy xos so‘zlar deyiladi. Realiza lotincha so‘z bo‘lib, buyumga, narsaga oid degan ma’noni bildiradi. Realizmalar asar tilining ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi”[2,92].

Milliy xos so‘zlarning tarjimada berish muammosi hali ham dolzarb mavzu bo‘lib kelmoqda. Har bir tarjimon har bir asarni tarjima qilish jarayonida o‘zi tushungan va o‘ziga qulay usul orqali tarjima qiladi. O‘zbek adabiyoti namoyondasi, hikoyanavis Abdulla Qahhorning asarlarini tarjima qilish jarayonida ham bir qancha milliy o‘ziga xos so‘zlarni turli xil usul orqali tarjima qilingan.

Abdulla Qahhor hikoyalarini koreys tiliga o‘girish jarayonida milliy xos so‘zlarni turli xil yo‘l orqali tarjima qilingan. “Boshsiz odam” hikoyasida uchragan milliy xos so‘zlarning tarjimasini tahlil qilamiz.

“Niso buvi eri o‘lib, ikkita yosh qizi bilan qoldi. Ikki-uch kishi *sovchi* qo‘yganda, u ikki bola bilan tinch turmush qila olishini ko‘z oldiga keltirolmay, rozilik bermagan edi.”[3,14].

소녀는 두 딸과 함께 남은 두 딸을 돌보며 살아가는 중

Ushbu matnda milliy xos so‘z “sovchi” so‘zi ishlatilgan. O‘zbek urf-odatiga ko‘ra sovchi orqali turmush quriladi. Qadimda koreys xalqida ham sovchi orqali turmush qurish urf-odati bo‘lgan. Shuning uchun “sovchi” so‘zini “**정리**” bilan berilgan. Koreyscha-ruscha lug‘atga murojaat qilganimizda “**정리** **svatovstvo** (xotinlikka yoki er bo‘lishga) rozilik so‘rash; sovchi qo‘yish yoki sovchi bo‘lish; sovchi qo‘yib (yoki sovchi bo‘lib) xotin yoki er bo‘lishini so‘rash, sovchilik qilish; unashtirish. “**정리**” ot yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, “**정리**” “turmush qurishga roziligini so‘rab kelgan elchi” ma’nosini beradi.

“Niso buvi pichoq borib suyakka tekkandan keyin qizlarini *internat*ga berishni ham o‘yladi. Ammo bu ishda ham er bilan maslahatsiz bir ish qilishga qo‘rqdi.”[3,14].

가시타를 붙여 보자. 이혼한 후의 삶

Bu gapda “internat” so‘zi ishlatilgan. Bu so‘zni koreys tiliga o‘girilganda mazmuni tarjima qilingan. Bir so‘zning o‘rniga uchta so‘zdan foydalanilgan. “Internat” so‘zi izohli lug‘atda quyidagicha izoh berilgan:

Internat – 1. O‘quv yurti qoshidagi o‘quvchilar yotog‘i. *Shahar chekkasiga yangi tipovoy maktab, uning yoniga qurilgan shahar pionerlar uyi, yotoq-internat binolarining qizg‘ish g‘ishtlari kun tig‘ida jimirlaydi.* Sh.G‘ulomov, Yorqin yo‘llar; 2. O‘quvchilarni davlat tomonidan ovqat va kiyim-kechak bilan ta‘minlanadigan o‘quv yurti. *Internatga berildi Yetim qiz Qumri. O‘tdi uning shu yerda Uch-to‘rt yil umri.* G‘ayraty.[4,330].

Izohli lug‘atda keltirilganidek, tarjimada ham “가시타 있는 학교” “yotoqxonasi bor maktab” deb tarjima qilingan. Bu yerda havola ostiga olib bersa ham bo‘lardi, lekin shunday berilgani yaxshi chiqqan.

“Usta Abdurahmon qizlarni ko‘p uradi. Bir kuni Niso buvi: “Ur-sangiz o‘sha do‘koningizga olib borib uring”, deganida usta “Ha, joning achiydimi? Bundan keyin men urayotganimda kulib turmasang, *uch taloqsan!*” deb yubordi.”[3,14].

이혼한 후의 삶. 가시타 있는 학교

가시타 있는 학교. 가시타 있는 학교

가시타 있는 학교

가시타 있는 학교. 가시타 있는 학교

Bu yerda “uch taloqsan” so‘zi ishlatilgan. Bu so‘z o‘zbek milliy xos so‘z bo‘lib, diniy tomondan ajrashish degan ma‘noni bildiradi. Ya‘ni taloq – nikohni buzish, bekor qilish haqidagi er tomonidan aytiladigan so‘z. **Uch taloq** uch marta taloq (bu holda shariat qoidasiga ko‘ra, xotin to boshqa erga nikohlanib yana ajrashmaguncha o‘z eri bilan yashuvi mumkin emas). [4,112].

Bu tushuncha koreys xalqida bo‘lmagani uchun uni boshqa so‘z bilan almashtirib tarjima qilingan. “이혼증서” ya‘ni “ajrimga duchor bo‘lasan”.

Bu yerda analogiya usuli orqali tarjima qilingan. To'g'ri ba'zida analogiya usuli uning aynan ma'nosini bermasa-da mazmunan to'g'ri keladi.

“*Tumorlar, qaytarma suvlari* Niso buviga faqatgina tasalligina berdi, xolos”[3,15].

☆

Bu yerda “tumorlar, qaytarma suvlari” so'zi kelgan. Bu yerda bu tushuncha irim-sirimni ifodalagani uchun koreys tiliga ham shu mazmuni tarjima qilingan. “~~이름~~” so'zini lug'atga qarasak, irim deb bergan, “~~이름~~” bo'lsa irim atrofida aylanmoq, ichida suzmoq deb tarjima qilish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, “tumorlar, qaytarma suvlar” so'zi so'zma so'z emas, aynan mazmuni tarjima qilingani maqsadga muvofiqdir. Koreys xalqida ham shunday irim-sirim qiladigan, unga ishonadigan insonlar ko'p. Shuning uchun “irim” tushunchasi ularda ham bo'lgani uchun shu tushuncha bilan berilgan.

“Chorshanba bozor kuni edi. Usta Abdurahmon Faxriddinga *ikki so'mlik pul* berdi.”[3,16].

☆

Bu yerda o'z-o'zidan pul birliklari transliteratsiya orqali tarjima qilinadi.

“Transliteratsiya qo'llanilishi tarjima tilida realiyalarga to'g'ri ekvivalentlarning yo'qligi bilan sharhlanadi. Bu hol, birinchidan, ikki xalqning taraqqiyot yo'llari va hayotining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari turlicha bo'lganligi, ikkinchidan, realiyalarning ko'p ishlatilishi tarjima tili ularni hazm qila olmasligi va o'quvchi uchun realiyalar ajib tushunmovchiliklar keltirishi bilan tushuniladi” [6, 159].

Transliteratsiya orqali tarjima berilganda havola berish ham mumkin. Bu tarjimada pul so'zi ishlatilgani uchun havola berib o'tilmagan. Lekin havola berib o'tilsa ham bo'lardi.

“Faxriddin bozordan, otasi tayinlaganicha, *ikkita shirmoy non, yarim qadoq* pista oldi.”[3,16].

☆

Bu yerda milliy xos so'z sifatida shirmoy non va yarim qadoq pista so'zlari kelgan. Koreys tiliga tarjima qilinganda mazmunan biroz to'g'ri tarjima qilingan bo'lsada, izohli lug'atga murojaat qilganimizda buning aksini ko'rishimiz mumkin. Shirmoy non so'zini oladigan bo'l-

[3] – Kim Hyon Yong, Shermatova B. Abdulla Qahhor hikoyalari **Ўзбек тили** Istiqlol. –Toshkent: 2015.

[4] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдлик. / С.Ф Ақобиров, Т.А. Алиқулов, З.М., Маъруфов ва бошқ. М. Маъруфов таҳрири остида – М.: Рус тили нашриёти, 1981.

[5] – **Ўзбек тили**

[6] – Hamroyev H. Milliy xos soʻzlar – realiyalar va badiiy tarjima // Tarjima madaniyati (Maqolalar toʻplami). – Toshkent, 1982.

Feruza ROʻZIYEVA,
*ToshDSHI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
yoʻnalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. Xayrulla Hamidov*

ASLIYATDAGI OʻXSHATISH, MAʼNO KOʻCHISHLARI VA TURLI BADIY SANʼATLARNING TARJIMADA BERILISHI

Muayyan hayajonli holat turli tillarda turlicha oʻziga xos ifoda vosita va usullarga ega boʻlib, ular bir-birlaridan aksariyat hollarda sezilarli darajada farq qilishlari tufayli tarjimon oʻz eʼtiborini mazkur vosita va usullarni oʻz tilida moddiy tiklashga harakat qilishdan koʻra ular vositasida ifoda etiladigan fikrni, joziba va taʼsirchanlikni zaruriy yoʻnalishda qayta yaratishga qaratmogʻi lozim [1, 151].

Bunday unsurlar qatorida badiiy sanʼatlarni koʻrishimiz mumkin. Koreys tilidagi sheʼriy sanʼatlar oʻzbek tilidagi sheʼriy sanʼatlarga yaqin turgani sababli ularni solishtirishda qiyinchilik deyarli yuzaga kelmaydi. Shu sababli koreys sheʼrlarini tarjima qilish jarayonida turlicha oʻzbek sheʼriy sanʼatlaridan foydalanish imkoniyatiga egamiz. Ushbu maqolada biz koreys tilidagi metafora, sinekdoxa, jonlantirish, antiteza kabi sheʼriy sanʼatlarning tarjimada berilishi masalalarini koʻrib chiqdik.

Metafora koreys tilida **유비** deb ataladi. Kim Yong Rangning “Pionlar gullaguncha” sheʼrida bunday koʻchimni kuzatishimiz mumkin. Bu sheʼrning asosiy mavzusi "baxtni kutish" haqida. Unda baxt “나의봄”, yaʼni “mening bahorim” deb tasvirlangan. Bu oʻxshatish oʻzbek xalqi uchun juda mos va tushunarlidir. Chunki bahor fasli eng

go‘zal fasl, u inson hayotining eng go‘zal davriga, ya’ni o‘z baxtiga erishgan davriga qiyoslanadi. Chon Sang Pyongning “Qaytish” she’rida “이 세상 소풍” ya’ni “bu dunyo sayohati” degan jummalarni uchratishimiz mumkin. Bu jumla o‘zbek tilidagiga o‘xshab “umr” degan ma’noni anglatadi.

“She’riy asar tarjimasiga kirishayotgan har bir mutarjim oldida asliyatning fonetik xususiyatlari, leksik resurslari, nutqiy atfenkalari, umumiy ritmik unsurlari va grammatik kategoriyalari qatorida she’riy asar uslubiga xos xususiyatlarni ham saqlab qolishdek muhim vazifa turadi. Biroq bularning barchasi to‘laligicha tarjimada ta‘minlab berish ko‘pchilik hollarda badiiy tarjimaning tabiatiga xos bo‘lmagan natijani berishi ham mumkin. Shu bois she’riy asarning badiiy mukammal interpretatsiyada mutarjim tomonidan yuqorida sanab o‘tilgan unsurlarning eng muhim, eng asosiy va eng maqbulini ajratib olish zarur [2, 50-151] ”.

Sinekdoxa koreys tilida “~~가~~ badiiy adabiyotda undan keng foydalaniladi. Xvang Ji Vuning “Seni kutar onimda” she’rining ilk satrlarini tahlil qiladigan bo‘lsak sinekdoxaning yaqqol misolini ko‘rishimiz mumkin:

Asliyat: ~~가~~
~~가~~
~~가~~


Tarjima: Sen kel deb aytgan joyingga
 Erta kelib seni kutar onimda
 Yaqinlashgan har bir bargning shiviri.

Taglama: Sen kel deb aytgan o‘sha yeringga
 Men oldindan o‘sha seni kutadigan vaqtimda
 Yaqinlashib kelayotgan hamma oyoq izi:

Ko‘rinib turibdiki, asl tarjimada ayrim jumlar boshqasi bilan almashtirilgani bois sinekdoxa san’ati ko‘rsatib berilmagan. Ya’ni “oyoq izi” jumlasini “bargning shiviri” jumlasiga aylantirilgan. “Oyoq izi” she’rida o‘tkinchi odamlar, yo‘lovchilarni ifodalagan. Tarjimada “bargning shiviri” deyish bilan sinekdoxa san’ati mahorat bilan metafora san’atiga aylantirilgan desak, xato bo‘lmaydi.

Jonlantirish koreys tilida - ~~인~~ Bu tasvirning ikki xil ko‘rinishi mavjud:

Birinchisi, *tashxis* jonsiz narsalarni jonlantirish usulidir. Masalan, badiiy asarda quyosh yuguradi, daryo shoshadi, samo ko‘z yosh to‘kadi, harsang bardosh va sabr ko‘rsatadi, gul kuladi, bulutlar xo‘mrayib, qovoq osadi, yig‘laydi, tun uxlaydi, oy yuradi, yulduzlar guvohlikka o‘tadi, qashshoqlik kuladi. Bunday jonlantirishni koreys she’riyatida ham juda xilma-xil tarzda kuzatish mumkin. Masalan, Chon Sang Pyongning “Qaytish” she’rida bunday jonlantirishni ko‘plab uchratish mumkin:

Asliyat: 

Tarjima: Men osmonlarga qaytaman,
Tong nurlarida g‘oyib bo‘luvchi
Shabnam bilan birga, yonma-yon.

Taglama: Men osmonga qaytaman
Tong nurlariga kelib tegsang g‘oyib bo‘ladigan
Shudring bilan yonma-yon qo‘l ushlab

Ko‘rinib turibdiki, asliyat va tarjima o‘rtasida bir muncha farq bor. She’ning uchinchi satrida harfxo‘rlikka yo‘l qo‘yilgan. She’rdagi “qo‘l ushlab” jumlasidan voz kechilgan. Bu esa jonlantirish san’atining yo‘qolishiga sabab bo‘lgan.

Ikkinchisi, intoq nutqi yo‘q narsa va predmetlarni nutq egasi sifatida jonlantirish usulidir. Che Nam Sonning “O‘spiringa dengizdan...” she’ri bu san’atning ajoyib na’munasidir. Chunki butun she’r “Dengiz” nutqidan iborat:

Tarjima: Psh-sh, sha-a...

“Uraman, parchalayman, chiqsa qarshimdan,


Tog‘ bormi, cho‘lmi, qilaman vayron!”

Bu nima ekan? Qanaqa zarra?

Ayonmasmi sizga, nimaga qodirligim?” – do‘q urar dengiz,

“Uraman, parchalayman, ne chiqsa qarshimdan...”

Antiteza koreys tilida -  Bu san’atni koreys she’rlarida ham uchratish mumkin. Misol uchun Kim Sovolning “Sevgi sukunati” she’rida:

Asliyat: 

Tarjima: Hijrondan cho‘chidim, duch kelib ishqqa,
Ammo ayriliqqa emasdim tayyor,

Taglama: Sevgi ham insonning ishi uchrashganda oldindan
ajralishdan qo‘rqib

Qo‘riqlagan bo‘lsa-da, ayriliq to‘satdan yuz berib...

Tarjima asliyat mazmuniga yaqin qilib amalga oshirilgan bo‘lsa-da, shaklan o‘zligini yo‘qotgan. Ayrim jumlar tushirib qoldirilganligi sababli she’rning ta’sirchanligi bir muncha pasaygan. Bundan tashqari, she’riy san’atlar ham yo‘qolib ketish holatlari uchraydi. Birinchi satrda berilgan “ fe’lining “uchrashmoq va birlashmoq” ma’nolari, “ fe’lining esa “tark etmoq va ajralmoq” kabi ma’nolari mavjud. She’rning mazmuniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “ fe’lining “birlashmoq”, “ fe’lining “ajralmoq” ma’nolarini olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Kim Sovolning “sevgi sukunati” she’rida antiteza san’ati qo‘llangan. Bu san’at “birlashmoq” va “ajralmoq” fe’llari orqali ifodalangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, she’riy asar turlicha tarkibiy unsurlardan iborat. Bu unsurlarning hammasini tarjimada berib bo‘lmaydi. Tarjimon ularning nari borsa ikkitasidan foydalana oladi. Uning qaysi biridan foydalanishi esa tarjimonning mahoratini ko‘rsatib beradi. Lekin shuni ta’kidlab o‘tish joizki, tarjimon oldida turgan eng asosiy masala bu – she’rning asl ma’nosini o‘quvchiga yetkaza olish. Shunday vaziyatlar bo‘ladiki, she’rning mazmuni yetkazib berilgani holda uning dolzarbligi, ta’sirchanligi ikkinchi darajaga tushib qoladi. Bunday vaziyatlarni oldini olish uchun esa, badiiy san’atlar tarjimasiga e’tibor bilan yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] – Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005.
[2] – М.Рылский. Искусство перевода. Статьи, заметки, письма. -М., 1986.
-

Madinabonu YUSUFJONOVA,
ToshDSHI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti"
yo 'nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Sh.Usmanova

KOREYS TILIDA HURMAT KATEGORIYASI VA UNING TARJIMADA BERILISHI

Koreys xalqida hurmat-ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilgan. Kimdir tomonidan aytilgan so'z suhbatdoshlarning o'zaro munosabatlarini belgilagan. O'zaro munosabatlarda gap subyekti (egasi)ning hurmatini oshirish yoki tushirish, tomonlarning hurmatini oshirish yoki tushirish usullari mavjud. Koreys tilida bunday usullar ma'lum nutq vositalari yordamida yuzaga keladi. Gap egasining hurmatini oshirish fe'l asosiga **존** suffiksi ya'ni so'z o'zagi va tugallanma orasiga qo'yiladigan qo'shimcha va ma'lum bir so'zlar yordamida amalga oshiriladi. Bu qo'shimcha egali hurmat kategoriyasi deb ataladi. Ma'lum qo'shimchalar orqali qarama-qarshi tarafga ifodalanadigan hurmat shakli nisbiy hurmat kategoriyasi deyiladi. Shunday vaziyatlar bo'ladiki, suhbatdoshni hurmatini oshirish uchun o'zida hurmat ma'nosini ifodalaydigan maxsus so'zlar ham ishlatiladi.

Subyektli hurmat kategoriyasi **주어** Gap egasining yoshi katta yoki siyosiy mavqei so'zlovchidan baland bo'lsa yoki ular so'zlovchi bilan yaqin aloqada bo'lmasalar so'zlovchi **어** suffiksi, ya'ni so'z o'zagi bilan tugallanma o'rtasidagi qo'shimchani fe'l asosiga qo'shish orqali o'z hurmatini ifodalaydi. Bu faqatgina gap subyekti II-shaxs bo'lgandagina qo'llaniladi. Lekin so'zlovchining o'zi subyekt bo'lganida bu qo'llanilmaydi. Hurmat kategoriyasi so'zlashuvchilar, ya'ni gap egasi va tinglovchi o'rtasidagi aloqaga qarab turli darajalarga ajraladi. Suffiks ya'ni oraliq qo'shimcha **-즈** o'zbek tilidagi -lar hurmat qo'shimchasiga mos keladi va quyidagicha tarjima qilinadi: **지금에 일을 하고 있다** (Amakim hozir ishlaydilar). **저는 아들입니다** (Ular o'qituvchi Son). **할머니는 음악을 좋아합니다** (Bobom kitob o'qiyaptilar). **이제는 음악을 좋아합니다** (Onam musiqa eshityaptilar).

-스 qo'shimchasi qo'llanilmaydigan holatlar:

a) tinglovchi gap egasidan ko‘ra darajasi yuqori bo‘lsa; b) gap egasining yoshi so‘zlovchiga qaraganda katta bo‘lsa; d) gap qurilishi “tinglovchi/gap egasi/so‘zlovchi ” bo‘lsa. Biroq tarjimada esa –lar qo‘shimchasi aks etishi kerak. Misollar: **할아버지 전화하셨습니다** (Bobo, otam telefon qildlari). **아이들은 한국에서 왔습니다** (Oyi, akam Koreyadan xat yubordilar).

b) Agar subyekt yuqori hurmatli shaxs bo‘lsa, yangiliklarda, xabarlarida, rasmiy murojaatlarda “-씨” qo‘shimchasi qo‘shilmaydi. Misollar: **우선 대통령령에 따라** (O‘zbekiston Prezidenti Koreyaga kelishi rejalashtirildi). **세종은 1443년** **조선왕조실록** (Qirol sejong 1443-yilda koreys alifbosini yaratdi [1]).

Koreys tilida hurmatni ifodalovchi alohida so‘zlar ham mavjud. Bular: **다루다** (orom olmoq). **주관하다** (olamdan o‘tmoq). **있다** (bor bo‘lmoq). **만들다** (tanavvul qilmoq). **문명하다** (so‘ramoq).

Ularni tarjimada III-shaxs uchun –lar va II-shaxs uchun -ing, -ingiz qo‘shimchasini fe‘lga qo‘shish orqali berishimiz mumkin. Misollar: **지금 바로 주무신다** (Hozir bobom uxlayaptilar). **할아버지 돌아가셨습니다** (Buvim o‘tgan yidan oldingi yili vafot etdilar). **성서에는 지금 계시다** (O‘qituvchi hozir uylaridalar).

Nisbiy hurmat kategoriyasi **상대방** So‘zlovchi tinglovchini ustun qo‘yishi nisbiy hurmat kategoriyasi deb ataladi. Hurmat kategoriyasi so‘zlovchining yoshiga qarab belgilanadi. Bundan tashqari tinglovchilar holati va ular bilan munosabatlar ham hurmat shakli orqali ifodalanadi.

Rasmiy hurmat usuli **격조** Hurmatning rasmiy shakli so‘zlovchi va tinglovchi munosabatlari bevosita ish bilan bog‘liq bo‘lganda marosim nutqlari va rasmiy vaziyatlarda ishlatiladi. Yuqori hurmat kategoriyasi so‘zlovchining tinglovchiga yuqori hurmatini ifodalaydi va bu uslub rasmiy suhbat va rasmiy vaziyatlar uchun mo‘ljallangan. So‘zlovchi va tinglovchi birinchi marta uchrashgan vaziyatlarda ularning ijtimoiy mavqei baland yoki pastligidan qat’iy nazar yuqori rasmiy hurmat usulidan foydalanilishi mumkin. O‘rtacha hurmat shakli so‘zlovchining ijtimoiy mavqei yoki yoshi tinglovchiga nisbatan katta bo‘lsa va so‘zlovchi tinglovchiga hurmat bildirishni xohlagan vaziyatlarda ishlatiladi. O‘rtacha hurmat shakli shuningdek yoshi kattalar orasidagi o‘zaro suhbatlarda ham ishlatiladi. Hurmatning past shakli so‘zlovchining holati tinglovchi, yaqinlariga qaraganda yuqori bo‘lsa qo‘l-

lanilishi mumkin. Hurmatning oʻrtacha shaklini qoʻllaydiganlar orasida oʻrta yoshdan yuqori boʻlgan insonlar koʻpchilikni tashkil qiladi. Hurmatning past shakli gazeta va jurnallardagi maqolalarda ham ishlatilishi mumkin. Lekin bu holat oʻquvchilarni hurmatini tushirish emas balki, hammaga holis munosabatda boʻlishni bildiradi.

Norasmiy hurmat shakli (예절) yaqin munosabatda boʻlgan kishilar uchun moʻljallangan. Soʻzlovchining tinglovchiga iliq va doʻstona munosabatini ifodalaydi. Norasmiy hurmat shakli gapning betakalluf yaʼni hech qanday hurmat shakli qoʻshilmagan shakliga (요) qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil qilinadi. Baʼzan tinglovchining hurmatini yanada oshirish uchun maxsus yuqori hurmat shakli kerak boʻladi: “-요”, “-십시오”, “-십시오” [2]. Rasmiy hurmat usulida kesim “-ㅁ”, “-ㅂ” qoʻshimchalari bilan tugatiladi. Tarjimada esa quyidagicha beriladi. Masalan: **윤지** (Yunji maktabga boradi). **윤지** (Yunji ovqat yeydi). **시장** (Bozorda mahsulot koʻp). **이** (Bu sumkaning sifati juda yaxshi). **윤지** (Yunji uyda).

Hurmat shaklining lugʻaviy ifodalanishi (예절)

Koreys tilida hurmat darajalarini ifodalovchi maxsus soʻzlar mavjud. Bular “**존**” va “**경**”dir. Albatta, hamma soʻzlarning ham bunday variantlari mavjud emas. Bu soʻzlarni tegishlicha qoʻllanilgandagina gap toʻgʻri tuzilishi mumkin. Misollar: **분** (Ularning yoshi nechida?) **어** (Otam tuzalib ketdilar). **이** (Kecha Oʻqituvchi Kvonning uyida “tokguk” yedik). **피** (Pitsa mazali ekanmi?).

“Yon O Rang va Se O Nyo” rivoyatida qoʻllanilgan qiyosiy hurmat kategoriyalari (예절) [3].

이 (Se O Nyo eri qaytmayotganidan xavotir boʻlib dengiz boʻyiga chiqibdi. Bu yerda u erining oyoq kiyimini topib olibdi. Xuddi oʻsha baliq Se O Nyoni oʻz yelkasiga oʻtqizibdi va Yon O Rang singari uni ham Yaponiyaga olib boribdi. Oʻsha mamlakat odamlari buni koʻrib hayratga tushishibdi va bu haqda oʻz podsholariga xabar qilishibdi.

Shu tariqa podsho o'z xotini bilan topishibdi va uni birinchi darajali freylina etib tayinlabdi.

Avvalo asarning yozilish uslubiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u past darajadagi hurmat kategoriyasi ~~고려~~ga yozilgan. Yuqoridagi ma'lumotlarimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, bu usul o'quvchilarning hurmatini tushurish maqsadida emas balki, asar tili tushunarli bo'lishi, qolaversa hammaga holisona munosabat bildirish maqsadida qo'llanilgan.

O'zbek tili grammatikasida bunday qoidalar mavjud emas. Shu sababli asarlar tarjimasi doimo oddiy adabiy tilda beriladi. Lekin bir jihatni ham e'tiborga olish lozim. Koreys tilida asar tili tushunarli va hammaga holisona yondashish maqsadida shunday uslubdan foydalaniladi. O'zbek tilida ham shunday maqsadni kuzatish mumkin. Ya'ni, o'zbek tilidagi asarlar hammaga tushunarli va holisona bo'lishi uchun adabiy tilda yoziladi. Turli xil sheva yoki hamma uchun ham tushunarli bo'lavermagan so'zlardan holi asargina shunday sifatlarga ega bo'lishi mumkin. Aytmoqchi bo'lgan gapim shuki, uslub turlicha bo'lishi ahamiyatga ega emas. Muhimi maqsad bitta. Yana boshqacha holatlarda esa, so'zlovchi tinglovchiga hurmatning past kategorioyasi ~~고려~~ga murojaat qilgan. Buning sababi so'zlovchining yoshi yoki mansabi tinglovchinikiga qaraganda yuqori turishidadir.

~~고려~~

Tarjimasi: "Men bu mamlakatga Osmon amri bilan kelganman, qanday qilib endi qaytib ketishim mumkin? Xotinimning chiroyli ipak yopqichi bor, uni Osmonga qurbonlik ramzi sifatida tuhfa qil."

Bu yerda Yaponiyaga hukumdor bo'lgan Yon O Rangning elchiga murojaati berilgan. Qirolning mansabi elchinikidan yuqori bo'lganligi sababli hurmatning past shakli qo'llanilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hurmatning past shakli so'zlovchining holati tinglovchi, yaqinlariga qaraganda yuqori bo'lsa qo'llanilishi mumkin. Biz bilamizki, o'zbek tilida hurmat shakllari murakkab darajada berilmagan. Hurmatni ifodalash uchun fe'l asosiga buyruq gaplarda: -ing, ingiz; darak gaplarda -lar qo'shimchasi; so'roq gaplarda: -larmi? qo'shimchalarini gap kesimiga qo'shish orqali hosil qilinadi. Lekin past darajadagi hurmat shaklini ifodalash uchun esa alohida qo'shimchalar mavjud emas. Shu sababli faqat buyruq gap ko'rinishidagi gaplarnigina ko'ngildagidek tarjima qilish mumkin. Ya'ni o'zbek tilida past darajadagi buyruq gap-

larni ifodalash uchun hech qanday qo‘shimchaga ega bo‘lmagan fe‘l asosidan foydalaniladi:

~~질은 오직 이혼을 위한 선물이다~~

Tarjimasi: “Xotinimning chiroyli ipak yopqichi bor, uni Osmonga qurbonlik ramzi sifatida tuhfa qil.”

Hurmatning rasmiy shakli so‘zlovchi va tinglovchi munosabatlari bevosita ish bilan bog‘liq bo‘lganda marosim nutqlari va rasmiy vaziyatlarda ishlatiladi [5]. ~~유니 태양을 향해 손을 흔들고 있다~~ Tarjimasi: “Quyosh va Oyning ruhlari yerga tushib, ular Yaponiyaga yo‘l olishdi. Shu sababli g‘aroyib voqealar yuz bermoqda”. Bu misolda munajjimning qirolga murojaati ko‘satilgan. Qadimdan qirollarga bo‘lgan murojaatlar doimo rasmiy usulda olib borilgan. Bundan tashqari bu misolda hurmatning yuqori shaklini ham ko‘rishimiz mumkin. Yuqori hurmat kategoriyasi so‘zlovchining tinglovchiga yuqori hurmatini ifodalaydi va bu uslub rasmiy suhbat va rasmiy vaziyatlar uchun mo‘ljallangan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek bu murojaat rasmiy uslubda. Shu bilan birga u mansabi yuqori shaxs ya’ni qirolga qaratilgan. Bu misolda kamdan-kam uchraydigan yana bir qo‘shimchani ham ko‘rishimiz mumkin. Ba’zan tinglovchining hurmatini yanada oshirish uchun maxsus yuqori hurmat shakli kerak bo‘ladi: ~~여왕님께 경례~~. Yuqoridagi misolga yana e‘tibor beradigan bo‘lsak buni aniqlashtira olamiz: “~~그녀는 왕을 향해~~

Yuqorida bunday holatlar kamdan-kam yuz beradi deganimiz be’jiz emas. Biz bilamizki, boshqa xalqlardagi kabi Koreya xalqining ham tarixi buyuk qirollarga boy. Bu qirollar nafaqat xalqni boshqargan balki, millat otasi ayrim hollarda xudoning yerdagi elchisi sifatida qaralgan. Bu esa o‘z o‘zidan juda yuqori hurmat shaklining kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, koreys tillidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida turli hurmat shakllarini jiddiy farqlash hamda lozim bo‘lgan o‘rinlarda ona tilining ichki imkoniyatlari doirasida hurmat qo‘shimchasidan tashqari yana boshqa so‘zlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Ким В.Н., Че Су Енг. Стилистика корейского языка. Т., ТашГИВ. 2012.

[2] – Ким Ф, Ким В.Н. Грамматика корейского языка. Морфология и синтаксис. Т.: ТашГИВ. 2011.

- [3] – Saydazimova U., Choy S. Y, Xvan I. Klassik koreys nasri antologiyasi. Toshkent : Istiqlol.- 2013.
- [4] – 김현우, 2013.- 쪽 27.
- [5] – Ким.Ю, Практическая грамматика корейского языка.М.: 2000
-

Muqaddas TAYLANOVA,
ToshDShI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
 yo ‘nalishi 4-kurs talabasi
 Ilmiy rahbar: o ‘qit. N.Xodjayeva

ZULFIYA SHE’RLARI TARJIMASINING O‘RGANILISHI

Shoira Zulfiyaning betakror she’rlari barchaning qalbidan chuqur joy olgan. Shu sabali bo‘lsa kerak, shoira ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida keng o‘rganilib kelinmoqda. A.Akbarov, L.Qayumov, O.Ikromov, G‘.Musina, M.Sultanova, N.Karimov, H.Hasanova, N.Shukurov, H.Umarov, S.Mirzayev, S.Shermuhammedovlarning izlanishlari, Zulfiya haqidagi “Ehtirom” majmuasi bundan dalolat beradi. Ayniqsa, Mamatova Xurshida Nasimovanning “Shoira Zulfiyaning tarjimonlik mahorati”[1] nomli dissertatsiyada ham shoiraning faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Shoira haqidagi ilk tadqiqotlardan biri A.Olimjonovanning “Shoira Zulfiya” tanqidiy-biografik ocherkida asosan shoiraning ijod yo‘li kuzatiladi. Tanqidiy-biografik asarning janr talablaridagi eng asosiy jihati, unda biografiya-tarjimayi holga asosiy e‘tibor qaratilgan. G‘.Musina-ning “Zulfiyaning ijod yo‘li” asari nomidan ko‘rinib turibdiki, u ham shoira ijodi haqidagi tadqiqotdan iborat. Asarning janri ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, unda shoiraning ijodiy yo‘li kuzatilganligidan kelib chiqib, uni ilmiy tadqiqot deyish mumkin [2, 16].

N.Boboxo‘jayevning “Zulfiyaning poetik mahorati [3] nomzodlik dissertatsiyalarida, M.Sutonovanning “Ijod sahifalari” [4], “Zulfiya” [5], H.Hasanovning “Nozik qalblar ehtirosi” [6], S.Karimovning “Zulfiya asarlarining tili va usubi” [7] kabi izlanishlarini, N.Karimovning “Estetik olam manzaralari” [8] mavzuidagi kuzatishlarida ham Zulfiyaning betakror ijod olami haqida fikr yuritiladi.

A.Olimjonovanning asari Zulfiya ijodiga bag'ishlangan birinchi tadqiqot hisoblanib, unda Zulfiyaning 50-yillar boshlarigacha bosib o'tgan ijodiy yo'li kuzatilib, she'riy asarlari tahlil qilingan. Zulfiya hayoti va ijodiy yo'li hamda badiiy mahoratiga bag'ishlangan ishlari shoira ijodi to'g'risida yozilgan ilk ilmiy tadqiqotlardandir.

M.Sultonovanning kitoblarida Zulfiya asarlarini tahlil qilish, uning estetik qarashlari, ijodini yoritish maqsad qilib olingan bo'lib, ularda Zulfiya she'rlarining namunalari orqali uning ijodiy qirralarini ochishga urg'u berilgan. Shu bilan birgalikda, M.Sultonova shoira shoiraning do'stlari, ustozlarining u haqida bildirgan fikrlarini, Zulfiyaning she'riyati, ijodkor burchi, ustoz va qalamkash safdoshlari xususidagi mulohazalarini yoritishga ham alohida e'tibor bergan.

A.Akbarovning "Qalb kuychisi" asarida asosan shoira shoiraning 60-yillar ijodi, shu davrda yaratilgan she'rlari ilmiy-ommabop yo'nalishda tahlil etilgan. N.Karimovning Zulfiya ijodi, uning obrazlilik olami haqidagi ishida shoira mahorati xususida fikr yuritiladi.

Zulfiya ijodi, u yaratgan poetik asarlar hozirgi o'zbek she'riyati tarixida muayyan ahamiyatga molikdir.

Zulfiya she'rlarining latofati va insoniy jozibasini shoir Mirtemirning, ustoz O.Sharafiddinovlarning bergan ta'riflarida ham kuzatish mumkin. Jumladan, Mirtemir shoira she'rlarini Tong yulduzining tug'ilishiga, O.Sharafiddinov esa "Shu paytgacha yozganlarimiz bu ulkan shoira ijodi oldida urvoq ham bo'lolmaydi, uning nafosatini, go'zalligini, fikriy boyligini ko'ngildagidek, o'sha she'riyatga munosib tarzda ochib berolganimiz yo'q" [9, 370], deya ta'rif bergan.

Darhaqiqat, o'z ijodi bilan G'arbu Sharqni birlashtirgan, Vatan kuychisi Zulfiya she'rlari har qanday inson qalbini junbushga keltirishga qodir. Yuqorida keltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ham buning isbotini ko'rishimiz mumkin.

Zulfiya she'rlarining betakror olamini, boyligini, sehrini boshqa tilga tarjima qilish jarayoni haligacha davom etib keladi. Shu kunga qadar shoira she'rlari turli tillarga tarjima qilindi, jumladan rus tiliga Konstantin Simonov, Svetlana Somova, Rimma Kazakova, Yuliya Neyman, Svetlana Yevseyeva, Aleksandr Naumov, Yan Kozlovskiy kabi tarjimonlar o'z hissalarini qo'shdilar.

Shoira shaxsiy hayotidagi ro'y bergan judolik uning she'riyatida o'z aksini ko'rsatadi. Shoira ana shu ruhda inson va hijron, hayot va o'lim, muhabbatga sadoqat, vafodorlik, sog'inch mavzularida qator

she'rlar yozdi. "Hijron kunlarida", "Kechir qoldim g'aflatda", "Yulduz", "Ne baloga etding mubtalo", "Sen qaydasan yuragim", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh", "Sensiz" kabi qator she'ralari ko'plab tillarga tarjima qilingan. Bu she'rlarda shoira o'z hayoti, taqdiri misolida o'zbek ayoliga xos bo'lgan hislatlarni, tuyg'u va kechinmalarni mohirona aks ettirdi. Zulfiya she'rlarining eng ko'p qismini Yu.Neyman rus tiliga tarjima qilgan. Tarjimalarida shoira she'riyatining ruhini saqlashga katta kuch sarf qilgan. Masalan Zulfiyaning "Sensiz" [10, 38] she'ri Hamid Olimjonga bo'lgan mehri, sevgisi, sog'inchi, ayriliq dog'ining ruhiy azoblari aks etgan. Ulkan bardoshga, buyuk sog'inchga, nihoyasiz olamga sherik bo'ladi:

Mana bir umr yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qatishin kutib,
Tobutning boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.

Yu, Neyman tarjimasi:

Целую жизнь без тебя (о, как время бежит!),
Целую жизнь без тебя я уже прожила на свете.
В день, когда, к гробу припав, я рыдала навзрыд,
Подняли с пола меня и поставили на ноги дети [11, 113] .

Zulfiya she'riyati o'ta samimiy va o'ta maftunkordir. Ana shu noziklikni, ta'sirchanlikni boshqa xalqlar kitobxonlariga yetkazish uchun tarjimonlarlardan katta mahoratni talab qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Zulfiya ijodi hech qachon hech kimni befarq qoldirmagan. She'rlarining barcha go'zalligini boshqa tilda berish, uni chet ellik kitobxonlarga asliday yetkazish, ya'ni Zulfiya she'rlari orqali o'zbek ayolining qalbini kashf etish tarjimonning vazifasidir. Bu vazifa qanchalik badiiy chuqur, go'zal bajarilsa, jahon adabiyoti o'rtasida ma'naviy ko'pri o'rnatilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Маматова Х.Н. Переводческое мастерство поэтессы Зулфии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Т., 1980.

[2] – Ahmedova Sh.N. "O'zbek adabiyotshunosligida Zulfiya ijodining o'rganilishi", A., 2015.

- [3] – Boboxo'jayev N. Zulfiyaning poetik mahorati. Filol.fanlari nomzodi. Toshkent, 1967.
- [4] – Sultonova M. Ijod sahifalari, Toshkent, 1975.
- [5] – Sultonova M. Zulfiya, Toshkent, 1985.
- [6] – Xasanova X. Nozik qalblar ehtirosi. Toshkent,1985.
- [7] – Karimov S. Zulfiya asarlarining tili va uslubi. Filol fanlari nomzodi. Samarqand, 1982.
- [8] – Zulfiya. Adabiy o'ylar. Toshkent, 1985.
- [9] – O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T., "Sharq" NMAK,2004.
- [10] – Zulfiya.Yillar sadosi. Saylanma.-Toshkent., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
- [11] – Зулфия. Избранное. Москва, "Художественная литература", 1985.
-

Munavvara FOZILIYA,
ToshDShI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti"
yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: o'qit. U.Zokirova

“GARRI POTTER” ASARI VA UNING TARJIMASIDA NUTQIY XUSUSIYAT

Tilning lug'at tarkibi, grammatik qurilishi va fonetik tuzilishi uning barcha sohalari uchun umumiy bo'lsa-da, har bir shaxs fikrini o'ziga xos tarzda ifoda etishi bilan ajralib turadi. Zotan, tilning umumiy asosi bilan alohida shaxslar nut-qiga xos xususiy jihatlar orasida dialektik birlik mavjud bo'lib, badiiy ijodda mazkur munosabat personajlar tabiatidagi tipik va individual xususiyatlar zaminida namoyon bo'ladi. Demak, badiiy so'z san'atkorlari o'z personajlari tasvirini yaratishda ularga umumiy xususiyatlar bilan birga o'ziga xos xislatlar ham baxsh etadi. Bu vazifa yozuvchi zimmasiga personajlari nutqi tasvirini o'ziga xos tarzda yaratish mas'uliyatini yuklaydi.

Badiiy asar personajlari turli-tuman sharoit va muxitlarda yashab faoliyat ko'rsatishlari sababli ularning nutqida umumxalq tili imkoniyatlaridan sezilarli farq ko'zga tashlanadi: har bir personaj o'z bilimi, madaniy saviyasi, dunyoqarashi, ijtimoiy sharoit, nutqiy muhit va kasb-kori doirasida so'zlaydi, fikr-mulohaza yuritadi.

Ayrim shaxslar hayotda o‘zlarining so‘zlashish uslublari bilan ajralib turganlaridek, badiiy asar personajlarining ko‘pchiligi so‘zlarni sekin, chertib-chertib, salmoq bilan talaffuz etsalar, ayrimlari duduqlanib, soqovlanib so‘zlaydilar, boshqalari adabiy til me‘yorini bo‘zib, fikrlarini o‘z lahjalarida bayon etadilar [1]. Buni esa tarjimon o‘z tarjimasida aks ettirishi juda ham murakkabdir. Biz tarjima jarayonida uning ana shunday mashaqqatlarini bosib o‘tgan tarjima asarini va uning asliyatiga qiyoslagan holda personajlar nutqdagi o‘ziga xosliklarni tahlil qilishni o‘z oldimizga madsaq qilib qo‘ydik.

Joanna Ketlin Rouling “Garri Potter” asarlar turkumining muallifidir. Biz bu kitoblaridan 1-qismi “Harry Potter and the Philosopher’s Stone”[2]ni yoritayotgan mavzumizga asosiy manba sifatida oldik. Ushbu kitob urdu tiliga “Harry Potter aur Paras Patthar ka raaz”[3] nomi bilan Javed Buxoriy tomonidan mohirona tarjima qilingan.

Mazkur asarni ilmiy tadqiqotimizga asosiy manba sifatida olishimizga bo‘lgan sabablaridan biri bu aynan yurtboshimiz tomonidan 2016-yil “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” deb e‘lon qilinganligidir. Chunki bu yilning ana shunday nomlanishi bolalarni nafaqat jismonan, balki ruhan sog‘lom qilib tarbiyalashni belgilab beradi. Bu esa bolalar uchun asar yozuvchi ijodkorlar oldiga yanada ma’sulyatli bir vazifani qo‘yadi. Shuning uchun ham biz aynan jahon bolalar adabiyotiga murojaat qildik. Qolaversa, “Garri Potter” asari bo‘yicha jahondagi ko‘plab filolog olimlar ilmiy ishlar olib borishmoqda: 2011-yilda Boshqirtiston poytaxti Ufa shahrida o‘tqazilgan Xalqaro ilmiy konferensiyadagi olima N.O.Grachevaning nutqida [4,78-81] mazkur asarning dolzarbligi hamda janriga e’tibor qaratilgan; sank-peterburglik Y.N.Levkoning nomzodlik dissertatsiyasi[5] ana shu asarga bag‘ishlangan; Janubiy Saxalin universiteti katta o‘qituvchisi I.V.Kuzmina rahbarligida “Garri Potter va hikmatlar toshi” asarinig tarjimasidagi leksik-semantik xususiyatlar” diplom ishi[6] yoqlangan.

Tahlilni umumbashariy so‘zlar izogidan boshlashni ma’qul ko‘rdik. Zero mazkur so‘zlar millat, til va davlat tanlamaydi. Ularni barch xalqlar bemalol qo‘llayveradi.

❖ **‘Morning,’** said Hagrid to a free goblin.

صبح بخیر! ہگرڈ نے ایک خالی بیٹھے غوبلن سے کہا

Bu gapda ishlatilgan “morning” va “صبح بخیر” soʻzlari “xayrli tong” maʼnoni beruvchi ifodadir. Tarjimon aynan Pokistondagi tongi salomlashishni oʻz tarjimasida aks ettirgan.

❖ ‘**Thank you.**’

شکریہ! پیری نے دھیمے سے کہا۔

Bu joyda minnatdor boʻlish aks etgan. Biroq tarjimon “*rahmat*” soʻzidan soʻng qahramonning naqadar hissiyotga berilib soʻzlaganini ham aks ettirgan. Yani “*Rahmat, – dedi Garri sekingina*” Bu ifoda asl matnda yoʻqligi sababli bu holat tafsilotli tarjimaga aylangan.

❖ ‘**Oh, bravo!** Yes, indeed, oh, very good.

شبابش! ہاں -----سچ مچ -----بہت عمدہ۔۔۔۔۔

Mazkur misoldagi “*oh bravo*” va “شبابش” soʻzlarining oʻzbek tilidagi ekvivalenti “*barakalla*” boʻlib, ingliz tilida yozuvchi soʻzlarni takrorlagan holda qahramonning xursandligini ifodalagan boʻlsa, tarjimon esa qahramon ichki kechinmalarini koʻp nuqta orqali ifoda etgan. Bu pokistonlik kitobxonlarga juda maʼqul uslub ekanligiga shak-shubha yoʻq.

❖ ‘**Stop!**’ he commanded. ‘**Stop** right there, sir! I forbid you to tell the boy anything!’

رک جاؤ۔۔۔۔۔! انکل ورنن کی آواز اچانک واپس لوٹ آئی -----یہیں پررک جاؤ۔۔۔۔۔ میں تمہیں خبردار کرتا ہوں کہ اس لڑکے کو کوئی بات --- کچھ بھی نہیں بتانا۔

Keltirilgan misolda esa “*stop*” yaʼni “*toʻxta*” soʻzini “رک جاؤ” feʼli bilan tarjima qilgan. Biroq tarjimaning qiziq tarafi shundaki, “رکنا” feʼli aynan toʻxtamoq boʻlsa, bu yerda ohang va mazmunni koʻchaytirish uchun “جانا” feʼlidan foydalanib “*bas qil*” maʼnosini yuzaga keltirgan. Ushbu tarjimada ham tafsilotlar toʻliq aks etganligini, yaʼni gapning kim tomonidan aytilganini guvohi boʻlamiz

❖ ‘**Mm**’ said Hagrid, who was pulling on his huge boots.

کیا بات ہے؟ اپنے بھاری بھر کم جوتے پہنتے ہوئے ہیگرڈ نے پوچھا

Bu gapda “*Mm*” deb yozuvchi aynan ogʻzaki nutqdagi nima deysan maʼno beruvchi “*haa*” yoki “*hmm*” ni ifodalagan. Uni esa tarjimon mohirlik bilan “کیا بات ہے”

yaʼni “*nima boʻldi?*” yoki “*tinclikmi?*” tarzida tarjima qilgan.

❖ ‘**I’m a what?**’ gasped Harry.

‘**A wizard**, oʻ course,’ said Hagrid

میں کیا ہوں۔۔۔۔۔؟ پیری نے تیز تیز سانس کھینچتے ہوئے پوچھا۔

جادوگر! اور کیا! ہیگرڈ نے کہا

Ushbu suhbatning birinchi qismiga e'tibor qaratsak, "gasp" bu "hansiramoq" degani bo'lsa, tarjimon esa uni "تیز تیز سانس کھینچتے ہوئے" "tez-tez nafas olganicha so'radi" aniqroq qilib aytganda "yutoqib so'radi" dir. Ikkinchi qismdagi "wizard" birligi, ya'ni "sehrgar" ma'nosini "جادوگر" so'zi bilan ifodalagan. Zero, tarjimon qo'llagan "jodugar" so'zining ham ijobiiy, ham salbiy ma'nosi bor.

❖ Aunt Petunia often said that Dudley looked like a **baby angel**

آنٹی پتونیہ اکثر کہا کرتی تھیں ڈڈلی بالکل ننھے فرشتے کی مانند دکھائی دیتا ہے۔

Bu tarjima nihoyatda ajoyib chiqqan. "Baby angel" so'zma so'z qilsak "farishta bola" to'g'ri keladi. Tarjimon uni "ننھے فرشتے" ya'ni "jajjigina farishta" deya tarjima qilgan. Bu joyda diniy nuqtai nazaridan ham so'z tarjimasi to'g'ri tanlangan: "angel" – "farishta".

❖ Dudley was the biggest and **stupidest**

ڈڈلی سب سے موٹا اور سب سے بڑا شیطان تھا ---

Oldingi tarjimada so'zning ekvivalenti aks etgan bo'lsa, bu yerda tarjimonning ijodkorligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni "stupid" bu "ahmoq" bo'lsa, urdu tilida u "بڑا شیطان" – "shaytonvachcha" deya berilgan. Tarjimoni bunday berilishiga sabab, Islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda bolalar sho'x bo'lishsa, ularni "ha, shayton bola" deya erkalatishadi. Ana shu nuqtai nazarda kelib chiqib tarjimon ana shu ifodadan foydalagan. Bu holat esa kitobxonlarning kitobni mutolaa qilishayotganlarida uning tarjima asari ekanligini ham unutishiga sabab bo'ladi.

Nutqdagi diniy birliklarga to'xtaladigan bo'lsak, yozuvchilar bu kabi so'z va iboralardan juda ham keng ko'lamda foydalanishida. Tarjimonlar agar o'sha din vakili bo'lishsa-ku tarjima oson kechadi, lekin boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar bo'lsa, bu anchayib murakkab vazifaga aylanadi. Chunki, ular tarjimaga ijodiy yondashmasalar, kitobxonlar ularni tushunmasliklari yoki "hazm qila olmasliklari" mumkin. Javed Buxoriyning mohir tarjimon ekanligiga quyidagi misollarni ko'rib yana bir karra ishonch hosil qilasiz.

'Gulpin' gargoyles, Harry, people are still scared.

پتھ بنا دینے والی آنکھ پیری، لوگ ابھی ڈرے ہوئے ہیں اف خدایا، اس بات کو سمجھانا کتنا مشکل ہے دیکھو

'Oh, Good Lord, they're here!' said Aunt Petunia frantically

اف خدایا! ----- وہ لوگ پہنچ گئے ہیں ----- آنٹی پتونیہ ہڑبڑا کر بولیں

Berilgan ikkala nutqda ham hayratlanganlik mazmuni aks etgan. Agar ularni soʻzma-soʻz tarjima qilsak, “*Gulpin’ gargoyles*” bu “*ajdarhoga qasamlar boʻlsin*”[7], “*oh, Good Lord*” esa “*Oʻzing buyuksan Xristos*”, yaʼni “*Lord*” soʻzining koʻplab maʼnolari boʻlib ulardan biri “*Xristos*”dir. Urdu tiliga ular bir xil “*اف خدایا*” bilan tarjima qilingan. Uning maʼnosi “*voy xudoyimey*” dir.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, qahramonlar nutqini toʻgʻri aks ettirib berish bu tarjimaning murakkab koʻrinishidir. Hatto tarjimada ularning yoshi, savodlilik darajasi va qaysi tabaqa vakili ekanligi ham hisobga olinishi lozim. Misollar orqali aynan Javed Buxoriyning mohir tarjimon, oʻz ishining ustasi ekanligiga guvoh boʻldik. Qolaversa, tarjimon oʻz tarjimasida islom ruhiyatini singdirib yubormaslik uchun tasvir ifodalarini, qahramonlarning ichki kechirmalarini yoritib berish uchun koʻproq nuqtalar orqali ifodalagan. Hatto diniy soʻzlarni ham butun oʻzlashtirib yubormasdan dominant soʻzlar bilan tarjima qilgan. Zero tarjimonlar asarlarni tildan tilga emas, dildan dilga koʻchirmoqlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

- [1] – Qudrat Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari.T.,2005.
- [2] – J.K.Rowling. Harry Potter and the Philosopher’s Stone. London,1997
- [3] – جے کے رولنگ۔ ہیری پوٹر اور پارس پنہر کا راز کراچ۔ 2002
- [4] – Грачева Н.О. К вопросу о жанре произведения Дж. К. Роулинг «Гарри Поттер» [Текст] // Современная филология: материалы междунар. науч. конф. (г. Уфа, апрель 2011 г.). — Уфа: Лето, 2011.
- [5] – Левко, Екатерина Николаевна. Динамика волшебного мира Дж. К. Роулинг. Санкт-Петербург. 10.02.04
- [6] – Научное руководство Кузьмина И.В. Лексико-семантические особенности перевода художественных произведений на основе произведения джоан роулинг "Гарри Поттер и Философский Камень. Южно-Сахалинск. 2009.
- [7] – И.Оранский. Гарри Поттер и Философский Камень. Москва, 2000
Шах-Назарова В.С. Английский для вас.М.,1999.

Lugʻatlar

1. Isaqov.U. Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat.T., 2013.
2. Xolmirzayev.T.Urducha-oʻzbekcha lugʻat. Islomobod, 2003.

Dildora RAHMONOVA,
ToshDSHI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti

INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMALAR XUSUSIDA

Tarjima – xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli qurol [1,9]. Shuning uchun hozirgi paytda lingvistikaning eng dolzarb muammolaridan biri tarjimadir.

So'nggi paytlarda tarjima jarayonida yuzaga kelayotgan, ijodkorni ma'lum qiyin vaziyatlarga solib qo'yayotgan muammolar ustida turli izlanishlar olib borilmoqda. Shu kabi masalalardan biri chet tilidan tarjima faoliyatidagi nomutanosibliklar, mashaqqatliklardir. Ushbu maqola mavzusini tanlar ekanmiz o'z oldimizga ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girilgan asarlar taraqqiyoti, mutarjimning ijodiy yondashuvini tahlil qilish, zarur hollarda ma'lum bir xulosa keltirishni maqsad qildik.

Ingliz tilida qalam tebratayotgan yozuvchilar ijodidan amalga oshirilgan tarjimalar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, XIX asr oxiri va XX asr boshida A. Konan Doylning "Sherlok Xolms haqida hikoyalar" va Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" asarlarining o'zbekchaga o'girilganiga guvoh bo'lamiz. Asarlar qisqartirilgan shaklda yarim hikoya tarzida tarjima qilingan. Masalan, 1891-yilda nashr qilingan "Mashhur ingliz Rubinzuning hikoyasi" 400 betlik ruscha nashridan 77 sahifada qisqartirib amalga oshirilgan ozarbayjoncha tarjimaning Muhammad Fozilbek o'g'li tomonidan yanada qisqartirib 48 sahifada amalga oshirilgan o'zbekcha nusxasi edi.

Mazkur asarlar tarjimalari hozirgi davr talabi darajasidan uzoq bo'lsa-da, asrimiz boshida o'zbek madaniyatida yuz bergan katta voqea – ingliz xalqi badiiy yodgorliklarini o'zbek tilida o'girish borasida qo'yilgan ilk qadam sifatida adabiyotimiz tarixida alohida ahamiyatga molikdir.

30-yillarning birinchi yarmidan e'tiboran o'zbek kitobxonlari inglizzabon mualliflar asarlari bilan yaqindan tanisha boshladilar. Bu davrda tarjimonlar e'tiborini buyuk ingliz dramaturgi V.Shekspir ijodi ko'proq o'ziga tortdi. Dramaturgning nazmda bitilgan "Veronalik ikki yigit" komediyasini 1930-yilda Javod Obidov va "Hamlet" tragediyasini 1934-yilda shoir Cho'lpon (P.A.Kapshinning 1893-yildagi nasriy tarjimasidan) nasriy yo'l bilan o'zbek tiliga tarjima qilishadi [1,14-15].

Ingliz adabiyoti durdonalari tarjimonlar tomonidan shu kungacha asosan vosita til (rus tili) orqali o'zbek tiliga o'girilganini ko'rishimiz mumkin. Asar tilini bilmaslik ijodkorlarda turli qiyinchiliklarni tug'dirib kelgan. Ammo mustaqilligimizga erishganimizdan so'ng bu kabi muammolarga chek qo'yildi. Kadrlar tayyorlash hamda ta'lim sohalarida asosan xorijiy tillarni o'rganish davlat rejasi amalda o'z tatbig'ini topdi. Tarjima nazariyasi fan sifatida qabul qilinib, asarlar o'girmasining qiyosiy tahlili, ya'ni asliyatdan yoki bilvosita tarjima o'rtasidagi tafovutlar, ularni taqqoslash kabi ilmiy jarayonlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratildi.

Shu tariqa tarjimachilik faoliyatida ingliz tilidan bevosita o'zbek tiliga o'girish san'ati ustun kela boshladi. 1996-yilda Dinora Sultonovanning asliyatdan vosita tilsiz amalga oshirgan qator ingliz shoirlari she'rlari tarjimasini "Farog'at" nomi bilan nashr etildi [1,21].

O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol ingliz tilidan bevosita o'zbek tiliga tarjima amaliyotini boshlab bergan ilk tarjimonlardan biri. O'tgan asrning to'qsoninchi yillarida u ilk bora Shekspirning besh dramasi tarjimasini o'z ichiga olgan "Otello" kitobini, 2007- yilda Shekspir asarlarining uch jildli "Saylanma"sinini chop ettirdi. Mazkur to'plam o'zbek tarjimachiligi taraqqiyotida "bevosita tarjima bosqichi"ga uzil-kesil o'tilganining dalolati bo'ladi. Saylanmadan joy olgan tarjimalar V. Shekspir "Kulliyoti"ning professor V.J.Kreyg tomonidan tayyorlanib, 1983-yili chop etilgan Oksford universiteti nashri asosida amalga oshirilgan.

Shekspirning "Hamlet"i o'zbek tarjimashunosligi tarixida qizg'in munozara va bahslarga sabab bo'lgan asar hisoblanadi. Asarni rus tili orqali tarjima qilgan Cho'lpon, ozarbayjoncha va ruscha tarjimaga suyangan holda o'zbek tiliga o'giran Shayxzoda va asliyatdan bevosita o'zbek tiliga tarjima qilgan Jamol Kamol variantlari o'zaro qiyoslansa, bevosita tarjima afzalliklari yaqqol namoyon bo'ladi.

Misol uchun, ushbu asarda Horationing shunday satrlari bor:

Horatio: Let us impart what we have seen to night

Unto young Hamlet; for, upon my life,

This spirit, dumb to us, will speak to him.

Do you consent we shall acquaint him with it,

As needful in our loves, fitting our duty?

Bunda rus tili orqali tarjima qilgan M.Shayxzoda tarjimini quyidagicha ifodalaydi:

Goratsio: Ko'rganlarni shahzoda Hamletga aytsak,

*Aminmanki, bizga lol kelgan bu arvoh
Hamletga uchrab qolsa, kiradi tilga.
Do 'stlar, qani, ne deysiz? Unga sevgimiz
Bizdan shunday qilishni etmasmi talab?*

Maqsud Shayxzodaning rus tilidan qilingan tarjimasini N.Polevoyning aslyatdan qilingan tarjimasiga nisbatan aslyatga adekvat. Asarni aslyatdan tarjima qilgan Jamol Kamol tarjima jarayonidagi so'z qo'llash nozikligini to'g'ri anglab, asosiy mazmunidan yiroqlashmagan holda quyidagicha tarjima qiladi:

*Xoratsio: Nima deysiz yosh Hamletni etsak xabardor -
Bunda sodir bo 'lgan siru sinoatlardan .
Bizga soqov bo 'lib og 'iz ochmagan arvoh
Shahzodaga asrorini so 'ylagay, illo.
Nima deysiz shuni bir-bir bayon aylasak,
Do 'stlik burchimizni bo 'yla ayon aylasak?*

Jamol Kamol tarjimasini aslyat ma'no-mazmuniga uyg'unligi hamda o'zbek kitobxonining dunyoqarashiga mos ravishda talqin etilgani bilan M.Shayxzoda tarjimasidan ustun turadi. Tarjimonning bunday yutuqqa erishishning asosiy omili muallifning asar tilini bilishi va tarjimonga xos bo'lgan shoirona mahoratidir.

Shekspirning yana bir shoh asari "Romeo va Juliet" fojeasidir. Uni rus tiliga turli davrda T.Shchepkina –Kupernik va B.Pasternak tarjima qilgan. Har ikkala tarjima hozirga qadar peshma-pesh nashr qilinib, teatrlarda o'ynalib kelinadi. Fojeani o'zbek tiliga 1949-yilda Maqsud Shayxzoda, oradan qariyb oltmish yil o'tib Jamol Kamol tarjima qilishdi. Shayxzoda asarni ruschadagi B.Pasternak variantidan o'zbekchalashtirgan. Hozirga qadar Shekspir asarlarining tilimizdagi nashrlarida uning ism-sharifi "Vilyam Shekspir" tarzida transliteratsiya, ya'ni harflar miqdori va nomiga monand yozilib kelinadi. Bu albatta, o'tgan asrning birinchi yarmida adib asarlarining ruscha tarjimalari va nashrlaridan tilimizga ko'chib o'tgan edi. Keyinchalik "Uilyam Shekspir" deya talqin etila boshlandi [4].

Amerikaning taraqqiyparvar yozuvchilaridan biri Jek London ijodi bilan o'zbek kitobxonlari 1956-yildan boshlab tanishdilar. 1958-yilda yetuk tilshunos olim Fattoh Abdullayevning bevosita ingliz tilidan qilgan tarjimasida yozuvchining hikoyalar to'plami bosilib chiqdi. 1968-yilda esa J.Londonning mashhur "Martin Iden" romani Q.Mirmuhamedov tarjimasida bosilib chiqdi [3].

Yaqin tillardan qaraganda chet tillaridan tarjima jarayoni nisbatan murakkab hisoblanadi. Chunki G'arbdagi madaniyat, ma'naviyat, dindagi o'ziga xoslik Sharq tamaddunining ma'lum bir jabhalariga nomutanosib yoki aksincha mutanosib bo'lishi mumkin. Tarjimada milliy o'ziga xos so'zlar, frazeologizmlarning berilish usullari ushbu ijod mahsulining kelajagini hamda sa'viya darajasini belgilashga xizmat qiladi. Yuqorida to'xtab o'tilgan mashhur yozuvchining ismi "Vilyam Shekspir" deya ta'kidlanishi transliteratsiyaga to'g'ri keladi, degan edik. Shunday usulni Jek London hikoyalari tarjimasida ham ko'rishimiz mumkin.

Professor F.Abdullayev J.Londonning "Hayotga muhabbat" va "Meksikalik" hikoyalarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasida kishi ismlari, geografik nomlar transliteratsiya qilingan: *Bill-Bill*, *Porfirio Dias*- Porfirio Dias, *Felipe Rivera*-Felipe Rivera; *Hudson-Gudzon*, *Mackenzie*-Makkenzi, *Rio Blanco*-Rio Blank va h.k. Ba'zi joy nomlarini mazmuni bilan kitobxonni tanishtirish maqsadida iloji boricha aynan tarjima qilgan: *The Great Bear Lake*-Katta Ayiq ko'li kabi. Tarjimada bunday misollar bisyor.

1972-yilda bir qancha amerika yozuvchilarning hikoyalari bevosita ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girildi. Bu T.Drayzerning "Oltin sarob" hikoyasi bilan nomlangan to'plamdir. Hikoyalarni ingliz tilidan Abduqahhor Iminon tarjima qilgan. To'plamga sakkiz amerika yozuvchisining o'n bir hikoyasi kirgan [3].

Hozirda nafaqat ingliz tilidan o'zbek tiliga, balki o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimalar ko'lami ortib bormoqda. Bunga misol qilib 2014-yilda taniqli o'zbek adibi Erkin A'zamovning asarlari "Farewell to Fairy Tales"("Ertaklar bilan xayrlashuv" yoki "Alvido, ertaklar" deb o'girish mumkin) nomi bilan A'zam Obidov tarjimonligida ingliz tilida nashr etilganini olishimiz mumkin. Bu shundan darak beradiki, tarjimachilik shunchaki bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayoni bo'libgina qolmasdan, u ikki davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalar, kelishuvlar hamda do'stlik garovidir.

Jahon durdonalari tarjimasi jarayonida yutuqlar ham, omadsizliklar ham uchrab turgan. Ammo eng muhimi har ikkala vaziyatda ham biz bu ijod mahsullaridan ma'naviy hamda madaniy olamimiz uchun ibrat ola oldik. Davlatlar hamdo'stligi, taraqqiyotimiz rivoj topib boraverar ekan, tarjima ham yangi-yangi kurtaklar yozib, o'z mevalari bilan kitobxonlarni bahramand qilishda davom etadi. Yildan yilga mutarjimlarimiz o'z sohalarida yuksak cho'qqilarga erishib, kitobxonlarimizning chet el adabiyoti xazinalarini boyitib bormoqdalar. Shu o'rinda mohir yozuvchi,

tarjimon G‘aybulla Salomovning quyidagi satrlarini keltirishni ma’qul deb topdik. “O‘zbek tarjimachiligi madaniyati jahon adabiyoti xazinasining benazir javohirlari bilan boyimoqda, tarjimonlarimiz bu yo‘lda uchragan barcha qiyinchiliklarni yengmoqdalar, tilimizning bitmas-tuganmas imkoniyatlaridan oqilona foydalanib, xalqimizning ma’naviy dunyosini yanada boyitish, uni sarmazmun qilish yo‘lida shavq-zavq bilan qalam tebratmoqdalar” [2,88].

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] – Musayev Q., Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 2005.
- [2] – Tarjima san’ati. Maqolalar to‘plami, 5-kitob. Toshkent, “Adabiyot va san’at”. 1980.
- [3] – Mavluda G‘., Jek London hikoyalarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari. Dissertatsiya. Navoiy, 2014.
- [4] – www.xurshid davron kutubxonasi.uz

Maftuna BAHRAMOVA,
*ToshDShI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
yo‘nalishi, 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. X.Hamidov*

AYRIM O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING KOREYS TILIGA TARJIMASI XUSUSIDA

Ertaklar – bolalar adabiyotining eng nodir durdonalaridir. Ajoyibotga to‘la orzular osmonida parvoz qiluvchi baxtiyor bolalikni ertaklarsiz tasavvur qilish qiyin. Bola ertaklardagi jasur qahramonlardan ibrat oladi, chunki bu qahramonlar hamisha mehnatkash xalqni turli ajdaho va devlardan, balo-ofatlardan himoya qiladilar.

Ertaklar olami shunday sehirliki, hayotbaxsh chashmaki, bu chashmaning teran va musaffo obi-hayotidan bir bor to‘yib suv ichgan kishi umr bo‘yi shirin orzularidan ayrilmaydi, hamisha yaxshilik uchun, erk va adolat uchun kurashdan charchamaydi. Ertaklar qaysi tilda yaratilmasin, albatta, kitobxon qalbiga yo‘l topadi.

Biz bejizga ertaklar haqida fikr yuritmadik. Chunki ushbu maqola o‘zbek ertaklarini koreys tiliga tarjima qilish muammolariga bag‘ishlangan. Maqolada o‘zbek ertaklari va uning koreys tiliga qilingan tarjimasi o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rsatib berilgan.

Chingiz Aytmatov aytganidek, “Tarjima – muhabbat farzandi”. Tarjima qilinayotgan har bir asarni yurakdan sevmay turib, tarjimaga kirishmagan ma’qul. Tarjimon bir zum ham nimani tarjima qilayotganini, qanchalik sharaflilik vazifani o‘z zimmasiga olganini, o‘sha buyuk asarni buyukligicha o‘z xalqi yoxud boshqa millat kitobxonlariga taqdim qilishi, bu ish juda katta mehnat, sabr-toqat, chidam talab qilishini, buni uddalash jasorat bilan teng ekanligini unutmasligi lozim. Sirasini aytganda, haqiqiy badiiy tarjima uning ilohiy huzur va azoblarini tom ma’noda boshdan kechirgandagina yaratiladi [9].

O‘zbek xalq ertaklari koreys tiliga mahoratli tarjimon Mahmaqulova Yayra Qudratovna tomonidan tarjima qilingan. Mazkur kitob “Zumrad va Qimmat”, “Oltin tarvuz”, “Ur to‘qmoq”, “Egri va To‘g‘ri”, “Kulsa - gul, yig‘lasa – dur”, “Saxiy va Baxil”, “Dono qiz”, “Uchar gilam”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Susambil”, “Tohir va Zuhra”, “Malikai Husnobod”, “Luqmoni Hakim” ertaklarini o‘z ichiga olgan.

Bizga ma’lumki, o‘zbek xalq ertaklari ko‘pincha bir bor ekan, bir yo‘q ekan jumalari bilan boshlanadi. Bu ertaklar tarjimasini o‘qib chiqqach, o‘zbek kitobxonida o‘zgacha bir hayratlanish hamda quvonish hissi paydo bo‘ladi. Chunki tarjimada ham ertaklar xuddi shu so‘zlar bilan boshlangan. Aynan ushbu jumla koreys tiliga “~~한번은 한 사람이~~ [2,28] ya’ni: “*Bir bor , bir yo‘q davrda bir bobo va bir buvi yashagan ekan* “ [2, 35] tarzida tarjima qilgan. Albatta bu tarjimonning mahorati hamda yutug‘idan dalolat beradi.

Ushbu jumalarning davomi bo‘lmish “*Bor ekan-u yo‘q ekan, och ekan-u to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, g‘oz karnaychi ekan*” [2,226] so‘zlari ham o‘z mazmunini saqlagan holda o‘girilgan. Bunga quyidagi misolni ko‘rib, amin bo‘lishingiz mumkin.: ~~한번은 한 사람이~~

Bu gaplardagi so‘zlarning ba‘zilar koreys tilida mavjud emasligi sababli ular shu so‘zga mos keluvchi tushunchalar bilan ifodalangan. Masalan: bakovul so‘zi – ~~바코~~ a’ni boshoshpaz hamda yasovul tushunchasi esa – ~~야소~~ qchi so‘zi bilan o‘girilgan [2,210].

Asarning yaxshi yoki yomon tarjima qilinganligi aslyatdagi so‘zlar soniga bog‘liq emas. Chunki Gogolning yozishicha, asardagi so‘zlardan, o‘sha asarga yaqinlashish uchun ataylab uzoqlashish kerak [3,328-329]. Chunonchi, shunday ifodalar, iboralar, nutq aylantirishlari borki, ularni

soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, tarjima qilinayotgan tilda soʻzlovchilar uchun tushunarlidek boʻlib tuyuladi-yu, biroq bunday qilinsa, baʼzi asarning yarim nafosati yoʻqoladi. Boshqa biror tilda yozilgan asarning kuchli, loʻnda qilib ifodalangan joylari tarjima qilinadigan tilning oʻquvchilariga tushunarli boʻlmaydi, chunki ular oʻsha tilning ruhiyatiga toʻgʻri kelmaydi; binobarin, bunday vaqtlarda asarning ana oʻsha nafosatli joylarini kitobxonga jumboqli tarzda yetkazmaslik uchun oʻnlab soʻzlar bilan berish kerak [4,5].

Ushbu toʻplamda eʼtiborni jalb qiladigan yana bir jihat shuki, faqat oʻzbek millatiga xos boʻlgan milliy xos soʻzlarni oʻz nomi bilan toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilib, unga izoh ham berib oʻtilgan. Misol uchun: oʻzbek millatining eng sevimli va milly taomi hisoblanmish “*palov*” [2,10] haqida ham “Zumrad va Qimmat” ertagida keltirilib, izoh berilgan. Yaʼni, uning qay tarzda tayyorlanishi, qanday sabzavotlar solinishi, toʻylarda yigitlarning nahorgi oshga borishi-yu, avvallari oshning qoʻl bilan, hozirda esa qoshiq yordamida yeyilishi toʻgʻrisida maʼlumot keltirilgan. Bu esa koreys kitobxoni uchun oʻzbek madaniyatidan bir yangilik sifatida xizmat qilgan.

Insonni, uning maʼnaviy olamini kashf etadigan bir qudratli vosita borki, u ham boʻlsa, soʻz sanʼati, badiiy adabiyotdir. Badiiy asarlar toʻqimasida uchraydigan kompozitsiya vositalaridan biri *epigraf* hisoblanadi. U asar gʻoyasini ishonarli ochishda mualliflarga qoʻl keladi [5,61]. Har bir asar uchun tanlangan epigraf uning mavzusi, gʻoyasi, yozuvchi aytmoqchi boʻlgan ichki kechinmalaridan kelib chiqib qoʻyiladi [5,62]. Ertaklar tarjimasi bilan tanishayotganingizda ham epigraflarga duch kelasiz. Masalan, “Dono qiz” ertagi uchun qoʻyilgan “*Ayolning husni pardozda emas, aqlida*” [2,77] epigrafini Mahmaqulova Yayra “~~Эпиграф~~” [2, 77] qabilida tarjima qilgan. Biz bu epigrafni oʻqigan zahotimiz uning mazmuni ertak gʻoyasi bilan nihoyatda bir-birini toʻldirib turishining guvohi boʻlishimiz mumkin.

Tarjimon xalqning tili, tarixi, etnografiyasi, madaniyatidan yaxshi xabardor boʻlishdan tashqari, soʻz tanlashda oʻziga xos didga ham ega boʻlishi zarur [4,5]. Mutarjim “Zumrad va Qimmat” ertagidagi Qimmatning oʻrmondagi kampirning uyi tomiga oʻtin olish uchun chiqqan paytida kampir bilan boʻlgan suhbatining tarjimasida biroz gʻalizlikka yoʻl qoʻygan. Kampirning Qimmatdan “*nega yigʻlayapsan, qizim?*” deganiga javoban Qimmat “*uyimni koʻrib qoldim, ketgim kelyapti*” jumlasini [2,19] “~~Эпиграф~~” [2,13], jumlasini “*uyim koʻrinib,*

oldingi fikrlar keldi” ya’ni “*eski xotiralar yodimga tushdi*” deb o‘g‘irgan. Biroq *uyimga ketgim kelyapti* iborasi bilan *eski xotiralar esimga tushdi* jumlasining orasida ma’no jihatdan ancha farq bor. Tarjimon *uyimga ketgim kelyapti* gapini “~~에이~~” deb tarjima qilganida maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ma’lumki, u yoki bu yozuvchi o‘z tilida mavjud bo‘lgan tilni maqol, matal va idiomatik birliklardan foydalanar ekan, bundan uning ko‘zlagan maqsadi o‘z asarining tilini boyitish, uning badiiy qimmatini oshirish va boy mazmunni qisqa, aniq shaklda berishdir. Maqollar obrazlar tilini individuallashtirishda ham muayyan vazifani bajaradi [4,5]. Xalq maqol va matallari til xazinasidir [7,223]. Maqol va matallar bamisoli barmoqlarni bukib, musht qilganday, materiallarni ixchamlashtirishga yordam beradi degan edi bir buyuk yozuvchi. Bundan kelib chiqadiki, maqol va matallar asarning asosiy g‘oyasini berishga ham xizmat qilar ekan.

Xususan, ertaklar tarjimasida ko‘pgina o‘zbek maqollari epigraf sifatida qo‘llanilgan. Jumladan, “Egri va To‘g‘ri” ertagiga epigraf etib tanlangan “*To‘g‘ri oshini yer, egri boshini*” [2,41] maqoli hech qanday o‘zgarishlarsiz koreys tiliga so‘zma–so‘z tarjima qilingan. “~~에이~~” [2,41].

“Ur to‘qmoq” ertagidagi epigrafga nazar solsak, u ertak mazmuniga aynan mos keladi. Ya’ni: “*Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich*” [2,28] maqoli “~~에이~~” [2,28] mazmuni: “Sening ovqating halol taom bo‘lsa, ko‘chada ye” tarzida chiroyli ifodalangan. Tarjimon bu orqali “Bir o‘q bilan ikki quyonni urgan” desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki mutarjim koreys kitobxonlarini o‘zbek xalq ertaklaridan bahramand etish bilan birga, ularni o‘zbek xalq maqollari bilan ham yaqindan tanishtirgan.

Sinonimlarni o‘z o‘rnida ishlatish yozuvchining mahorati va iste’dodidan darak beradi hamda har bir shoir, har bir adibning bilim doirasi, turmushni anglashi va ayniqsa, xalq jonli tilini qanchalik yaxshi bilishini ko‘rsatadi. Ulug‘ yozuvchilarning asarlarini mutolaa qilganda, ularda rang-barang sinonim so‘zlarning keng va o‘rinli ishlatilishining shohidi bo‘lamiz [6,218]. Tarjimon “Uch og‘a–ini botirlar ertagida “*Uch og‘a–inilar piyoda asta–sekin o‘rdaga bordilar*” [2, 197-b] gapini “~~에이~~” [2,176], ya’ni “*aka-ukalar asta-sekin piyoda yurib, saroyga*

borishdi” deya tarjima qilgan. Bu yerda o‘rda jumlasida *saroy* so‘zi o‘rnida sinonim sifatida qo‘llanilgan.

Barchamizga tanish va yod bo‘lib qolgan “Ur to‘qmoq” ertagida chollaylakning uyiga kelayotganida yilqichi bilan suhbat bo‘ladi. Tarjimon ushbu *yilqichi* [2,36] so‘zini koreys tiliga “~~말똥~~” ya’ni *ot boquvchi odam* deb bergan [2,29].

Shu o‘rinda yana bizga qadrdon “Zumrad va Qimmat” ertagiga qaytsak. “*Zumrad tomga chiqqanida uyini ko‘rib qolib, yig‘laganida kampir uni yupatib, birga osh yeyishdi*” [2,17] jumlasidagi *yupatmoq* so‘zi koreys tilidagi “~~잡다~~” [2,11], ya’nikim “*tinchlantirmoq*” ifodasida o‘z aksini topgan.

Tarjimashunos olim G.Gachacheladze “Realistik tarjima masalasi” nomli doktorlik dissertatsiyasida “Tarjimon asl nusxadagi shakl va mazmun birligini saqlashi kerak” deydi [6,5]. Bu ertaklar tarjimasining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, har bir ertak o‘z nomini saqlagan holda o‘girilib, unga berilgan izohda ushbu so‘zlar tarjimasi va ma’nosi ta’kidlab o‘tilganligidir. Masalan, “*Zumrad va Qimmat*” nomiga izoh “~~조금더~~ ~~조금더~~” [2,8] kabi berilgan. Tarjimon bunda asar qahramonlari nomini kitobxonga tushuntirish jarayonida koreys tilidagi ularning aynan muqobilini topa olgan.

Xulosa qilib aytganda, mutarjim tarjima qilish jarayonida asliyat in’ikosiga erisha olgan. Ushbu ijod mahsulini mutolaa qilayotgan koreys kitobxoni ertaklar olamiga sayohat qilibgina qolmasdan, balki o‘zi uchun o‘zbek milliy madaniyati olamini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] — Komilov N. Bu qadimiy san’at. Toshkent, 1988
- [2] — O‘zbek xalq ertaklarining koreys tiliga tarjimasi. Toshkent, 2014
- [4] — Sharipov J. Badiiy tarjima – do‘stlik quroli. Toshkent, 1974
- [5] — Badiiy asarda kompozitsiya va epigrafning roli. Samarqand, 2011
- [6] — Sharipov J. O‘zbekiston tarjima tarixidan. Toshkent, 1965
- [7] — Salomov G‘. Tarjimon mahorati. Toshkent, 1979
- [8] — www.ziyouz.com.
- [9] — [www. o‘qituvchi.uz](http://www.o‘qituvchi.uz).

*Ольга ПАК,
студентка 2-курса отделения Японской филологии
Научный руководитель: доц. Х. Хамидов*

КОНЦЕПТ ЗЕРКАЛА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЭДОГАВЫ РАМПО

Что представляет собой концепт? Концепт – это как бы сгусток культуры в сознании человека; то, в виде чего культура входит в ментальный мир человека. И, с другой стороны, концепт – это то, посредством чего человек – рядовой, обычный человек, не «творец культурных ценностей» – сам входит в культуру, а в некоторых случаях и влияет на нее [1,40]. Возьмем, например, представления рядового человека, не юриста, о «законном» и «противозаконном», – они концентрируются прежде всего в концепте «закон». И этот концепт существует в сознании (в ментальном мире) такого человека, конечно, не в виде четких понятий о «разделении властей», об исторической эволюции понятия закона, и т. п. Тот «пучок» представлений, понятий, знаний, ассоциаций, переживаний, который сопровождает слово закон, и есть концепт «закон». В отличие от понятий в собственном смысле термина (таких, скажем, как «постановление», «юридический акт», «текст закона» и т. п.), концепты не только мыслятся, они переживаются. Они – предмет эмоций, симпатий и антипатий, а иногда и столкновений. Концепт – основная ячейка культуры в ментальном мире⁵ человека.

Как отмечает С.Г.Воркачев, «в конкурентной борьбе в российской лингвистической литературе» с начала 90-х гг. прошлого века столкнулись «концепт» (Н.Д.Арутюнова, С.А.Аскольдов-Алексеев, Д.С.Лихачев, Ю.С.Степанов, В.П.Нерознак, С.Х.Ляпин), «лингвокультурема» (Воробьев В.В.) «мифологема»⁶ (М.Лехтеэнмяки, В.Н.Базылев), «логоэпистема» (Е.М.Верещагин, В.Г.Костомаров, Н.Д.Бурвикова), «однако на сегодняшний день становится очевидным, что наиболее жизнеспособным здесь оказался "концепт", по частоте употребления значительно опередивший все прочие протерминологические новообразования» [2,41].

⁵ Ментальный мир – сознание человека.

⁶ Мифологема – термин, обозначающий мифологические сюжеты и образы.

Дело в том, что концепт – категория мыслительная, ненаблюдаемая, и это дает большой простор для ее толкования. Категория концепта фигурирует сегодня в исследованиях философов, логиков, психологов, культурологов, и она несет на себе следы всех этих внелингвистических интерпретаций.

Впервые в отечественной науке термин концепт был употреблен С.А.Аскольдовым-Алексеевым в 1928 г. Ученый определил концепт как мысленное образование, которое замещает в процессе мысли неопределенное множество предметов, действий, мыслительных функций одного и того же рода (концепты растение, справедливость, математические концепты).

Предметом темы является изучение концепта зеркала в произведениях жанра художественного вымысла в сочетании с реалистичным описанием, присущим Эдогаве Рампо. Эдогава Рампо – литературный псевдоним Таро Хирои, основоположника детективного жанра в японской литературе. Он сыграл у себя на родине ту же роль, что и Эдгар Аллан По – на Западе. Однако творчество японского писателя глубоко национально. Литературный критик Корэскэ Исигами отмечает: «Если По – писатель XIX века, то Эдогава Рампо дитя XX века. Если первый – великий мистик⁷, то второй не менее великий мистификатор⁸» [3]. Рассказы Рампо – блестящий образец так называемого интуитивного детектива. Творческое наследие насчитывает 25 томов [5].

Для управления вниманием читателя, для властвования над его восприятием литературные произведения обогащаются выразительными художественными средствами, дополняющими композиционное решение и живописную структуру произведения. Сопоставление особенностей реального предмета с конкретным концептом необходимо, когда речь идет о современном художественном синтезе. Это обогащает, совершенствует и помогает найти все новые и новые выразительные средства как для самого традиционного, так и новаторского отображения действительности. Концептуальное опосредование предметов бытия является нечто уже созданное в изобразительном искусстве, но находящееся на новом витке технического и художественного

⁷ Мистик – человек, склонный к мистицизму, сторонник мистической теории.

⁸ Мистификатор – человек, создающий миф.

прогресса, а потому и ранее не существовавшее. Прослеживая взаимосвязь между использованием зеркал в живописи и в письменных произведениях, изобразительными по своей визуальной художественной природе, можно определить детерминированность развития этих двух смежных видов искусства.

Использование зеркал и связанных с ними метафор в литературе – многозначный способ раскрытия сценарной идеи, способ создания их вариативности. Так, например, в произведениях многих великих мастеров, использующих комбинаторика изобразительных схем присутствует эффект двойного видения – непосредственного и зеркального.

«Образ зеркала в культуре раскрывает прежде всего образ мира и человека, в него смотрящегося. Художественные образы отраженного мира и человека знаменуют стремление эпохи к самоанализу и самопознанию» [4,87].

Зеркала, как символ истины, разума, самореализации, приобретают значение, выходящее за рамки их непосредственной функции. В этом смысле зеркала могут удерживать душу или жизненную энергию отраженного человека; поэтому по народному обычаю при смерти человека требуется завешивать зеркала, чтобы не заковать его душу в мертвой комнате и сделать для нее возможным переход в потусторонний мир. Демоны и сверхъестественные существа обнаруживают себя тем, что не могут отражаться в зеркале, в то время как дьявольские воплощения не могут переносить своего собственного вида и умирают при взгляде на самих себя. Поэтому зеркала также являются амулетами, защищающими от сатанинских существ и сил. Первоначально это, очевидно, относилось только к поверхностям воды, которые служили также в качестве вспомогательного средства при предсказаниях, так как они якобы делали видимым нечто подобное «отраженному миру». В античности были распространены зеркала из полированной бронзы и серебра. Этрусские⁹ дисковидные зеркала знамениты своими резными украшениями и гравировкой на обратной стороне, где иллюстрируются религиозные сюжеты (например, подвиги Геракла), и, вероятно, поэтому играют роль, выходящую за рамки обыденной жизни.

⁹ Этруски – древняя цивилизация Апеннинского полуострова.

В Древней Мексике зеркало изготовлялось путем полирования вулканического стекла – обсидиана; имя ацтекского бога Тецкатлипока в переводе означает «дымящее зеркало». В этом случае тоже очень вероятно значение зеркала как предмета, обладающего даром предвидения, например, при провоцировании видений.

Особым значением зеркало обладает в японских синтоистских преданиях. Оно – атрибут богини солнца Аматэрасу. Священное зеркало относится к табуированному императорскому сокровищу (вместе с жемчужинами и мечом), носит название Ятанокагами и хранится в святилище Исы, защищенное от обычных смертных. Оно должно быть из бронзы, иметь диаметр 25 см и форму восьмилепесткового цветка лотоса. В качестве тронного знака отличия оно кладется в руку каждому новому императору. Следуя неизменной традиции, на нем ставится надпись, подобная откровению иудейского Бога «Я есмь сущий».

В западной иконографии значение у зеркала двойное. С одной стороны, оно изображается в руке совращающих людей сирен, является также атрибутом персонифицированной Люксурии (похоть, тщеславие), но с другой стороны – Правды, добродетели самопознания и Ума. Кроме того, зеркало – символ Марии, так как Господь отразился и скопировался через свое подобие Иисуса в Деве Марии, не повредив и не изменив самого зеркала. Луна тоже становится символом Марии в сходном смысловом толковании, так как она отражает свет Солнца. В народе глаза называются «зеркалом души»; светлое зеркало символизирует счастье в браке, разбитое – несчастье.

Анализ концепта зеркала привел к выводу о том, что наиболее распространенной трактовкой данного концепта является отражение внутреннего мира человека, свойств его психики и подсознания.

Использованная литература:

[1] – Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры: опыт исследования. –М., 1997, 824 с.

[2] – Воркачев С. Г. Концепт любви в русском языковом сознании // Коммуникативные исследования 2003: Современная антология. Волгоград: Перемена, 2003.

[3] – Воркачев С. Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. Краснодар, 2002.

[4] – Рон М. В. Метафоры образа зеркала в истории культуры. – СПб., 2004.

[5] – Рампо Э., Демоны Луны, СПб, 2000.

Ulug'berdi PARDAYEV,
ToshDSHI, "*Tarjima nazariyasi va amaliyoti*"
yo'nalishi I-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. X.Hamidov

AZIZ NESIN HIKOYALARI O'ZBEK TILIDA

Mustaqilligimiz jamiyat hayotining barcha jabhalari, jumladan, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy, madaniy sohalar taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Badiiy tarjima sohasi ham bundan chetda qolgani yoq. O'tgan chorak asr davomida tarjimonlarimiz turli tillardan ko'plab badiiy asarlarni tarjima qilish orqali o'zbek adabiyotining yanada boyishiga ulkan hissa qo'shdilar va bu jarayon davom etmoqda.

Sharq tillaridan ona tilimizga qilingan tarjimalar ichida turk tilidan qilingan asarlar salmoqli o'rin egallaydi. Bular ichida asl ismi Mahmud Nusrat bo'lgan turk hajv yozuvchisi, dramaturg Aziz Nesinning hikoyalari alohida e'tiborga loyiq. 80 yillik hayoti davomida 110 dan ortiq kitob nashr ettirgan yozuvchining asarlari dunyoning 30 dan ortiq tillariga tarjima qilingan va ko'plab xalqaro mukofatlarga sazovar bo'lgan. Jumladan, yozuvchining "*Dafna chamber*" asari hajvchi yozuvchilar tanlovida mukofotga sazovar bo'lgan.

A.Nesinning "*Ishbilarmon odam*", "*Xudoga shukur*", "*Jinnilar ozod bo'ladi*", "*Nozik va nafis*" va boshqa o'nlab asarlarida jamiyat hayotining eng dolzarb mavzulari qalamga olingan. Adib o'z asarlarida kulgili vaziyatlar orqali kishilarning o'z nuqsonlari ustidan beixtiyor kulishga majbur qiladi va jamiyatda mavjud bo'lgan illatlarni fosh qiladi. "*Yashasin kambag'allik*", "*Maydon soatlari*", "*Xotin kishi bo'lganimdayu*", "*Shunday bo'ldi bunday bo'lmaydi*" kabi asarlarning qahramonlari ish qidiraverib bezor bo'lgan, mayda amaldorlar, omadsiz, yo'qsil kishilardir [1].

O'zbekistonda A.Nesinning nomini eshitmagan va uning ichakuzdi hikoyalarini o'qimagan odam kam topilsa kerak. Bunda XX asrning 60-yillarida o'zbek kitobxonlarini A.Nesin asarlari bilan ilk tanishtirgan taniqli tarjimon Miad Hakimovning xizmatlari katta. O'sha yillarda turk

adibining “*Musht ketdi*”, “*Hushtak afandim*” kabi asarlari xalq orasida yaxshi tanilgan.

Hikoyalarida ijtimoiy-iqtisodiy illatlarni hajv vositasida ustalik bilan ochib bergan Aziz Nesin satira va yumor janrlarida birdek ijod qilgan. “*Hajvchilar o‘z ko‘z-yoshlarini qahqahaga aylantirib, boshqalarga taqdim etadigan kimyogarlardir*” – deb ta’kidlagan edi uning o‘zi [1, 3].

Kichkina hikoya tagida katta ma’no-mazmunni yashira olgan hajvchining asarlari so‘nggi yarim asr mobaynida Miad Hakimov, Shodmon Otabekov, Nosir Muhammad va boshqa yosh tarjimonlar tomonidan o‘zbek tiliga o‘girildi [1]. O‘tgan asrning 60-70 yillarida tarjima qilingan hikoyalarning ayrimlari yarim asr o‘tib yangidan tarjima qilindi. Bu A.Nesin hajviga yangidan qiziqish uyg‘onganidan dalolat beradi. Ushbu maqolada tahlilga tortilgan hikoyalarning ko‘pchiligi o‘zbek tiliga ikki marotaba tarjima qilingan. Masalan, “*Bay Düdük*” [3,3-6], hikoyasi 60-yillarda Miad Hakimov tomonidan [1,65-72], 2014 yilda Xayrulla Hamidov tomonidan [2,99-105] o‘zbekchaga o‘girilgan.

A.Nesinning hajviy hikoyalardan eng mashhuri “*Bay Düdük*” hikoyasidir (“bay” – janob, “düdük” – hushtak degani). Miad Hakimov mazkur hikoyani “*Hushtak Afandim*” deb o‘zbekchalashtirgan va uni o‘zbek kitobxonlari juda yaxshi kutib olishgan. Agar sarlavha turk tiliga qayta ag‘darilsa, “*Düdük efendim*” bo‘ladi va bu birikma grammatik jihatdan noto‘g‘ri bo‘ladi. X.Xamidov esa hikoyani “*Janob “hushtak”*” deya so‘zma-so‘z o‘giran, lekin ham grammatik, ham ma’no jihatdan asliyatga to‘la muvofiq kelgan. Shunga qaramay, “*Hushtak Afandim*” kitobxonga ancha yaqin bo‘lib qolgan.

Endi hikoya tarjimasiga diqqat qiladigan bo‘lsak, ikkala tarjimon ham hikoyani o‘zbek tiliga o‘girar ekan turkcha iboralarni tarjimada berish ishiga katta e’tibor berishgan. Masalan: “*Maçka’dan Dolmabahçe’ye doğru,iste böyle en olmayacak şeyleri düşünce düşünce gidiyordum.Stadyumun önüne geldim, bir ana baba günü*” [3, 3]. M.Hakimov tarjimasida ushbu jumla “*O‘zim Machkadan Do‘lmabog‘cha tomonga qarab ketyapman-u,yetti uxlab tushga kirmaydigan hayollar og‘ushidaman.Bir payt qarasam, stadionning oldidan chiqib qolibman. Xuddi qiyomat qoyim bo‘lganga o‘xshaydi*” [1, 65] deb berilgan. X.Xamidov esa jumlanı “*Ana shunaqa be‘mani narsalarni o‘ylay-o‘ylay Machkadan Do‘lmabog‘chaga qarab boryapman.Stadion yoniga keldim, tumonat odam, it egasini tanimaydi*” [2,99] deb o‘giran. Tarjimonlar “*ana baba günü*” iborasini “*Xuddi qiyomat qoyim bo‘lganga o‘xshaydi*”

va “*it egasini tanimaydi*” iboralarini orqali berganlarki, asliyat iborasiga ma’no nuqtayi nazaridan to’la muvofiq kelgan.

Yozuvchi stadiondagi olomonni tasvirlar ekan “*İnsan anaforunun içinde bir o yana, bir bu yana fîrîr dönüyordum*” [3, 3] deydi. Buni M.Hakimov “*Girdobga tushib qolgan odamday turgan joyimda gir-gir aylanaman*” [1,65] deb tarjima qiladi. X.Hamidov tarjimasida esa jumlaning “*Odam shunchalik ko’pki, girdobga tushgandek, goh u yoqqa, goh bu yoqqa chayqalaman*” [2,99] – deb o’girilganini ko’ramiz. Ikkala tarjima ham kitobxonga nihoyatda tushunarli, badiiy estetik jihatdan ham yuqori darajada, biroq ikkinchi tarjimada har bir so’z e’tibordan chetda qoldirilmagani va so’zlar chertib-chertib tanlanganiga guvoh bo’lamiz..

Tarjimalar tahlili sirasida ayrim jumlar tushirib qoldirilganligini kuzatish mumkin. Masalan: “*Bir dalga geliyor, elli metre aşağı iniyoruz, önden itiyorlar, yirmi adım geri bas; arkadan dayanıyorlar, otuz adım öne yürü*” [3, 3] jumlasini M.Hakimov quyidagicha o’giradi: “*Ba’zan yuqoridan bosib qolishsa, ellik qadam orqaga tashlaymiz, orqadan surib kelishadigan bo’lsa, yana shuncha oldinga siljiymiz*” [1, 65]. Asl nusxadagi ayrim birikmalarning tarjimada tushirilib qoldirilganini ko’rish mumkin. X.Hamidov tarjimasiga e’tibor berilsa, jumlaning to’laqonli, asliyatning bironta so’zi “qurbon” qilinmasdan berilganiga amin bo’lamiz: [2, 99].

Tarjimonlar turkcha gaplarning ma’nosiga mos keladigan ajoyib iboralar qo’llaganlar: “*Sarhoşlar birbirlerine girdiler. Onlar bıcaklar forâ ederken bizim Musa da düdüğe asıldı. O aslan kesilmiş kavgacılar, düdüğün bir furt etmesiyle uyuz it gibi kuyruklarını kısıp oturdular*” [3,5]. Ushbu parchani M.Hakimov quyidagicha tarjima qilgan: “*Mast-alast odamlar yoqa bo’g’ishib ketishdi. Ish pichoqqa borib taqalay deganda, Musa hushtak chalib yubordi. Hozirgina bir-biri bilan sherday olishib turgan azamatlar churillagan ovozni eshitiboq dumlarini qisib qolishdi*” [1, 69]. Parchani X.Hamidov tarjimasida o’qiymiz: “*Shirakayf mijozlardan bir nechtasi janjal boshlashibdi. Bir-ikkitasi pichoq chiqarib havoda o’ynata boshlaganda, bizning Musa hushtagini qo’liga oldi. “Sheryurak” pahlavonlar hushtak ovozini eshitishlari bilan qo’tir it kabi dumlarini qisishib, bir lahzada “in-inlariga” kirib ketishdi*” [2, 103]. Asliyatdagi “*uyuz it gibi kuyruklarını kısıp oturdular*” birikmasi M.Hakimov tarjimasida “*Azamatlar dumlarini qisib qolishdi*” shaklida, ikkinchi tarjimada esa “*qo’tir it kabi dumlarini qisishib, bir lahzada “in-inlariga” kirib ketishdi*” shaklida berilgan. Ya’ni bu o’rinda tarjimonlar

foydalangan jumlarlar orqali yozuvchi ifodalagan ma'noni to'la-to'kis ifoda etolganlar.

Biroq tarjimaning ba'zi joylarida kamchiliklar mavjud. M.Hakimov tarjimasida asl nusxadagi "*bir kilo bonfile...*" [3, 4] gapi "*Bir kilo yumshoqroq go'sht kerak edi*" [1, 68] shaklida tarjima qilingan. Aslida "*Bonfile*" so'zining ma'nosi aynan "yumshoq" degan ma'noni bildiradi. Biroq "*Yumshoqroq go'sht*" so'zining o'rniga "*laxm go'sht*" so'zidan foydalanilganda tarjima go'zalligi yanada oshardi va maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xulosa qilib quyidagilarni ta'kidlash lozim. Albatta, o'zga tildagi asarlarning ma'no mazmunini o'z ona tilingizdagidek o'girish bu tarjimon oldidagi mas'uliyatli vazifalardan hisoblanadi. Chunki tarjimondan nafaqat asarni tushinish, undagi asosiy g'oyalarni anglash, bu g'oyalarni o'z ona tilidagi kabi bera olish muhimdir. Bu vazifalarni tarjimonlarimiz a'lo darajada bajara olganlar. Aziz Nesinning "*Hushtak Afandim*" hajviy hikoyasi mohirona tarzda o'zbek tiliga o'girilganligini ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Aziz Nesin. "*Hushtak Afandim*" (Hajviy hikoyalar).-Toshkent: "O'zbekiston", 2015.

[2] – "Bu qadimiy san'at" tarjima maktabi talabalari almanaxi.-Toshkent, 2014.

[3] – "Bay Düdük".

[4] – "Tarjima masalalari" (Ilmiy maqolalar to'plami).-Toshkent, 2014.

Parizod KO‘CHIMOVA,
ToshDSHI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. X.Hamidov

BADIIY TARJIMADA SO‘Z TANLASH MUAMMOSI **(V.Rasputinning “Yong‘in” (“Пожар”) qissasi tarjimasida)**

“Badiiy asar bamisoli muhtasham bino. Yaxshi badiiy asar jahon adabiyoti xazinasidan o‘zining munosib o‘rnini topib, inson ahlini bahramand etadi, mo‘jaz shaklda bir olam ma’no mujassam etib avloddan avlodga o‘tib kelaveradi. Yozuvchi xalq jonli tilida ifoda etilgan, ommaga tushunarli adabiy til vositasida asar yaratadi” – deb yozadi Xayrulla Hamidov [1,1]. Darhaqiqat, yozuvchi o‘z qahramonlarining xatti-harakatlarini tasvirlar ekan, ularning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ularini obrazlar vositasida ifodalashga intiladi. Badiiy asarni xuddi aslidagidek tarjima qilish esa tarjimondan juda katta mahorat talab qiladi. Chunki eng kuchli, mohir tarjimon ham badiiy asar tarjimasida bir qancha murakkabliklarga duch keladi. Yozuvchi yaratgan obrazlarning mohiyatini ochib beruvchi so‘z va iboralarni, ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni, umumxalq tilidan olingan gaplarni tarjima qilishning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari bor.

“Tilning asosiy materiali so‘zdir. Shuning uchun biron til haqida gap ketganda tinglovchi nazarida birinchi navbatda o‘sha tilning so‘z boyligi gavdalanadi” [4,163]. Asar tarjimasida ham tarjimondan yaxshi so‘z boyligiga ega bo‘lish talab etiladi. Shundagina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin. So‘z alohida holda har doim ham to‘laqonli ma’no kasb eta olmaydi. Uning ma’nosi birikma yoki gap ichida ochiladi. So‘zning kontekstga muvofiq ma’no kasb etishi tilning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tarjimashunosligining yorqin namoyondalaridan biri Ibrohim G‘ofurov hisoblanadi. U ko‘plab asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. O‘zbekistonda tarjima ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Tarjimada so‘zning o‘rni juda muhim. I.G‘ofurov asliyatdagi tabiatni qayta yaratayotganda, qahramonlar portretini qayta tasvirlayotganda, ularning hissiyotlarini qayta ifodalayotganda shunday so‘zlarni tanlaydiki, tarjimini asl nusxadan farqlab bo‘lmay qoladi.

Taniqli rus yozuvchisi Valentin Rasputinning “Yong‘in” (“Пожар”) qissasini I.G‘ofurov tarjimasida o‘qir ekan kitobxonda ana shunday fikr uyg‘onishi tabiiy. Asardan bir misol keltiraylik: “До того было

моторно и угарно на душе у Ивана Петровича, что почудилось, будто крики идут из него” [2,6]. Tarjimon ushbu gapni quyidagicha o‘g‘irgan: “*Dili vayron, jigarso‘xta Ivan Petrovichga qichqiriqlar dahvatan ichidan chiqayotganday eshitildi*” [3,2]. Asliyat jumlasidagi “*моторно*” so‘zi lug‘atda “*yurakni siqadigan qilib, yurakni siqib*”, “*угарно*” so‘zi esa “*bo‘g‘uvchi*” deya izohlanadi. Tarjimon bu ikki so‘zni birlashtirib, ularga to‘la mos keladigan “*jigarso‘xta*” so‘zini tanlagan va tarjimada bergan. Ya’ni oddiy bir so‘z bilan keng ma’noni fodalay olgan.

Tarjima jarayonida ma’noning ro‘yobga chiqishida g‘ayrilisoniy omillar, so‘zlovchining o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud nutq vaziyati hisobga olinadi. Ibrohim G‘ofurov shularni hisobga olgan holda Ivan Petrovichning holatini bir so‘z bilan aks ettirgan. Bir qarashda bu so‘z hammaga ham tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Ammo Ivan Petrovichning holati uchun bu so‘z juda mos tushadi.

Shuningdek, ushbu jumladagi “*dahvatan*” so‘ziga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uni ko‘pchilik tushunmasligi mumkin. Ayrimlar hattoki birinchi bor bu so‘zga duch kelsa kerak. Tarjimon bu jumlani oddiygina “*qichqiriqlar ichidan chiqayotganday*” deb tarjima qilsa bo‘lar edi. Lekin asar qahramonining hissiyotlarini, o‘sha paytdagi holatini o‘quvchiga aynan yetkazib berish uchun shu so‘zni qo‘llagan.

“Вскоре разглядел он в соседней деревне Алену, которая так неумело и бесхитростно таращила на него свои и без того огромные зенки и так испугалась, когда он впервые взял ее под руку...”[2,32-стр]. Tarjimasi: “*Alyonani ko‘z ostiga oldi. Alyona uyalib, qimtinib, o‘hu ko‘zlarini ochib qaradi, birinchi marta uning qo‘lidan ushlaganda shunchalar ham qo‘rqib ketdiki...*” [3,10-bet]

Ushbu jumladagi “*неумело*” va “*бесхитростно*” so‘zlariga nazar soladigan bo‘lsak, ular o‘zbek tiliga boshqacha tarjima qilingan. Aslini olganda, bu so‘lar “*no‘noqlik*” va “*soddalik bilan*” tarzida tarjima qilinadi. Agar tarjimon bu so‘zlarni shunday tarjima qilganida jumla qandaydir salbiy ma’no ifodalayotganday ko‘rinar hamda qahramonning qay ahvoldaligini, hissiyotlarini o‘quvchi tushunmay qolar edi. Tarjimon ushbu so‘zlarni “*uyalib*”, “*qimtinib*” deya tarjima qilib sira adashmagan.

Yuqorida aytib o‘tilgandek, tarjimada albatta murakkabliklar uchraydi. Har qanday mohir tarjimon ham bunday muammolarga yechim topa olmay qolishi mumkin. Bu borada quyidagi jumlani misol keltirish mumkin:

– *Не сюда. Не сюда, гражданин законник. Сгоришь – кто нам будет права качать?![2,28]*

Ushbu jumla quyidagicha tarjima qilingan:

“ –*Borma. Borma, grajdanin qonunchi, sen yonib ketsang, kim bizga qonun so‘kadi.*” Ushbu jumladagi “*права качать*” so‘zlarini tarjimon “*qonun so‘kadi*” [3,9-bet] deya tarjima qilgan. Bu bilan tarjimon xatolikka yo‘l qo‘ygan. Chunki qonun so‘kadi so‘zlarini juda kam kitobxon tushunadi.

Yuqoridagi misollarda ko‘rinib turibdiki, badiiy asar tarjimasi o‘ziga yarasha murakkabliklarga ega. Badiiy asarda so‘z tanlash esa yanada ko‘proq muammolar keltirib chiqaradi. Ularni tarjima qilish esa tarjimondan juda katta mahorat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Hamidov X., O‘zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. – T., 2014. – 140 b.

[2] – Распутин В, Пожар, роман, –Москва, 1986.

[3] – Rasputin V., Yong‘in, qissa, ruschadan Ibrohim G‘ofurov tarjimasi – Toshkent, 1989.

[4] – Саломов Г‘., Тил ва таржима. –Т.: Фан, 1966.

Kamola FARXODOVA,
ToshDShI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. X.Hamidov

“CHINGIZXONNING OQ BULUTI” ASARI O‘ZBEKCHA TARJIMASIDA SO‘Z TANLASH MASALASI

So‘zimning boshida tarjima tushunchasiga to‘xtalib o‘tmoqchiman. Tarjima-deganda jumla yoki so‘zning bir tildan boshqa bir tilga o‘girish tushuniladi. Tarjima qilish jarayonida tarjimon juda ham ko‘p murakkabliklarga duch keladi. Tarjimon ishi, u tarjima qilayotgan asarni muallifi ishidan anchagina murakkabroq deb o‘ylayman. Sababi, muallif erkin ijod qiladi, o‘z fikrini go‘zallashtirib qog‘ozga tushuradi. Tarjimon esa huddi qafasdagi qushga o‘xshaydi. Qushning uzoqlarga uchib ketgisi kelgani kabi, tarjimon ham adibning asarini tarjima qilayotganda ilhomlanib, qo‘shimchalar kiritgisi, ba’zi joylarini esa mutloq o‘zgartirib

yuborgisi keladi. Ammo, tarjimonning ijod yo‘li ma’lum qoidalar sababli chegaralangan. U faqatgina adibning yozganlarini tarjima qiladi, tarjimon erkin ijodiy ishlashi mumkin, ammo u ma’lum qoidalarga asoslanadi. Uning asosiy vazifasi asarning mazmuni, milliy ruhiga putr yetkazmaslik asarni adekvat qayta yaratishdan iborat. Bu kabi talablarga javob bera olish uchun tarjimon tug‘ma iste’dodga ega bo‘lishi kerak.

Rus yozuvchisi V.K.Trediakovskiyning “Muhabbat oroliga safar” asarining kirish qismida tarjimonga shunday ta’rif berildi: “Tarjimon ijodkordan faqat o‘z nomi bilangina farq qiladi.” [1,12].

Darhaqiqat, tarjimon ikki tilni bilibgina qolmay ijodkorlik qobiliyatiga ham ega bo‘lishi asarning ruhiyatini bera olishi kerak. Deylik kitobxon asl nusxani o‘qiganidan keyin tarjima tilini ham bilgani uchun tarjima matnini o‘qiganida ham undagi farqni sezmasligi kerak. Tarjimani o‘qigan kitobxon asl nusxani o‘qiganday tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Bu esa tarjimonning asarni qay darajada mahorat bilan o‘giranini ko‘rsatadi.

Suyun Qorayevning ijod namunalaridan biri Chingiz Aytmatov qalamiga mansub “*Белое облако Чингисхана*” (“Chingizxonning oq buluti”) asaridir.

Tarjimon ushbu asarda so‘z tanlashga alohida ahamiyat bergan. Rus tilidagi ba’zi so‘zlarning aynan ekvivalenti o‘zbek tilida bo‘lmazligi yoki aksincha turli ma’nolarda kasb etishi mumkin. Tarjimon so‘zlarning ana shunday jihatiga e’tibor qaratgan. Misol tariqasida asarda tabiat tasviri berilgan quyidagi jumlaning olib ko‘raylik: “*Поезда в этих краях шли с запада на восток и с востока на запад... Пробиваясь сквозь белую летучую мглу, беспрестанно вздымаемую ветрами с холодных сарозекских равнин, машинистам проходящих поездов в те метельные февральские ночи стоило немало усилий разглядеть среди снежных заносов в степи полустанок Боранли-Буранный. Объятие клубящимися вихрями, ночные поезда приходили и уходили во мгле, как в беспокойном, тревожном сновидении...*” [2,1]

Ushbu parchani o‘qiganimizda qishning qahraton kunlari, yerning oppoq libosga burkangani ko‘z oldimizga keladi. Chingiz Aytmatov mahorat bilan tasvirlagan manzara tarjimada quyidagicha aks etgan: “*Bu tomonlarda poezdlar g‘arbdan sharqqa va sharqdan g‘arbgaga qatnagani qatnagan... Sari o‘zakning dalalari bo‘ylab ayozli shamol g‘azabnok quturib, oppoq qor unini osmoni falakkacha to‘zg‘itib yurgan qahraton qish chillasida oq libos kiygan dashtdagi tungi Bo‘ronli bekatini qor uyumlari orasidan topish poezd haydovchilari uchun oson emas edi.*

O'ynoqlagan qor bo'ronlariga burkangan tungi poezdlar nim qorong'ida yomon tushdagiday bezovta kelib ketaveradi.” [3,3]

Asliyatdagi manzara tarjima matnida ham o'z go'zalligini yoqotmagan. O'zbek kitobxoni ushbu jumlani o'qiganida ko'z oldiga qish manzarasi keladi.

Tarjimani tahlil qilish sarasida mening e'tiborimni ayrim vulgarizmlar tortdi. O'zbek tarjimashunosligida vulgarizmlar “beparda so'zlar” deyiladi. Asarda muallif bir qancha beparda so'zlarni qo'llagan. Asardagi beparda so'zlarni lug'at yordamida o'zbek tiliga tarjima qilganimizda asarning tarjimasida keltirilgan ekvivalentni emas balki, mutloq boshqa so'zni ko'ramiz, ularning ma'nolari bir xil shunchaki shakllari turlicha. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, tarjimon so'zning sinonimlari ichidan aynan asarda ko'rsatilgan jarayonga mos keluvchi va uning sinonimlarini jamlovchi so'zni qo'llay olgan. Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin: *"Не отворачивайся к стене, сволочь! Не закрывай голову, гад! Власовец!"* [2,2]. Bu jumlani tarjimon quyidagicha tarjima qilgan: *«Devorga qarab yotma, ablah! Boshingni yopma, yaramas! Vlasovchi!»* [3,4]. Bu gapdagi “svoloch” so'zining lug'aviy ma'nosi- muttaham, qallob, ko'ppakdir. Tarjimon uni “ablah” deb o'giran. Ablah-so'zining o'zini rus tiliga tarjima qilsak, негодяй - so'zi kelib chiqadi. Tarjimonning mahorati ham shunda. U turli ma'no qirralarga ega bo'lgan so'zni eng muqobil so'z bilan ifodalay olgan. U shunday so'z topganki so'zning barcha ma'nolari mujassamdir. Yana bir so'zga e'tibor beraylik, u “гад”-so'zini “yaramas”-deb tarjima qilgan. O'zbek tilidagi yaramas- so'zini qayta rus tiliga tarjima qilganda, “poddonok”- so'zi kelib chiqadi. Lekin lug'at orqali Rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilganda, gad-so'zi yaramas odamlarga nisbata ham ishlatilishi chiqib keldi. Demak, ushbu so'zning tarjimasida tarjimonning qo'llagan so'zi lug'at bilan bir xil chiqdi. Yana bir narsaga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Bu yerda *“Власовец”* ya'ni *“ Vlasovchi”* so'zi mavjud, bu ham beparda so'z ammo, bu so'zdan ursh davrlaridagina foydalanilgan. Ushbu so'zni vatan hoyinlari yoki boshqacha qilib aytganda o'z yurti uchun jonini ham berishga tayyor bo'lmagan, yurti uchun kurashmay qochib ketganlarga nisbatan qo'llaganlar. Manashu birgina so'zdan ko'pgina ma'lumotga ega bo'lsak bo'ladi. Tarjimon uni transkripsiya usuli orqali tarjima qilgan ya'ni, kitobxon uchun tushunarli bo'lishi va so'z o'z ma'nosi, kuchini yoqotmasligi uchun uni harflarini o'zgartiribgina tarjima qilgan. Xuddi shu kabi yana bir misolni keltirishimiz mumkin: *"Я бы тебя на фронте давно пристрелил,*

как бешеную собаку!" [2,2] Yuqoridagi jumlani tarjimon: «*Frontda bo'lganingda sen ablahni quturgan itday otib tashlagan bo'lar edim!*» [3,4] deya tarjima qilgan. Ko'rib turganingizdek, bu yerda tarjimon erkin tarjima usulidan foydalanib ijodiy yondashgan. Tarjimon asardagi qahramonning hissiyotlarini yanada bo'rttirib tarjima qilgan.

Tarjimon ijodkor bo'lishi kerak va huddi yozuvchiday fikrlay olishi, uni o'rniga o'zini qo'yib ko'rishi, uni o'rnida bo'lganida asarni qanday yaratgan bolar edim? Degan so'vollarini o'ziga berib ko'rishi kerak. Tarjimon o'zidan qo'shishi, bo'rttirishi mumkin. Albatta, asarning milliy ruhini va undagi ma'noni saqlab qolgan holatda. Yuqorida ko'rgan jumlamizda ham tarjimon bo'rttirish usulini mahorat bilan qo'llagan. Bu yerda ablah so'zi qo'shimcha tarzida kiritilgan va bo'rttirish orqali qahramonning g'azablanayotganini bildirgan. Mana shu birgina so'z qahramonning qanchalar g'azablanayotganini va afsuslanayotganini bildiradi. Tarjimon shunday tarjima qilganki o'quvchi shu jumlani o'qiganiida qahramonning ruhiy kechinmalarini bilib oladi. Bu darajada tarjima qilish uchun esa yetarli bilimga ega bo'lish va ma'lum bir ma'noda ijodkor bo'lish kerak.

Tarjimashunos Xayrulla Hamidov "Tarjima, bir qarashda, oddiy ish jarayoniga o'xshasada, asar boshqa tilda qayta yaratilar ekan, tarjimon ijodiy vazifa bilan band bo'lib, muallif singari har bir so'z, birikma, jumla uchun barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Demak, tarjimon asliyatni yozuvchi yoki shoir sifatida o'qib, idrok eta olsagina, uni muvaffaqiyat kutadi" – deb yozar ekan, tarjimon so'z zamiridagi muallif ko'rgan narsani ko'rishi, u his qilgan narsani tuyishi kerakligi, aks holda tarjimada so'z qanchalik maqbul tanlangan bo'lmasin, ma'no anglashilmay qolishi mumkinligini ta'kidlaydi [4,13].

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko'rsatilgan bir necha misollardan bilsak bo'ladiki tarjimonlik kasbi o'ta murakkab va nozik kasbdir. Ko'pchilik ustozlarimiz aytishganidek har kim ham tarjimon bo'la olmaydi buning uchun yetarli qobiliyatga ega bo'lish kerak. Tarjimon faqat til bilish bilangina chegaralanib qolmasdan u ijodkor, san'at shaydosi va yaratuvchi bo'lishi kerak. Shundagina undan buyuk tarjimon chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] – Саломов Ғ., Тил ва таржима. –Т.: Фан, 1966.
- [2] – Айтматов Чингиз, Белое облако Чингисхана, роман.
- [3] – Айтматов Chingiz, Chingizxonning oq buluti, roman, ruschadan Suyun Qorayev tarjimasi,

[5] – Hamidov X., O‘zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari, Toshkent, 2014.

Sarvinoz UMAROVA,
ToshDSHI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. X.Hamidov

RASHOD NURI GUNTEKINNING “ACHINISH” QISSASI O‘ZBEK TILIDA

Rashod Nuri Guntekinning “Acımak” [1] qissasi Ismatilla Do‘stmurodov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan (“Achinish”) [2]. Qissaning turk va o‘zbek tillardagi nusxalari tahlili tarjimaning asliyatga monand amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bir qator o‘rinlarda tarjimonning so‘z tanlashdagi mahorati namoyon bo‘lgan. Zero, tarjimada so‘z tanlash eng murakkab va eng muhim masaladir. Chunonchi, G‘.Salomovning “Til va tarjima” nomli monografiyasida shunday deyiladi: “Tilning asosiy materiali so‘z hisoblanadi. Shuning uchun biron til haqida gap borganda tinglovchi nazarida birinchi navbatda o‘sha tilning so‘z boyligi gavdalanadi” [3,163].

Asardan olingan parchalar tahlilga o‘tamiz: “*Fakat dikkat ediniz ki "tam bir insandır" sözünü sarfetmedim* [1,3]. Ushbu jumlanı tarjimon quyidagicha o‘giran: “*Lekin e’tibor bergan bo‘lsangiz “komil inson” so‘zini ishlatganimcha yo‘q*” [2,5]. Tarjimon “*tam bir insandır*” birikmasini “*komil inson*” deya berib so‘zlarnı yaxshi tanlay bilgan. Yoki, “*Zahmet etmeyin efendim malûm dedi*” [1,2] jumlası o‘zbekchaga quyidagicha o‘girilgan: “*Aziyat chekib yotmang, muallim afandim*” [2,3]. Bu tarjimada hurmatni ifodalab kelgan “*zahmet etmeyin*” birikmasi “*aziyat chekib yotmang*” shaklida berilgan. Holbuki, “*zahmet etmek*”ning ma‘nosi “ovora bo‘lmoq”, “urinmoq”, “o‘zini qiynab qo‘ymoq” bo‘lsa-da, tarjimon original jumla shakliga mahliyo bo‘lib, tarjima jumlasini turkcha ohangda bergan. Turkcha gapdagi “*malûm*” so‘zini olsak, tarjimon bu so‘zni “*muallim*” deya o‘giran va xatoga yo‘l qo‘ygan. Demak, yosh tarjimon asarnı avvalo anglab, so‘ngra tarjimaga kirishishi kerak edi.

“Tarjimonning vazifasi tarjima qilayotganida gaplarnı shunchaki emas, balki ularning mag‘izida yashirilib yotgan ma‘noni ro‘yobga

chiqarishdan iboratdir” [3,168]. Ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki so‘zma-so‘z emas, balki gap zaminidagi mazmunni ilg‘ab, so‘ngra tarjima qilish lozim: *“Hayat beni biraz reybi yaptı”* [1,3]. Ushbu gap *“Hayot meni biroz keng o‘ylashga majbur etdi”* [2,5] shaklida tarjima qilingan. Arabchdan o‘zlashgan *“reybi”* so‘zining ma’nosi “shubha qiluvchi”dir. Demak turkcha jumlanı *“Hayot meni ko‘p narsalarga shubha ko‘zi bilan qarashga majbur qildi”* berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bunday misollardan o‘nlab keltirish mumkin.

X.Hamidov’ning maqolasida shunday deyiladi: “Badiiy til asar mazmunini ro‘yobga chiqaruvchi yagona vosita hisoblanadi. Har qanday asar o‘z mazmuni, tili (uslubı), sodda yoki murakkab poetik sintaksisiga ega bo‘lishi, so‘zlarning ko‘chma ma’noligi jihatdan turli saviyada yozilgan bo‘lishi mumkin. Badiiy til ijodkorning g‘oyaviy-badiiy maqsadini to‘la ro‘yobga chiqargandagina, u asarning tili kamolotga yetgan hisoblanadi”[4,46]. Yana misollar ko‘radigan bo‘lsak: *“En kötü insanlarda bile basit bir adalet mefhumu var”* [1,3]. Ushbu gap quyidagi shaklda o‘girilgan: *“Eng yomon odamlarda ham oddiy adolat tushunchasi mavjud”* [2,5]. Tarjimon bu yerda *“bile”* so‘zini *“ham”* deb o‘zbek tiliga o‘giran, xolbuki bu so‘zi *“hatto”* degan ma’noni anglatadi. Yana bir misol: *“Pardon pardon hoca harttm...”* [1,7]. Ushbu gapning turkcha tarjimasi quyidagicha: *“Pardon, pardon, honim afandim”* [2,11]. Gapni tarjimon to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilib ketgan. *“Pardon”* so‘zini tarjima qilmasdan shundayligicha qoldirgan, aslida bu so‘z *“kechirasiz”* degan ma’noni anglatadi.

Qissada *“Kabihatli insan düşkün insan onun gözünde ekin tarlalarında bitmiş muzır otlar gibidir”* [1,4]. Bu gap quyidagi ko‘rinishda tarjima qilingan: *“Qabih odamlar va kamchiliklari ko‘p bo‘lganlar uning nazarida ekinzorlarda o‘sadigan zararlı o‘tlardir”* [2,5]. Bu yerda tarjima ma’noli chiqqanini ko‘rishimiz mumkin. Tarjimada so‘z tanlash ancha murakkab hisoblanadi. “Tarjimon uchun so‘z tanlashning mashaqqati yana ham ko‘proq. Chunki u asarnı o‘z tiliga o‘girar ekan, unda tasvirlangan narsani ifodalash uchun yigirmatalab so‘zlar orasidan o‘z istaganlarini ishlata olmaydi” [3,166]. Asl nusxani anglab, uning ma’nosini bera olish tarjimonning mahoratiga bog‘liq.

Quyidagi gapni ko‘radigan bo‘lsak: *“Yine Zehraya geliyorum... O şüphesiz çok mükemmel mahlûk çok iyi muallim...”* [1,4]. Buni tarjimon quyidagicha o‘giran: *“Yana Zaxro masalasiga kelsak, u shubxasiz yaxshi inson va muallimadir”* [2,6]. Bu yerda ham so‘zlar yaxshi tanlangan, tarjima ma’nosini yo‘qotmagan.

“Tarjima jarayonida bitta soʻzni nooʻrin yoki ataylab qoʻshish yohud tashlab ketish, biron iboraning maʼnosini tushunmay yoki qasddan buzin talqin qilish faqat lingvistik qusurga emas, balki qoʻpol, baʼzan hatto siyosiy xatoga olib kelishi mumkin.” [3,168]

Xulosa qilib aytganda, tarjimon asarlarni tarjima qilayotganida juda koʻp mashaqqatlarga duch keladi, bu mashaqqatlarni yengib oʻtish uning mahoratiga, isteʼdodiga, dunyo qarashiga hamda tillarni qay darajada mukammal bilishiga bogʻliq. Soxta ekvivalentlarga kelsak, tarjimada soxta ekvivalentlarni juda koʻp uchratishimiz mumkin. Tarjimon baʼzi hollarda eʼtiborsizligi tufayli ularni anglay olmay, toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilib ketadi. Asarni avvalo oʻqib, gaplarni tagida qanday maʼnolar yashiringanini anglab, idrok qilib soʻngra oʻz ona tiliga yoki boshqa tillarga oʻgirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] – Reşat Nuri Güntekin, “Acımak”, 2008.
- [2] – R.N.Guntekin, “Achinish” qissasi,
- [3] – Gʻaybullar Salomov, Til va tarjima, 1966.
- [4] – Tarjima masalalari, ilmiy maqolalar toʻplami 2-qism, Toshkent 2014.

Mahfuza SHAMSIMATOVA,
TDSHI qoshidagi Olmazor akademik
litseyi 3-kurs oʻquvchisi
Ilmiy rahbar: f.f.n. P.Kenjayeve

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TARJIMA MASALASI

“Adabiyot-yozuvchi-badiiy asar asosan inson tuygʻulariga, inson qalbiga taʼsir koʻrsatadi. – deb yozadi adabiyotshunos olim Naim Karimov – tabiat manzaralarining rangin tasviri kitobxonning parishon xayollarini bir nuqtaga jamlab, uning hissiyot olamiga soʻkinlik, tiniqlik, goʻzallik bagʻishlaydi. Har bir satridan, har bir tashbehidan bayramona, tantanavor sadolar jaranglab turgan asarlar kitobxon qalbiga tantanavor kayfiyatni hosil qiladi. Shoir yoki yozuvchi dilidan oqib tushgan musibat ohanglari esa kitobxonning ruhiy olamiga hazin va oʻksik tuygʻular boʻlib quyiladi” [1,8].

Adabiyot sanʼat turi boʻlar ekan, har qanday sanʼatda boʻlgani kabi uning ham eng muhim xususiyati, joni va ruhi – milliylikdir. Milliy

bo'lmagan san'at yo'q, demak, nomilliy so'z san'ati ham mavjud emas. Badiiy tarjimada ham milliylikni saqlab qolish, yoki boshqacha aytganda, uni qayta tiklash tarjima muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichi, bosh omilidir.[2,75]

Bugungi kunga kelib jahon adabiyotini o'rganish zamon talabiga aylanib borayotganini inobatga olganda, bu endilikda o'zbek adabiyoti oldida turgan yana bir dolzarb mavzu ekanligi anglashiladi. Albatta, bu talabga tarjimonlarimiz yetarlicha e'tibor qaratishyapti, lekin ularning tarjima asarlarida mutlaqo qusr va kamchiliklar yo'q deb bo'lmaydi. Hozirda kitobxonlar orasida jahon adabiyoti asarlarga bo'lgan qiziqish yanada oshib borayotganini hisobga olsak, o'zbek adabiyotshunosligida tarjima asarlarga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchayib borayotganini ko'ramiz. To'g'ri, bu borada "Jahon adabiyoti" jurnali va ko'pgina boshqa gazeta, jurnal, ommaviy axborot vositalari tadqim etayotgan sara jahon adabiyoti namunalarini e'tirof etsak bo'ladi, biroq bu bilan tarjima asarlarni yetarlicha deyish qiyin.

Tarjima – adabiyotda o'z navbatida boshqa janrlardan farqli o'laroq ijod talab turlardan biri hisoblanadi. Asliyat bilan solishtirganda asarda keldirilgan badiiy talqinni ko'rsatib berishda tarjimonning ro'lini, yutuq va bevosita kamchiliklarini belgilab beradi. Bu bilan birga yuqorida aytilganidek milliylikka ham urg'u berish, ya'ni tarjima asardagi o'zga bir davlatning milliy an'analarini, udumlarini kitobxonga yaqqol ko'rsatib berish mutarjimning tarjima o'rnini va mahoratini ko'rsatadi.

Bularni inobatga olgan holda, tarjimon P.Kenjayeveaning tadqiqot ishlari asosida yaratilgan "Binafsha" hikoyalar to'plamini misol qilib keltirish mumkin. XX asr turk adabiyoti taraqqiyotini o'zida mujassamlashtirgan to'plam, adiblar hayoti va ular yaratgan sara hikoyalarni keltirilishi bilan majmua vazifasini ham o'taydi.

Tarjimon maskur hikoyalar to'plamida kirish, so'zboshi o'rnida XX asr turk hikoyachiligining taraqqiyotini ham ilmiy asoslar, turli faktlar asosida yoritib beradi. XIX asrning 70-yillaridan boshlab izohlangan mazkur tadqiqot o'z navbatida o'zbek adabiyotida yaratilgan asarlar bilan o'zaro tahlil qilinib boriladi. Adiblarning to'plamga kiritilgan hikoyalari haqida kitobxonga qisqacha tushuncha beriladi. Turk adabiyoti bevosita yoritilib borar ekan, adiblarning adabiyot olamida tutgan o'rniga, mahorat jihatlari, tasvir, sujetga yonlashishlari haqida so'z boradi, hamda tarbiyaviy jihati muhokama qilinadi.

Kirish qismi nihoyalalar ekan, birin-ketin turk yozuvchilari, ularning tarjimai hollari, tug'ilgan joylari, yashagan sharoitlaridan tortib, butun bir

faoliyati haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Hikoyasidan namuna taqdim etiladi.

P.Kenjayeveaning tarjimon sifatidagi mahoratini, badiiy didini mana shu chertib-chertib tanlagan hikoya tarjimalarida ham ko'rish mumkin.

Tanlangan sujet rang-barangligi to'plamning o'ziga xos yana bir jihatlaridan biridir. Hikoyalar asosan kichik shaharning oddiy odamlari, ularning hayot tarzi, qalbidagi orzu-umidi, ichki dunyosi, samimiyligi, qalbida ardoqlab kelayotgan tuyg'ulari, insonlarning o'zaro yaqinliklari, ayol xiyonati haqidagi bir qator mavzularni qamrab oladi. Buni quyidagi Vus'at O'.Benerning "Havvo" nomli hikoyasi misolida ham ko'rish mumkin:

Onam Havvoning yotgan joyiga borib, tiz cho'kdi. "Havvo, qizim, tuzukmisan, bolajonim? – dedi. Bir qaragin, endi butunlay tuzalib ketding. Ko'ngling nimani tusayapti, nima pishirib beray qizim?" Havvo hech narsa demasdan, miq etmay yotardi. Ko'zlarini katta-katta ochib, "Pahlava" dedi-yu jon berdi".

Ko'rib turganimizdek, hikoya yakuni ta'sirli jumlar bilan nihoyalanadi. Endi bir o'ylab ko'raylik, bu jumlaning aslidan yaratish va kitobxonni onsongina tushinishi uchun qancha harakat qilingan?

Mutaxassislarning aytishlaricha, tarjimon bitta asarni o'girish uchun o'z faoliyatining 98 foizini tagma'noni aniqlashga sarflaydi va asarni kitobxon tushunadigan darajaga yetkazish uchun tayyorgarlik ishini olib boradi. Shundan keyingina, tarjimon o'zini ishga tayyorligini sezsa, yozuv stoliga o'tiradi va asarni o'girishni boshlaydi. Bu amalga 2 foizgina vaqt ajratilar ekan.[3,52]

"Binafsha" hikoyalar to'plamidagi mavzular ko'lami ta'sirli ifodalar, ramzlar, xarakterlarga yondashish bilan kitobxonni o'ziga ergashtirishi, uning beg'ubor qalbini egallashi mumkin. Yozuvchining nima demoqchi ekanligini kitobxonga tushuntirib berish orqali asliday ag'darish o'z navbatida tarjimonning tanlay biladigan so'zida, mos iboralarida ko'rinadi.

Yana shuni alohida takidlash joizki, mazkur to'plamdan turk yozuvchilarining o'zlari ijodlari to'g'risida aytgan fikrlari, hikoya haqidagi talay qarashlari ham o'rin olgan. Jumladan mashhur turk yozuvchisi Usmon Chevikso'yning hikoya janriga bergan ta'rifini o'qib ko'ring:

"Hikoya janri insonning buyukligi-yu, tubanligini eng yuksak cho'qqida aks ettira oladigan ta'sirchan, ixcham janr hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hikoya insonni insondan izlashga, topishga va

soʻzlab berishga qodir janrdir. Inson haqiqatini ochish va aks ettirish borasida boshqa janrlarni hikoyachalik imkoniyatga ega deb bilmayman. Hech boʻlmaganda men uchun shunday... ”[4,106]

Yo boʻlmasa Rasim Oʻzdenoʻrenning hikoya tugʻilish va yozilish jarayoni haqidagi yozganlariga bir koʻz yugurtiring:

“Bugun ortga nazar solib shunday xulosaga keldimki, men hikoyani faqatgina hikoya yozish uchun yozdim, boshqa narsa uchunmas! Ammo bugun qoʻlimga qalam olganda, “baʼzi narsalar”ni hikoya yordamida ochib berish mumkinligini angladim. Menda hikoya yozish jarayoni bir oz gʻalati kechadi: xayolimning bir burchaklarida bulutsimon narsalar koʻrinada: odamlar sharpasi, eski-tuski narsalar, oʻchoq, betartib xona... shular asosida tugʻilgan tragik va dramatik voqealarni... shular vositasida yuzaga kelgan qandaydir xayoliy koʻrinishni bir joyga yigʻishim kerak... bu jarayonni na maqola, na bir tadqiqot yoki qandaydir formula bilan izohlash mushkul. U faqatgina hikoya tili bilangina izohlanishi mumkin...”[4,61]

“Adabiyot sanʼat hodisasi, insonning ruhiy-psixologik faoliyatining asosiy sohasi sifatida olamning obrazli inʼikosi oʻlaroq yashashda davom etadi. Faqat u endi davrning eng yangi va ilgʻor gʻoyalari, milliy gʻoyalar bilan boyigan, eng muhimi esa, badiiy jihatdan juda yuksak darajada turadigan adabiyot boʻlishi lozim. Ozod xalqning mustaqil adabiyoti har jihatdan mustaqil adabiyot boʻlmogʻi kerak. Bu adabiyotga siyqa, oldi-qochdi, oʻrtamiyona asarlarga mutlaqo oʻrin boʻlmasligi lozim”[5,192] – deb yozadi taniqli oʻzbek adabiyotshunos olimi Ozod Sharafiddinov.

Olimning soʻnggi jumlasini bir qaraganda bevosita tarjima sanʼatiga ham qaratilayotganday tuyiladi. Demak, tarjima borasida ham shunday deyish mumkin. Uni tushunmay turib shunchaki soʻzma-soʻz oʻgirish emas, balki yozuvchi yuklagan maʼnoni anglagan holda tarjimalashtirish maqsadga muvofiqdir. Asarni his qilgan tarjimongina haqiqiy badiiy sanʼat yarata oladi.

Sara hikoyalar oʻrin egallagan “Binafsha” toʻplami oʻzbek adabiyoti xazinasini yana bir jahon namunasi bilan boyitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Karimov N. Najot adabiyotdadir.// Yoshlik, 2014, 6-son.

[2] – Z.Isomiddinov. Tarjimada milliylik masalasi.// “Oʻzbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari” mavzuidagi Ilmiy-nazariy anjuman materiallari. T.: “Mumtoz soʻz”, 2014

[3] – K.Jo'rayev. Tarjima asarlarida mantiqiy fikr va uning badiiy talqini.// “O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari” mavzuidagi Ilmiy-nazariy anjuman materiallari. T.: “Mumtoz so'z”, 2014

[4] – P.Kenjayeve. Binafsha (hikoyalar to'plami). T.: “Mumtoz so'z”, 2015

[5] – O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T.: “Sharq” NMAK Bosh tahririyati, 2004.

MUNDARIJA

Sh. Usmanova, X. Hamidov	Tarjima – tillar va madaniyatlararo muloqot jarayoni (soʻz boshi)	3
Sh. Xasanova	“Suhbat va mulohazalar (Lun Yu)” asarining ruscha tarjimalari	6
G.Xaytboyeva	Oʻzbek va xitoy tilidagi asarlarda ranglarni ramziy tilsimlash xususiyatlari	11
O.Niyozova	Oʻxshatishlarni tasviriyl usulda tarjima qilish	18
X.Akbaraliyeva	Turli lingvomadaniyatlardagi oʻxshatishlarning qiyosiy tahlili va tilshunoslik	23
M. Xursandova	Vyetnam tilidagi somatik frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv maʼnolari va ularning tarjimada berilishi	29
N. Rashidova	Oybekning “Navoiy” romani arabcha tarjimasi xususida ayrim mulohazalar	33
Б.Исматуллаев	Языковая политика в Турции. Перелом в «языковой политике» в 30-годы XX века	40
G. Toʻrayeva	Bilvosita tarjima muammolariga doir	44
Z.Mamatsaliyeva	“Hitopadesha” asari tarjimasida shakl va mazmun birligi	48
M.Altundagʻ	Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning berilishi (“Kelinlar qoʻzgʻoloni” asarining turkcha tarjimasi misolida)	52
L.Umarxodjaeva	Hindcha iboralar tarjimasida soxta ekvivalentlik muammosi	56
G. Nazrullayeva	Krishan Chandar hikoyalarining dunyo tillariga tarjimalari xususida	61
G.Joʻrayeva	Har inson koʻnglida shoir yashaydi	64
N.Jalilova	R.N.Guntekinning “Dudaktan kalbe” (“Muhabbat simfoniyasi”) romani oʻzbek tilida	68
D.Asadova	Tarixiy shaxslar nutqining tarjimada berilishi (Yavuz Bahodiroʻgʻlining “Xorazm oʻt ichida” romani misolida)	73
H.Avazmetov	Fors tilidan hikoyalar tarjimasining oʻziga xosliklari.....	77
B.Shermatova	Oʻzbekcha realiyalarning koreyscha tarjimada berilishi masalasi	82
F.Roʻziyeva	Asliyatdagi oʻxshatish, maʼno koʻchishlari va turli badiiy sanʼatlarning tarjimada berilishi	87
M.Yusufjanova	Koreys tilida hurmat kategoriyasi va uning tarjimada berilishi	91

M. Taylanova	Zulfiya she'rlarining koreys tilidagi tarjimalari xususida.....	96
M.Foziliya	“Garri Potter” asari va uning tarjimasida nutqiy xususiyat	99
D. Rahmonova	Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimalar xususida	104
M. Bahromova	Ayrim o‘zbek xalq ertaklarining koreys tiliga tarjimasi xususida	108
О.Пак	Концепт зеркала в произведениях Эдогавы Рампо	113
U.Pardayev	Aziz Nesin hikoyalari o‘zbek tilida	117
P.Ko‘chimova	Badiiy tarjimada so‘z tanlash muammosi (V.Rasputinning “Yong‘in” (“Пожар”) qissasi tarjimasi asosida)	121
K.Farxodova	“Chingizxonning oq buluti” asari o‘zbekcha tarjimasida so‘z tanlash masalasi	123
S.Umarova	Rashod Nuri Guntekinning “Achinish” qissasi o‘zbek tilida	127
M.Shamsimatova	Adabiyotshunoslikda tarjima masalasi	129

Yosh tarjimashunos, 2. “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik” mutaxassisligi magistrantlari va “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo‘nalishi talabalarining yillik an‘anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2016. – 136 b.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
dotsent X.X. Hamidov

Mas’ul muharrir:
filologiya fanlari doktori, professor Sh.R. Usmanova

Taqrizchilar:
“Oltin qalam” gazetasi bosh muharriri N. Salomova
filologiya fanlari doktori, prof. Z.Xudoyberganova

Tex.muharrir: *G. Rahimdjanova*

ToshDShI Kengashining 2016 yil 27-aprelda bo‘lib o‘tgan 9-sonli
majlisida ko‘rib chiqilib nashrga tavsiya etilgan

Bosishga ruxsat etildi 02.05.2016.
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 8,5 b.t. 50 nusxada bosildi.
Buyurtma №

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2016